

Ashirboyev Samixon

***O'zbek
dialektologiyasi***



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

ASHIRBOYEV Samixon

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

**O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi talabalari uchun
darslik**

**"NAVRO'Z" nashriyoti
TOSHKENT – 2016**

KBK 81.12(5 O'zb) 7

UO'K: 119.5.3.

ISBN 978-9943-381-05-6

Ashirboyev Samixon. O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //
T.: «NAVRO'Z» nashriyoti, 2016. – 136 b.

Pedagogika oliy ta'lif muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavriat yo'naliishi ta'lif dasturida talabalarga o'zbek shevalari to'g'risida ilmiy va amaliy bilimlarni berish ko'zda tutilgan. Ushbu darslikda o'zbek dialektologiyasining nazariy asoslari aks ettirilgan. Darslik ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulot materiallari, mustaqil ishlar mazmuni, ushbu fandan malakaviy (o'quv) amaliyoti dasturi materiallari hamda talabalar bilmimi nazorat qilish bo'yicha testlarni o'z ichiga olgan. Unda asosiy tushunchalar o'zbek va ingliz tillarida berilgan. Darslikdan magistrantlar, ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

В образовательной программе направления бакалавриата узбекский язык и литература предусмотрено дать студентам научные и практические знания по узбекской диалектологии. Настоящий учебник отражает основные теоретические вопросы узбекской диалектологии, а структура учебника состоит из текстов лекции, материалов для практических занятий, самообразования, программы квалификационной (учебной) практики и тестов для контроля знания по узбекской диалектологии. В нем основные термины даны на узбекском и английском языках. Учебником могут пользоваться также магистранты и научные работники.

In bachelor degree educational program of "Uzbek language and literature" at pedagogical higher educational institutions to give the scientific and practical knowledge of Uzbek language dialects for students is foreseen. In this textbook the theoretical basis of Uzbek dialectology is described. The textbook comprises the lecture texts, practical training materials, contents of independent assignments, programs of qualificational (study) practices, and tests for knowledge assessment of the students. The main terms are given in Uzbek and English languages. The textbook can be used by the master degree students and researchers.

Taqrizchilar: T. Enazarov, filologiya fanlari doktori (O'zMU)

S. Muhammedova, filologiya fanlari doktori (TDPU)

© "NAVRO'Z" nashriyoti 2016

© ASHIRBOYEV Samixon

Kirish

“O‘zbek dialektologiyasi” ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo‘lib, o‘zbek shevalarini o‘rganadigan fandir. **Dialektologiya** so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma’noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o‘rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I. A. Karimovning: “*Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir!*”, – degan so‘zlarini eslash o‘rinlidir. Dernak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan so‘z emas.

O‘zbeklar hozirgi O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarda, Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy, Uyg‘uristonida va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar. Albatta, ularning tili o‘zbek tili bo‘lsa-da, o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga ham molikdir. Bu fanni o‘rganishdan maqsad o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik va, qisman, sintaktik xususiyatlari haqida talabalarga to‘la ma’lumot berishdir. Bu esa quyidagi vazifalarni keltirib chiqaradi:

- talabalarga o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tayanch bilimlarni berish va shu asosda tayanch tushunchalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish;
- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik qurilishi haqida ma’lumot berish;

¹Каримов И. Ватан ва халқ мангу қолади. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллый китобхонаси нашриёти, 2010. – Б.123.

- shevalarni o'rganish metodlari to'g'risida tushuncha berish hamda sheva vakillaridan ma'lum bir sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish;

- adabiy til va sheva munosabatlari to'g'risida tushuncha hosil qilish; maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'limida dialektal xatolarning oldini olishga nazariy tayyorlash.

Har bir tilning shevalarini o'rganuvchi fan **tasviriy dialektologiya** deb yuritiladi. O'zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir. Bu fan boshqa fanlarni, shu jumladan til tarixini o'rganishda zaruriy manba ekanligini hisobga olsak, bu jarayonda tarixiy dialektologiya to'g'risida ham fikr yuritish lozim bo'ladi. Tilning rivojlanishi ayni o'rinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi. Bu esa **tarixiy dialektologiyaning tekshirish obyekti**dir. O'zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya endigina shakllanib kelmoqda.

Mavzu: O'zbek dialektologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari.
2. O'zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.
3. O'zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
4. O'zbek dialektologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati.
5. O'zbek shevalarini o'rganish metodlari.


Matn

1. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari. O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda **sheva, dialekt, lahja** degan terminlar qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish albatta zarur.

Sheva forscha *ravish, tarz, yo'sin* degan ma'nolarni bildirib, fanda o'ziga xos leksik, fonetik va grammatic xususiyatlari bilan farqlanib

turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaiga oid qismini anglatadi (1-rasm).

1-rasm




Dialekt so'zi yunoncha bo'lib, *sheva* degan ma'nioni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi.

Lahja arabcha so'z bo'lib u ham *ravish*, *tarz*, *yo'sin*, *sheva* ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'dasini anglatadi.

O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular: *qarluq-chigil-uyg'ur lahjasি*, *qipchoq lahjasি*, *o'g'uz lahjasidir* (2-rasm).

2-rasm




Lahja termini o‘zbek, turk tillarida iste’molda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida **dialekt va sheva (гөсөп)** terminlariga ko‘proq murojaat qilinadi.

Bir dialect tarkibidagi shevalarda o‘zaro bog‘langan, lekin kichik va muhim bo‘lgan farqlar bo‘ladi, uni 3-rasmdan anglab olish mumkin.

3-rasm

Shevaning farqlanishi



1 – Beshyog‘och dahasida: - *bɔrsəməz*.

2 – Xadra dahasida: - *bɔrsovuz*.

3 – Chorsu dahasida: - *bɔrso://bɔrsok*.

4 – Eski Jo‘va dahasida: - *bɔrso:vuzə*

Dialektologiyada ikki xildagi dialect to‘grisida fikr yuritish mumkin, ya’ni **mahalliy dialectlar** va **ijtimoiy dialectlar**. Mahalliy dialect umumhalq (milliy) tilining muayyan territoriyaga oid ko‘rinishi, o‘ziga

xos namoyon bo'lishidir. O'zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so'zlarga o'z manfaatlaridan kelib chiqib, o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o'zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga teng emas. Ijtimoiy dialektda shevaga oid so'zlar ham ba'zan qatnashishi mumkin. Boshqacha aytganda ijtimoiy dialektda o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlар bo'lmaydi, lekin ayrim leksik xususiyatlari bo'lishi mumkin.

O'zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o'rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar "til"i sotsiolingvistikating boshqa bo'limlari ob'yektidir.

2. O'zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.

Proftssor E. D. Polivanov "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" nomli asarida (1933) o'tgan asrning birinchi choragidayoq o'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma'lumot bergen edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga borib taqaladi. Professor V. V. Reshetov o'zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug' va qabilalar miqdori ancha ko'p bo'lganligi to'g'risida xabar beradi. Ular ichida o'zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigel, uyg'ur, qipchoq, urug'lari, qangli, qatag'on urug' va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o'ynagan.

O'zbek tilining dialektal o'ziga xosligida qadimgi urug' va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o'zbeklar tilidan ko'pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o'ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialekt xususiyatlarining tobora qat'iy lashishiga aholi punktlarining bir-

biridan uzoq joylashishi muhim rol o'ynagan. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga olib kelgan.

Tarixchi olim K. Shoniyozovning ko'rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo'lgan chigil, xalaj qabilalari lle daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg'ona vohasiga tarqalgan keng territoriyada yashaganlar. Turgesh qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu territoriyalar qarluqlar tomonidan ishg'ol qilingan. IX-X asrlarda o'g'uzlar Sirdaryoning quyi va o'rta havzalarini hamda Orol bo'yalarini ishg'ol qilgan. Qipchoq qabilalari esa, asosan, Oltoy o'lkasida, Irtish bo'yalarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston, Volga, Dunay daryolari bo'yulari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar.

O'zbek tilida sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolganligiga o'zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va forsiy tilning kuchli ta'siri ham sabab bo'lgan. Jumladan, Qoraqalpog'istondag'i o'zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o'zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o'zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg'izistondag'i o'zbek shevalariga qirg'iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o'ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.

Avvalgi satrlarda aytiganidek, o'zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga ba'zan qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, ya'ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala (Markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho'ziqliklari qarluq va o'g'uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

3. O'zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlarga aloqadorligi.

O'zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, "Hozirgi o'zbek tili" fani nazariy asoslariiga tayanadi. Shuningdek, "O'zbek tili tarixi" fanining "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek adabiy tili tarixi" bo'limlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos vazifasini bajaradi. Aksincha, o'zbek

dialektologiyasi bu fanlarning nazariy va amaliy materiallariga asoslanadi. To‘g‘ri, tilshunoslikning bu fanlari o‘quv rejalarida keyingi kurslardan joy olgan, demak, bu fanlar bo‘yicha nazariy, amaliy ma’lumotlar o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo‘srimcha ma’lumotlar olish chog‘ida o‘rganib boriladi.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani, ayniqsa, “O‘zbek tili tarixi” fani bilan uzviy bog‘langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o‘laroq o‘zbek tiliga asos bo‘lgan shevalar hozirgi O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarda tarqalishi, so‘zsiz, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Ta’kidlash lozimki, bizgacha yetib kelgan o‘zbek tili manbalari o‘z davrining adabi tilida yozilgan bo‘lsa-da, ayni zamonda, o’sha davrning shevalariga xos xususiyatlarni ham aks ettirgan. Shuning uchun ham, turli hududlarda yaratilgan yozma yodgorliklarda dialektal o‘ziga xosliklar namayon bo‘ladi, chunki asar mualliflari yoki uni ko‘chiruvchilar muayyan shevaning vakillari bo‘lganligi tufayli ham, ular shevasi xususiyati u yoki bu tarzda asarlarda aks etmay qolmas edi. Bu holat til tarixi asarlarining o‘ziga xosligini ta’minlagan.

Hozirgi sheva faktlari esa til tarixini tushunish uchun ham xizmat qiladi, chunki, avval aytilganidek, tilimiz tarixiga oid so‘zlar, fonetik va grammatic unsurlar tamoman yo‘qolib ketmaydi, balki u yoki bu darajada shevalarimizdan birida o‘z ma’nosida yoki qismen ma’nosini o‘zgaran shaklda saqlanib qoladi, bu esa til tarixidagi ayrim tushunchalarni oydinlashtirishga xizmat qilishi mumkin, masalan, “Devonu lug‘atit turk” asaridagi *анаč* / *anač* so‘zi (qizlarni erkalash shakli) Shimoliy o‘zbek shevalarida, *атиз* (ekin maydoni) so‘zi Xorazmda, *аэдъды* / *avdidi* (terdi) so‘zi *аэдъды* / *ävdädi* tarzida Shimoliy o‘zbek shevalarida, *къзлады* / *kızladı* (yashirdi) so‘zi *гъзлады* / *gizlädi* tarzida Xorazmda va Shimoliy o‘zbek shevalarida hozir ham qo’llanadi. *Кәшүр* / *käşür* so‘zi “Devon”da *turp* ma’nosini anglatgan bo‘lsa, Xorazm shevalarida *зәшүр* / *gašir*

variantida *sabzini* bildiradi. Demak, u qisman ma’no o’zgarishiga uchragan.

O’zbek dialektologiyasi **geografiya** fani bilan uzviy aloqador, ya’ni har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko’lami, aholisining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham e’tiborga olinadi, ya’ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o’zbek dialektologiyasi **o’zbek xalqi tarixi, adabiyoti, folklori, etnografiyasi, san’ati** fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va, ayni o’rinda, ular uchun ham boy material beradi.

4. O’zbek dialektologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati. O’zbek dialektologiyasi o’zbek tili va adabiyoti o’qituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo’lgan fandir. Bu fan bo'yicha olinga nazariy bilimlar, yuqorida ta’kidlanganidek, keyingi kurslarda o’tiladigan fanlarga nazariy asos bo’lib xizmat qilsa, ayni zamonda, til va adabiyot o’qituvchilarini o’zbek dialektologiyasi bilimlari bilan qurollantirib, o’z pedagogik faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlash faoliyatiga ham tayyorlaydi, ya’ni o’quvchilarning yozma va og’zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini aniqlash va to‘g’ri yo’l tutishiga yordam beradi.

5. O’zbek shevalarini o’rganish metodlari.

O’zbek shevalari **tasviriy (tavsifiy), qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya** metodlarida o’rganib kelinmoqda.

Muayyan shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyalarini tuzilgan savolnoma asosida tavsif qilib chiqish asosida o’rganish **tasviriy (tavsifiy) metoddir**. Bunda o’zbek adabiy tili xususiyatlari asos qilib olinadi.

Shevaga xos xususiyatlar yondosh shevalarga, qarindosh tillaga qiyoslab o’rganilishi **qiyosiy metoddir**. O’zbek shevalarini o’rganishda, asosan, **tasviriy** va **qiyosiy** metoddan foydalanilgan hamda boy material to‘plangan.

O’zbek shevalarini o’rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo’lgan **qiyosiy-tarixiy metoddan** ham foydalanilgan. Bu metodga ko’ra, o’zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, “Devonu lug’atit turk”,

"Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganib borilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o'rnlardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va usarlarda uchrab turadi.

Shuningdek, shevalar *lingvistik geografiya* metodi bilan ham o'rganiladi (bu haqda "Areal tilshunoslik (Lingvistik geografiya)" mavzusida fikr yuritiladi).

Takrorlash uchun savollar:

1. Sheva deb nimaga ataladi?
2. Dialekt deb nimaga ataladi?
3. Lahja deb nimaga aytildi?
4. O'zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog'langan?
5. O'zbek shevalari qaysi metodlar bilan o'rganiladi?
6. O'zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'langan?

Tayanch tushunchalar:

O'zbek dialektologiyasi [Uzbek dialectology] – o'zbek shevalarini ilmiy ravishda o'rganadigan fan.

Sheva [pronunciation, accent, dialect] – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.

Dialekt [dialect] – o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Lahja [dialect] – shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo'lgan dialektlar jami.

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjası [Karluk-chigil-uygur dialect] – o'zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

Qipchoq lahjası [Kipchak dialect] – o'zbek tilining qipchoq urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

O'g'uz lahjası [Uguz dialect] – o'zbek tilining o'g'uz urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

Tavsifiy (sinxron) metod [descriptive method] – shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy-tarixiy metod [comparative historical method] – tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa yondash tillarga qiyoslab o'rganish metodi, bu metoddan shevalarni o'rganishda ham foydalilanildi.

Mavzu: Transkripsiya

Reja:


1. Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Unli va undosh tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
3. Yangi o'zbek transkripsiysi.
4. Diakritik belgilar.

Matn

1. Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot.

Transkripsiya lotincha *qayta yozish* degan ma'noni bildiradi. Transkripsiya ta'rifi: "*Shevalardagi konkret nutq tovushlarini, ya'ni fonemaning variatsiyalari, variantlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llaniladigan harflar, ishoralar sistemasiga transkripsiya deyiladi*". Bu ta'rif ayni o'rinda fonetik transkripsiyanı anglatadi, chunki konkret nutq tovushini yozib olishda fonetik transkripsiyanidan foydalilanildi (4-rasm).

4-rasm



Transkripsiya qo'llanish doirasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Xalqaro transkripsiya. Bu transkripsiya lotin alifbosiga asoslanadi.

2. Milliy transkripsiya. Bu har bir milliy tilning amalda bo'lgan yozuvni tizimiga asoslanadi. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llaniladigan transkripsion tizim professor V. V. Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan va u rus alifbosiga asosidagi o'zbek grafikasiga asoslanadi, lekin o'zbek dialektologlari, garchand, V. V. Reshetov transkriptiyasiga moslansalar-da, shevalarni yozib olishda har doim ham unga to'la rioya qilmaydilar, chunki shevalardagi tovushlarni belgilashda har bir tundqiqotchi ma'lum darajada erkinlikka erishishlariga ruxsat etiladi.

Transkriptiya xorijiy tillarni organizhda va til tarixini o'rghanishda ham qo'llaniladi. Bunda yodgorliklarda u yoki bu tovushning (fonemaning) talaffuz (artikulatsion-akustik) me'yorini belgilash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Transkriptiyani **transliteratsiyadan** farqlash zarur. Transliteratsiya bir tildagi bir yozuv tizimidagi matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga o'girishni bildiradi. Masalan, arab yozuvidagi matnlarni kirliga, kirildan lotin yozuviga asosidagi yangi yozuvga ko'chirish transliteratsiyadir.

Transkriptiyaning fonetik va fonematik turlari bor. Fonematik transkriptiya tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi hamda yuqorida ta'kidlanganidek, bunday transkriptiya xorijiy tillarni va til tarixini o'rghanishda qo'llaniladi. Fonetik transkriptiya esa nutqdagi fonemaning variatsiyasi bo'lgan konkret nutq tovushlarini va ba'zi ishoralarini belgilashda qo'llanadi. Bu transkriptiyadan shevalarni o'rghanishda foydalilanadi.

Translatсиya tushunchasi ham bor. U bir yozuvdagи matnni ikkinchi yozuvga kompyuter dasturi vositasida o'tkazilishini bildiradi.

Albatta, har bir tilda joriy yozuvda bo'lgan harflar transkriptiya tizimini amalga oshirish uchun yetarli bo'lavermaydi. Shu jumladan, joriy o'zbek alifbosidagi harflar ham o'zbek shevalarini yozib olishda uning turli fonetik jarayonlarini ko'rsatish uchun yetarli emas. Shu tufayli ham mavjud harflarga qo'shimcha belgililar qo'yiladi, ba'zan esa boshqa yozuv tizimidan harf qabul qilinadi va hk. Demak, sheva materiallarini yozib olish chog'ida har bir dialektolog ijodiy yondoshish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. An'anaviy o'zbek transkripsiysi. Hozigacha olib borilgan dialektologik tadqiqotlar rus grafikasi asosidagi transkripsiyada amalgalashirilgan.

Unli tovushlarni ifodalashda qo'llanib kelgan transkripcion belgilar.

Unli tovushlar barcha tillarda ham ko'p qirrali bo'lib, u o'zbek shevalarida, ayniqsa, fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifodalashda o'zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalaniлади:

a(a) – umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida qo'llanadi. "dj" lovchi shevalarda: *ана, ама, бала*.

ə(ə) – aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: *әкә, әнә, йәшиә*. Bu unli barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi.

ɔ(ɔ) – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo'llanadi: *ɔл, ɔи, ɔлә*.

e(ε) – old qator, o'rtalik-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi: *ел, бел, ўел, кел*.

и(i) – old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o'zbek shevalarida mavjud: *ии, тиүл* (Buxoro). *били* (Farg'on'a). Ko'pincha ularga ikki nuqta ham qo'yiladi.

ы(y) – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *қыз, қыйъқ*. Bu unli singarmonizmli o'zbek shevalarida talaffuzda bor. Bu unliga ham ba'zan ikki nuqta qo'yiladi.

ъ(ъ) – indifferent, shahar shevalarida tarixan **и** va **ы** unlilarining birlashishi (konvergensiyasi) natijasida hosil bo'lgan tovushni ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda **и** unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasini bildiradi, old qator, yuqori-tor, lablanmagan. Shahar shevalarida: *бөрдъ, къргъон*; singarmonizmli shevalarda: *келдъ, ўеттъ бър*.

ь(ъ) – ы unlisining qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasi, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: *бардъ, тъгън, бъкън*.

у(y) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi: *бы, ул, ун*.

ყ(ყ) – old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo‘qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi: **кул, бугун, тун**.

օ(օ) – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida talaffuzda bor: **ом** (adabiy orf. о‘т), **кол** (adabiy orf. **қо‘л**). **ок** (adabiy orf. **օ‘қ**), **мок** (adabiy orf. **то‘қ**).

ө(ө) – old qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: **бел** (bo‘lmoq – ajratmoq), **кол**, **ҳонэр** (hunar). Singarmonizmli o‘zbek shevalarida va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi.

ε(ε) – tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. U ə va e unlilariga ancha yaqin turadigan unlini ifoda qiladi, old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: **ке(л)** - Iqon. **гел-** Xorazm. Bu ma’lumot ko‘rsatilgan shevalarda o‘z kuchini yo‘qotmoqda, faqat Namangan shevalarida saqlanib qolmoqda: **неме** (nima), **қенеке** (qanaqa), **Ҳалимaxon ertamani кемедъ** (Halimaxon erta bilan kelmadı).

Undosh tovushlarda qo‘llaniladigan; transkripsion belgilar.

Undosh tovushlarni ifodalashda fanda rus grafikasi asosidagi undoshlarni ifodalovchi harflardan foydalanilgan. Ular, deyarli, o‘zgarishsiz transkripsiya uchun qabul qilingan. Shunga qaramasdan, uymir undoshlarni farqlash va o‘ziga xosligini belgilashda transkripsion belgilar qo‘llaniladi. Ular quyidagilarda ko‘rinadi:

Ճ – qorishiq portlovchi tovushni ifodalaydi.

Ң - sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyası **-нг/ng**.

ڦ - lab-tish tovushini ifoda qiladi.

ԝ - lab-lab tovushini ifodalaydi **cyw**, **qywmaq** kabi so‘zlarda qo‘llanadi.

Փ - lab-tish tovushi uchun qo‘llanadi va asosan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi.

f - lab-lab tovushini ifoda qiladi, aksariyat o‘rinlarda turkiy taqlidiy so‘zlarda qo‘llanadi. Undoshlar transkripsiyasidagi bu belgilar juda ham qat’iy emas, matnlarda **w** ornida **ڦ** harfini, **f** ornida **Փ** harfini ishlatalish un’anasi bo‘r.

3. *Yangi o‘zbek transkripsiysi.* Bunda ko‘p yillardan beri turkologiyada qo‘llanib kelinayotgan transkripsiya tizimiga asoslanildi.

Bundan buyon dialektologik tadqiqot bilan shug‘ullanuvchilar lotin alifbosi asosidagi quyidagi transkripsiya tizimidan foydalanishi mumkin:

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli: *ana, ata, bala*.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan: *äka, änd, jašä*.

ă – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan: *ăl, ăš, băl*.

e – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: *el, bel, jel, kel*

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan. *bărdi, kirgin*, singarmonizmli shevalarda: *keldi, jetti, bir*.

ī – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan. *bardb, tıg‘ıbn, bıqıbn*.

i va ī unlilari o‘zbek shevalarida qisqa tovushni ifodalash uchun (*til, qil*), shahar shevalarida indifferent tovush uchun qo‘llanadi.

i: - i unlisining cho‘ziq varianti. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud: *i:š, ti:l* (Buxoro), *bi:l* (Farg‘ona).

ii: - ī unlisining cho‘ziq varianti: *qii:z, qii:jiiq* Bu unli singarmonizmli o‘zbek shevalarida talaffuzda bor.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan: *bu, ul, un*.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan: *kül, bügün, tün, ün*.

o – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan. **ot** (adabiy orf. o‘t), **qol** (adabiy orf. qo‘l), **oq** (adabiy orf. o‘q), **toq** (adabiy orf. to‘q).

ö – old qator, o‘rta-keng, lablangan: *böl* (bo‘lmoq - ajratmoq), *köl, höndär* (hunar)

ε – ko‘proq Namangan shahar shevasida qayd qilinadi. Old qator, o‘rta-keng, lablanmagan. *neme(nima)*, *qeneqe* (qanaqa)

Cho‘ziq unlilar uchun ikki nuqtani qo‘llash mumkin.

Undoshlarni transkripsiya qilishda quyidagi harflardan foydalilanadi: **b, d, č** (amaldagi *ch* o‘rnida), **g, γ** (amaldagi *g‘o*rnida), **h, j** (amaldagi *y* o‘rnida), **k, l, m, n, η** (amaldagi *ng* o‘rnida), **p, q, r, s, š** (amaldagi *sh* o‘rnida), **t, v, x, ž** (amaldagi *j* o‘rnida).

Diakritik belgilari:

: (ikki nuqta) – tovushning cho‘ziqligini bildiradi.

’ (akut) – belgining o‘ng tomoniga qo‘yilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qo‘yilsa velyarizatsiyani bildiradi.

> va < – bir tovushning ikkinchisiga o‘tishini ko‘rsatadi.

II – ikki tovush yoki so‘zning parallel qo‘llanishiga ishora qiladi.

() – qavs ichidagi harf ifodalagan tovushning ba’zan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi.

[] – katta qavs matndagi bo‘g‘in, so‘z, transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi, masalan: [Тұлқы/тұлқи] ...*нъмәгә ромәнің әлдәңүз ~ nimägä romänli aldiñiz*... Bu o‘rinda so‘zlovchini bidirgan so‘z ajratib ko‘rsatilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, keyinchalik matn bayonida so‘z va grammatik ko‘rsatkichlarning adabiy tildagi, kiril yozuvi asosidagi va turkologiyadagi transkripsiyasi baravar keltirilib boriladi. Bu quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Adabiy til varianti	An’anaviy transkripsiya	Yangi o‘zbek transkripsiyasi
yurak	үүрәк//джүрәк	juräk // žurək

Matn transkripsiyasidan namunalar

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi shevalaridan namuna.

An’anadagi transkripsiyada: ...Пәшшәнъ бу гәпъ ел-йурттъ джә қыйнәп қойыпть. Пәшшәдән безэр бопты хәлсайык. Быр кәммәғәл шайыр бәрәкән. У пәшшәнъ әлдәңгә бәрәпть. Пәшшә ундән, хъ гәдәй, нәгә келдиң, дып сорәпть. Кәммәғәл шайыр әдәмлә тәртвәткән қыйынчылъилә:нъ, тәммә-тәм олу:(в)нъ котәрьп мәзәргә эбрьш әзәпләрънъ шығыр қып, пәшшәгә оқъверыпты-де, сәнгә мунъ ныме пәйдәсъ во, дыпты.

Yangi o‘zbek transkriksiyasida: ...Pässäni bu gäpi el-jurtti žä qijnäp qoijipti. Pässädän bezär bopti xäläjiq. Bir kämmäyäl šajir bäräkän. U pässäni äldigä bäripti. Pässä undän, hi gädäj, nägä keldiñ, dip coräpti. Kämmäyäl šajir ädämlä tärtvätökäni qijinçilijlä:ni, tämmä-täm olu(v)ni kotärip mäzärgä äbäriš äzäplärini šiýir qip, pässägä oqiveripti-de, sängä muni nime pädäsi vā, dipti.

2. Qipchoq lahjasi shevalaridan namuna.

An’anadagi transkripsiyada: ...Къз өулғайып өн алты джашқа джетельпть. Джыгът өрман ъчъдән кәттәкән қорған қурьп, қызды нықәләп апты. Къз шундайам чырэйлъ бопты-ку, өньц чачь зәрдән

пайда боғандай. Бър күнъ қыз анҳарға башынъ джувиштъ. "Ониң бър дана чачь "узулъп ағып кеткіштъ..."

Yangi o'zbek transkrigsiyasida: ...Qız ulyajip "on žašya žetipti. Žigit "orman içidän kättäkän qoryan qurip, qızdı nikäläp apti. Qız šundajam čiräjili boptü-qu, "oniň čači zärdän pajda boyandaj. Bir kuni qız anharya başını žu(v)ipti. "Oniň бир дана чачи "üzülip aýip ketipti...

3. O'g'uz lahjası shevalaridan namuna.

An'anadagi transkripsiyada: ...Бър варәкән, бър йоқәкән, қади:m заманда бър па:шша боған әкән. Шу па:шшанъ э:шъкынъ э:лдъндә бър да:рах ва: әкән. Бу да:рахнъ бър йа:rpaғъ а:ltynnan, бър йа:rpaғъ кү:mıştәn әкән. Гү:llәdә бър гү:n хәр гү:nъ бър йа:rpaq йоқ оладь әмъш. Соң па:шша са:рай а:damnarынъ са:кчылық э:tmәkә қойыпть.

Yangi o'zbek transkrigsiyasida: ...Bir varákän, bir joqákän, qadi:m zamanda bir pa:šša boyan äkän. šu pa:ššanı ä:šíkini ä:ldindä bir da:rax va: äkän. Bu da:raxnı bir ja:rpağı a:ltünnan, bir ja:rpağı kü:müştän äkän. Gü:llädä bir gü:n är gü:ni bir ja:rpaq joq oladı amiš. Soñ pa:šša sa:raj a:damnarını sa:qçılıq ä:tmäkä qojıpti.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transkripsiya deb nimaga ataladi?
2. Transliteratsiya deb nimaga ataladi?
3. Old qator unlilarni ifodalashda qaysi belgililar qo'llanadi?
4. Orqa qator unlilarni ifodalashda qaysi belgilardan foydalaniadi?
5. Undoshlarni farqlashda qaysi harflar olinadi?
6. Diakritik belgililar deb nimaga aytildi?

Tayanch tushunchalar:

Velarizatsiya [velarization] – undoshlarning qattiqlashishi.

Diakritik belgi [diacritic mark] – harflarga qo'shimcha ravishda qo'yiladigan belgililar, ishoralar.

Dialektolog [dialectologist] – shevashunos, shevani o'rganuvchi olim.

Indifferent [indifferent] – oraliq tovush.

Palatalizatsiya [palatalization] – undoshlarning yumshoqlashishi.

Transkripsiya [transcription] – yozuvning maxsus turi

Transliteratsiya [transliteration] – matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga ko‘chirish, masalan, kirildan lotinga.

Transkripsion belgi [transcriptional mark] – har bir nutq tovushi uchun qo‘llaniladigan harf.

Fonetik transkripsiya [Phonetic transcription] – konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi.

Fonematik transkripsiya [Phonemic transcription] – tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.

Mavzu: O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari

Reja:

1. O‘zbek shevalarining unlilar va undoshlar tizimi.
2. Fonetik qonunlar.

Matn

O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning tonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan o‘zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

1. Unli va undoshlar tizimi.


O‘zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologiyaga oid ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning soni 18tagacha etadi, degan ma‘lumotlar ham beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o‘rganilar ekan, ulardagи fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e’tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o‘rinli bo‘ladi.

Unlilar tizimi (vokalizm). Qarluq-chigil-uygur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda 6tadan 11tagacha unli tovush bor. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda 6ta, singarmonizmli shevalarda esa **9-11**ta unli qo‘llanadi. Toshkent shevasida ъ/i, e/e, ə/ä, ɔ/ä, o/o, y/u; Samarqand shevasida ъ/i, e/e, ə/ä, a/a, o/o, y/u unlilari qo‘llangan bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda ɔ unlisi bilan birligida a unlisi ham qo‘llanadi. Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) **11**ta – a/a, e/e, ə/ä, i/i:, ъ/i, ы/i:, ь/i, o/o,

ö/ö, y/u, γ/ü unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham 11ta unli tovush qayd qilinadi. Ularni jadvalga quyidagicha joylashtirish mumkin (5-rasm).

5-rasm

Unlilarning joylashish tartibi:



Undoshlar tizimi (konsonantizm). O‘zbek shevalaridagi sof turkiy so‘zlarda **b**/**/b**, **p**/**/p**, **v**/**/v**, **m**/**/m**, **t**/**/t**, **d**/**/d**, **c/s**, **č/č**, **ж/ž**, **ш/š**, **н/n**, **л/l**, **p/r**, **й/j** (“y” o‘rnida qo‘llanadi), **к/k**, **г/g**, **ң/ң**, **х/x**, **қ/q**, **ҳ/h** undoshlari doim iste’molda bor. O‘zlashgan so‘zlarda **ү** undoshi **s(ts)** bilan, **ž** (sirgaluvchi bolsa ham) undoshi **ðж/dj** kabi tallaffuz qilinadi. **ф/f** undoshi undov va taqlidiy so‘zlarda lab-lab tovushi talaffuz etiladi, o‘zlashgan so‘zlarda esa **p**, ba’zan **b** undoshiga moyil talaffuz qilinadi. **Н** undoshi aksariyat shevalarda **x** undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forscha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan **h**, **f** undoshlari shevalarda o‘zbek tili shevalarining artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.

Fonetik qonunlar. Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I. A. Bogoroditskiy fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko‘rinishiga ega:

1. *Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizmi*

Bu qonunga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar

qutnashgan bo'lsa, keyingi bo'g'lnarda ham old qator unlilar ishtirok etdi, so'zning dastlabki bo'g'inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo'g'lnarda ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonun faqat shahar va shahar tipidagi shevalarda amal qilmaydi. Bu qonunga kora, so'zning dastlabki bo'g'inida **a/a**, **y/u**, **o/o**, **ы/и:(ъ/і)** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo'g'lnarda ham ana shu unlilardan biri keladi va so'zda **q, γ, x** chuqur til orqa undoshlari ishtirok qilishi mumkin, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida **ə/ä**, **e/e**, **и/i:(ъ/і)**, **ө/ö**, **ү/u** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo'g'lnarda ham xuddi shu unlilardan biri keladi, bunday o'rirlarda **k, g** undoshlari ham qatnashishi mumkin.

2. Labial singarmonizm. Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining "temir qonuni" hisoblanadi. U o'zbek tili va uning shevalarida qisman amal qiladi.

Bu qonunga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'lnarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'lnarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi.

O'zbek shevalarida lab garmoniyasi qonuni so'zlarning dastlabki ikki bo'g'inida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va to'rtinchchi bo'g'lnarda siyrap uchraydi: suyunchi ~ **сүйүнчъ** ~ *sijünči*, ko'rindi ~ **корундъ** ~ *korundi*. Namangan shevasida bo'libdi ~ **болуптұ** ~ *boluptu*, ko'ribdi ~ **коруптұ** ~ *körüptu* va boshqalar.

Singarmonizmdan chekinish hollari:

1. Shevalarda yuklamalar singarmonizmga bo'ysunmaydi: qipchoq lahjasi shevalarda: bo'ldi-ku ~ **болдъ-ку** ~ *boldi-qu*, keldi-ku ~ **келдъ-ку** ~ *keldi-qu*, kelding-a ~ **келдъң-ә** ~ *keldinq-ä*, barding-a ~ **бардъң-ә** ~ *hardinq-ä*.

2. Ayrim qo'shimchalar singarmonizmga bo'ysunmasligi mumkin: masalan: qipchoq shevalarida bora qol ~ **барағай** ~ *baraj*, kela qol ~ **келағай** ~ *kelaj* -*яй/yaj* affiksining old qatorli varianti bo'lmaganligi uchun u singarmonizmga bo'ysunmaydi.

3. Arab, fors, tojik tillaridan o'zlashgan so'zlar aslida singarmonizmga bo'ysunadi, lekin bo'ysunmaydigan o'rirlari ham bor, masalan, muborak ~

муబәрәк ~ *mubārak* (Xorazm), *peshona* ~ *пешона* ~ *pešana* (shim. o‘z. shev.)

Singarmonizm qonuniyati ayni zamonda unlilarning progressiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi.

Umlaut. Bu qonuniyat fanda unlilarning regressiv assimilatsiyasi deb ham yuritiladi.

Bu qonunga ko‘ra, affiksdagи old qator unli asosdagи (u aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi: *son* ~ *сөн* ~ *sān* → *sana* ~ *сәна* ~ *sānā*, *yosh* ~ *йош* ~ *jāš* → *jasha* ~ *йаша* ~ *jāšā*.

Bu qonun Namangan, O‘sh shevalarida, qisman o‘zbek adabiy tilida ham qayd qilinadi. Namangan shevalaridan misollar; *mol* ~ *мол* ~ *māl* *molim* ~ *мәлъм* ~ *mälim*, *sol* ~ *сол* ~ *sāl* → *solish* ~ *сөліш* ~ *sāliš*, *nok* ~ *нок* ~ *nāk* → *noki* ~ *нәкъ* ~ *näki*, *toy* ~ *той* ~ *tāj* → *toying* ~ *тәйң* ~ *tajiq* (6-rasm).

6-rasm

Singarmanizm va umlautda tovushlarning moslashish harakati

Singarmonizmda ————— chapdan o‘ngga;
umlautda ————— o‘ngdan chapga qarab tovush mosligi
yuz beradi.

Singarmonizm: бар+йатыр (borayotir)

Umlaut: бәш+ъ (boshi)

Assimilatsiya. Odatda assimilatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko‘proq undoshlar bilan bog‘liq fonetik qonuniyatdir. Assimilatsiya dastlab progressiv va regressiv assimilyatsiyaga, so‘ng to‘liq va to‘liqsiz assimilyatsiyaga bo‘linadi.

Progressiv assimilatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga nindirsa, regressiv assimilatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi.

To'liq assimilatsiyada o'zaro bir-biriga singib ketadigan tovushlar tushuniladi. Misollar: oldi ~ *о́лӣ* ~ *ālli* (Qarshi, Shahrisabz), suvni ~ *суеви* ~ *suvvi* (Toshk.), bo'ldi ~ *бо́ддъ* ~ *boddi* (Shahrisabz). To'liqsiz assimilatsiyada tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jarangli-jarangsizlik va boshqa holatlarga ko'ra qisman o'xshab ketishi mumkin: ishgan ~ *эшкан* ~ *äškän*, ishga ~ *ъишкә* ~ *iškä* (Toshk.), o'zimdan ~ *#иъминан* ~ *özimnän* (Xorazm.).

Dissimilatsiya. So'z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta'sirisiz tovush variantiga ega bo'lishi dissimilatsiyadir: zarar ~ *зэрар* ~ *zərər*, devor ~ *дуевл* ~ *duväl*, ənjyr ~ *энджър* ~ *ənžil*, qimmat ~ *қыймат* ~ *qıymat*.

Sandhi. Bunda ikki so'zning talaffuzi jarayonida oldingi so'z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so'z) tovushga moslashadi: menga ber ~ *магамбер* ~ *mayamber* yoki dastlabki so'zning oxirgi tovushi (keyingi so'z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: bolak odam ~ *болягадам* ~ *bölägadam*, hayron bo'ldim ~ *ҳәйрэмболлим* ~ *häjrämbolellim*.

Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg'aluvchi variantiga ega bo'lishi spirantizatsiyadir: yubordi ~ *джусувардъ* ~ *žüvärđi* (qipchoq), sabr qildi ~ *савър қълдъ* ~ *savir qıldi* (Xorazm), gapi ~ *гәвъ* ~ *gavi* (qipchoq).

Spontan o'zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta'sirida yuz hermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liqidir: suyak ~ *сүяқ* ~ *süjäg* (Namangan), qarg'a ~ *зарға* ~ *yarya* (qipchoq).

Metateza. U so'z tarkibida undoshlarning o'rinni almashishidir. Qipchoq shevalarida: faryod ~ *пәйрәт* ~ *päjrät*, qo'shni ~ *қончи* ~ *qoñşı*, qumursqa ~ *курмұсқа* ~ *qyrmysqa*, tekshir ~ *тешкәр* ~ *teşkär*.

Reduksiya. So'z tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir: kishi ~ *к(ы)ши(ь)* ~ *k(i)š(i)*, keta ber ~ *кем(ы)сур* ~ *ket(i)vur*, Sharif ~ *Шариф(ы)n* ~ *śär(i)p*.

Eliziya. Tovush tushishi bo‘lib, ikki ko‘rinishga ega, ya’ni ikki so‘z (qo‘shma so‘z) talaffuzida oldingi so‘z tarkibidagi unli tovushning tushib qolishi: bora oldi ~ бўралди(ә) ~ bārāldi(ә), kora oldi ~ көралди(ә) ~ köräldi(ә) va so‘z tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlangan undoshning tushib qolishidir: bo‘lsang ~ бо:са(l) ~ bo:san, bersang ~ бе:сан(р) ~ be:sən(r), ushlat ~ у:шам(л) ~ u:şat(l), qichqir ~ қъчър(к) ~ qic̚ir(q) (Xorazm).

Unlilarning orttirilishi (proteza): loy ~ ълай ~ ilaj, lof ~ ъларъ ~ ilap̚i (qipchoq).

Undoshlarning takrorlanishi (geminatsiya): qari ~ қарръ ~ qarri, ariq ~ арръқ ~ arriq, ashula ~ ашулла ~ ašulla, saqich ~ саққъз ~ saqqız, kichik ~ қъчъз ~ kičči, ulug‘ ~ улъз ~ ulli (Mang‘it)

So‘z boshida va o‘rtasida undoshlarning orttirilishi: ayvon ~ ҳайван ~ hajvan, duchor ~ дувчар ~ dyvčar, necha ~ нейчә ~ nejčə (qipchoq). So‘z boshida x/h undoshining orttirilishi ayrim shevalar uchun o‘ziga xoslikni ham bildiradi. Masalan, Mang‘it shevasida bu holat ko‘zga tashlanadi: ari ~ ҳаръ ~ harı, ayyor ~ ҳайяр ~ hayyar, ayol ~ ҳайал ~ hayal, olis ~ ҳальс ~ halis va boshqalar.

Undoshlarning so‘z boshida tushishi: hatla ~ атла ~ atla, hukrdi ~ үркти ~ ürkti, hisob ~ ъсан ~ əsap, ho‘kiz ~ өкъз ~ ökiz, yog‘och ~ агаач(и) ~ ayač(s) (o‘g‘uz, , shim. o‘zb. shev.).

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho‘ziqliklari.

Birlamchi cho‘ziqlik. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida unlilar cho‘ziq talaffuz etilgan. Bunday cho‘ziqlik boshqa tovush ta’sirida yuz bergen emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiatini bilan bog‘liqidir. Unlilarning bunday cho‘ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan: tush ~ my:ш ~ tu:ş, ot (ism) ~ а:д ~ a:d, bosh ~ ба:ш ~ ba:ş, tuz ~ ды:з ~ du:z, to‘g‘ri ~ ды:ръ ~ du:ri va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho‘ziqligi urg‘uning dastlabki bo‘g‘iniga tushishi xususiyati bilan bog‘langan. Bunday cho‘ziqlik birlamchi cho‘ziqlik deyiladi. Birlamchi cho‘ziqlik boshqa shevalarda ham ba’zan uchrab turadi, jumladan, Farg‘ona shevalarida bil ~ би:л ~ bi:l (bilmoq), Buxoro o‘zbek shevalarida til ~ ми:л ~ ti:l, Andijon shevalarida teri ~ ме:ръ ~ te:ri (qo‘yning terisi), qari ~ қа:ръ ~ qa:ri

(qariya), to'ri ~ **мо:pъ** ~ *tö:ri* (uyning to'risi), Quyi Qashqadaryo shevalarida qani ~ **қа:nъ** ~ *qa:nii*, ular ~ **о:лар** ~ *o:lar* so'zlarida qayd qilinadi.

Ikkilamchi cho'ziqlik. Yondosh kelgan undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush cho'zilishi mumkin: sandiq ~ **санды:** ~ *sändü:*, o'rtoq ~ **орто:** ~ *orta:* (Toshkent), bo'l ~ **бо:** ~ *bo:*, ol ~ **ол:** ~ *ol:* (shim.o'z. shev.), Namangan shevalarida: tegmas ~ **ме:mäc** ~ *me:mäc*, laylak ~ **ла:ла:** ~ *la:la:*. Bunday cho'ziqlik ikkilamchi cho'ziqlik deyiladi. Shevalarda bunday cho'ziqlik ko'pincha **h** undoshining tushib qolishi bilan yuz beradi: Ahmad ~ **ә:мәт** ~ *ä:mät*, dahliz ~ **да:лиз** ~ *da:liz*, mehr ~ **ме:p** ~ *me:r*, qahr ~ **қа:p** ~ *qa:r*.

Uchlamchi cho'zoqlik. Emfatik cho'ziqlik Namangan shahar shevasida qayd qilinadi. Bu shevadagi hozirgi-kelasi zamon fe'lida yorqin ko'rinadi, ya'ni bu fe'l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko'rsatkichi ~ **и/и** va boshqa shakllarda ishtirok etgan **ә/ә** unlisi odatdagidan ko'ra cho'ziq talaffuz qilinadi yoki uning bo'lishsiz shaklida y undoshi tushib qolishi ham mumkin va bo'lishsizlik affiksidagi **ә/ә** unlisi ham ikkilangan cho'ziqlikka ega bo'ladi: bilmayman ~ **би:лма:(и)ма:** ~ *bi:lmä:(j)mä:*, bo'lmaydi ~ **бомә:(и)ди** ~ *bomä:(j)di*, men aytmayman ~ **мә:нна:(и)ма** ~ *mä:nna:(j)mä:*, sen bilmaysan ~ **са: би:лма:са:** ~ *sa: bi:lmä:(j)sä:*


Tovush mosligi. O'zbek shevalaridagi so'zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko'zga tashlanadiki, bir so'z ayni ma'nosini saqlagan holda ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin u ma'noning mosligiga putur yetkazmeydi: doprъ ~ **монъ** ~ *toppъ* (Toshkent), kel ~ **зәл** ~ *gäl* (Xorazm), yo'l ~ **жол** ~ *žol* (qipchoq), shu ~ **шо** ~ *šo* (qipchoq), choy ~ **чәй** ~ *čaj* (qipchoq), bedana ~ **бөдәнә** ~ *bödänä* (Turkiston). Bu kabi so'zlardagi т ~ д, к ~ г, ў/j ~ дж/ž undoshlari va е ~ **ә/ә**, о ~ **у**, е ~ **ө/ө** mosligi namoyon bo'ladi.

Diftonglar. Singarvonizmli shevalarda (qipchoq, o'g'uz lahjalari) diftong hodisasi ko'p uchraydi. Har bir tovush talaffuzida ekskursiya, ish

momenti (to'xtam) va rekursiyaning to'liq qatnashishi yoki har bir tovushning mustaqil talaffuzi monostongdir. Diftong esa bir tovushda boshqa bir tovush elementining ishtirokidan hosil bo'ladi. Adabiyotlarda diftongning ikki turi to'g'risida, ya'ni so'z boshida va so'z ichida (o'rtasida, oxirida) qollanishi aytildi.

O'zbek shevalarida diftongning qollanishida shunday jarayon yuz beradi: talaffuzda asosiy tovush ekskursiyasi boshida shu tovush artikulyatsiyasiga yaqin boshqa tovush (transkripsiyada й/i, ў/j, в/v) tovush unsurlari qoshiladi va to'xtam hamda rekursiyada asosiy tovush (unli tovushlardan biri) talaffuzi saqlanadi; so'z ichida esa ekskursiya va toxtamda asosiy tovush talaffuz etilgani holda rekursiya so'ngida ў/j, в/v undoshlari bilan tugallanadi (7-rasm).

7-rasm



Qipchoq lahjasи shevalarida bu fonetik hodisa ko'proq, o'g'uz lahjasи shevalarida kamroq bo'lsa-da, qo'llanishda bor: ikkinchi ~ *екъинчъ* ~ *екъинчи*, echki ~ *ешкъ* ~ *еški*, ikki ~ *екъ* ~ *eki*, o'ynab ~ *ойнап* ~ *ojnap*. Diftongning ikkinchi turiga ko'ra, artikulyatsiyada ekskursiya va to'xtamda asosiy tovush talaffuz etiladi-da, rekursiyada ў/j tovushi orttiriladi: tush ~ *myu* ~ *tü*/š, sut ~ *cyu* ~ *sü*/t.

O'zbek shevalarida quyidagi diftonglar qayd qilinadi:

“e ~ ē. Ikki ~ *“екъ ~ ēki*, ena ~ *“ена ~ ēna*, ellik ~ *“елға ~ ēlfga*.

“o ~ ō. o'rtal ~ *“орта ~ ōrta*, o'yla ~ *“ойла ~ ōyla*.

“ö ~ ō. o'rdak ~ *“ордак ~ ōrdak*, o't(moq) ~ *“ом ~ ōt*.

“o ~ ū. on ~ *“он ~ ūn*, oy ~ *“ой ~ ūj*.

Y ~ ū. kuz ~ *куз ~ kuz ~ kūz*, kut(moq) ~ *кут ~ küt ~ kūt*.

“u ~ ū. tit(moq) – *муз ~ muž ~ tīt*, buytip (bundaj qilib) ~ *бузтън ~ būztn*.


İ ~ ī. qiz ~ *қызы ~ qız ~ qīz*.

Diftonglarning vujudga kelishida birlamchi choziq unlilarning keyingi shavrdagi taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, *iz* so'zi Qorabuloq shevasida dastlab *i:z* tarzida talaffuz qilingan, so'ng u *“uz ~ i:z* tarzida diftonglashgan. Diftonglar diftongoidlarni hosil qiladi, ya'ni asosiy tovush va uning tarkibida kelgan hamda unga hamohang bo'lgan tovush surʼasi birgalikda diftongoid deb uyritiladi. Masalan, *“екъ ~ ēki* so'zida *“e* tovushi diftongoiddir.

Aksariyat o'zbek shevalarida adabiy tildagi *uzum*, *uzuk*, *ipak*, *ingichka*, *ilon*, *ip* kabi so'zlarning *йузум ~ jüzüm*, *йузук ~ jüzük*, *йынек ~ jynek*, *йыңычка ~ jıñička*, *йылан ~ jilan*, *йып ~ jip* kabi talaffuz qilinishi diftongga aloqasi yoq, balki so'z boshidagi *й ~ j* mustaqil fonema (monoftong) sifatida o'z o'rnidagi qo'llangan. Ular so'z boshidagi *й ~ j* undoshi qipchoq shevalarida “*дж ~ Ҷ*” undoshiga o'tadi: *джузъм ~ žüzim*, *джузък ~ žüzik*, *джъсвәк ~ živäk*, *джъңышқа ~ žiňiškä*, *джълан ~ žilan*, *джън ~ žip*.

Kontrast (jufit) unlilar. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo'ladi. Ular quyidagilar: *и/i: ~ ы/i:*, *ъ/i ~ ь/i*, *ө/ö ~ o*, *ү/ü ~ y/u*, *а,о/ä ~ ə*. (8-turism). Bundan faqat e unlisigina mustasno, uning jufti yoq. Shevalarda contrast unlilar ba'zan so'z ma'nosining farqlanishiga ham xizmat qiladi: *и:c ~ i:s* hidni, *ъc ~ ūs* qurumni (Qoraqolpog'iston o'zb. shev.), *бълуев ~ bılıvı* bilishni, *бълуев ~ bılıvı* fikr-o'yini anglatadi (Turkiston).

Kontrast-juft unlilar



Takrorlash uchun savollar:

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasidagi shevalarda qaysi unlilar qatnashgan?
2. Qipchoq lahjasidagi unlilar qanday sifatlarga ega?
3. O'g'uz lahjasidagi unlilarning xususiyatlarini ko'rsatib bering.
4. O'zbek shevalaridagi unlilar qanday xususiyatlarga ega?
5. Singarmonizm nima, uning qanday turlari bor?
6. Umlaut qanday xususiyatga ega?
7. Unli va undoshlar bilan bog'liq yana qanday qonuniyatlarni bilasiz?
8. Unlilar cho'ziqligining qanday sifat turlari bor?
9. Monoftong, diftong va diftongoid nirma?
10. Kontrast unlilar deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar:

Vokalizm [vocalizm] – unlilar tizimi.

Konsonantizm [konsonantizm] – undoshlar tizimi.

Fonetik qonuniyat [phonetic laws] – o'zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog'siq holda yuz beradigan fonetik hodisadir.

Singarmonizm [singarmonizm] – unlilar uyg'unligi.

Lingval singarmonizm [lingual singarmonizm] – old qator va orqa qator unlilar uyg'unligi.

Labil singarmonizm [labial singarmonizm] – lablangan unlilar
yig'uligi.

Assimilatsiya [assimilation] – unli va undoshlarning o'xshab ketishi
yoki bir-birlariga singishi.

Dissimilatsiya [dissimilation] – undosh tovushlardagi noo'xshashlik.

Unlilar cho'ziqligi [length of vowels] – unlilarning boshqa tovush
m'sirida va uning ta'sirisiz cho'zilishi.

Diftong va diftongoid [diphthong and diphthongoid] – bir tovushda
kinchi bir tovush ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi.

Kontrast unli [Contrast vowel] – old qator va orqa qator
xususiyatlari ko'ra zidlangan unlilar.

Tovush mosligi [correspondence of sound] – so'z ma'nosiga putur
yetkazmaydigan tovush o'zgachaliklari.

Mavzu: O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari

Reja:

1. O'zbek shevalarida grammatic son va egalik kategoriysi.
2. O'zbek shevalarida kelishik kategoriysi.
3. So'z turkumlaridagi ayrim o'ziga xosliklar.
4. O'zbek shevalarida fe'l shakllari.

Matn

O'zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida
to'la ma'lumot berish qiyin, lekin bu masalalarning eng umumlashadigan,
indiqot ob'yektini o'rganishga asos bo'ladigan o'rinnarini qayd qilish
mumkin. O'zbek adabiy tilidagi so'z turkumlari, gap bo'laklari shevalarda
alovida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakl va kategoriyalari,
yozib olingan matnlarning sintaksisi haqida fikr yuritish mumkin.

Grammatik son kategoriysi. Sof ko'plik ma'nosini ifodalashda
shevalarda **-ləp ~ lär, -lap ~ lar, -nəp ~ när, -nap ~ nar, -nə ~ nä, -əp ~ ar, -ə ~ ä, -lə ~ lä, -la ~ la, -dəp ~ där, -dap ~ dar, -məp ~ tär, -map ~ tar** kabi ko'plik qo'shimchalari qo'llanadi.

O'zbek shevalari uchun **-ləp ~ lär** arxivariant hisoblanadi va u barcha
o'zbek shevalarida qo'llanadi.

-ла ~ lä affiksi Toshkent shahar va Xorazm shevalarida faol qo'llanadi: uylar ~ ойлә ~ ojlä, qo'yinglar ~ қойъйлә ~ qojijlä, gullar ~ ғулә ~ güllä, kunlar ~ ғулә ~ güllä.

-на ~ nä affiksi Namangan shevasida qayd qilinadi: uyinglar ~ уйъинә ~ uijjnä, qo'yinglar ~ қойъинә ~ qojijnä.

-ла ~ la varianti esa Xorazm shevalarida uchraydi: qizlar ~ қы:зла ~ qı:zla, ular ~ ҳула ~ һula.

-ә/ар ~ ә/är affiksi shahar va shahar tipidagi shevalarida qo'llanadi: bizlar ~ бъза ~ bizä, sizlar ~ съза ~ siza.

-нәр ~ när, -нар ~ nar, -дәр ~ där, -дар ~ dar, -тар ~ tär, -тар ~ tar affikslari qipchoq shevalarida qo'llanadi: uzumlar ~ ұзұмләр ~ üzümnär, mehmonlar ~ мәхмәннәр ~ mehmannar, jigitlar ~ джысъттәр / джысъгүләр ~ žigittär / žigillär, ojinlar ~ ойундәр ~ ojundar.

O'zbek tilining Qorabuloq, Iqon shevalarida tarixiy qo'sh ko'plik shakli uchraydi: bular ~ булагалар ~ bulalar, shular ~ шугалап ~ šulalar (aynan: bu+lar+lar, shu+lar+lar)

-ләр ~ lär affiksi va uning variantlari Toshkent, Farg'on'a va Xorazm shevalarida hurmat ma'nosini ham ifodalaydi.

Ayrim shevalarda ko'plikning jamlik turini ifodalovchi maxsus affikslar ham bor, masalan, Toshkent dialekti shevalarida виға ~ lug affiksi oz ~ оз ~ oz, uy ~ оў ~ oj kabi so'zlarga qo'shilib, ko'plik jamlik ma'nolarini anglatgan: o'zları ~ озлуға ~ ozlugı, uyları ~ ойлуға ~ ojlugı; -ги ~ gi affiksi shaxsni bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, jamlik ma'nosini anglatadi: сиймекъя ~ аյғымгилә (bu o'rinda oyisi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi), әдемекъя ~ аддамгилә (bu o'rinda ham adasi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi).

Til tarixida ko'plikning -м ~ 1, -ә ~ 2, -к/к ~ q/k affikslari bilan ifodalangan shakllari qo'llangan. Ularning qoldiqqlari, ya'ni -к ~ q affiksining -ак ~ aq varianti Surxondaryonining Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod tumanlarida yashovchi qo'ng'irotlar shevalarining ayrim so'zlarida saqlanib qolmoqda. Ular, avosan, olmosh va fe'l shakllarida uchraydi: Sizlar barıp keldingizlarmi ~ сиз-ак барып көдьңэл-акмъ ~ siz-aq barıp keldinjiz-aqmъ? O'zingizlar ~ 'озынъэ-ак ~ "озиңиз-aq. Bu

affikslar ko'plik ma'nosini eslatib tursa-da, ular ushbu o'rirlarda mavjud ko'plikni ta'kidlashga xizmat qilgan.

Egalik qo'shimchalari. Bu kategorianing ma'nolari ham adabiy tildagi ma'nolariga muvofiq keladi, lekin shevalarda egalik qo'shimchalari ko'p variantli bo'ladi va shu bilan ular adabiy tildan farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

I shaxs birligi: **-мъм/ъм/ум/үм ~ m/im/im/um/üm:** balam ~ **балам** ~ *balam*, inim ~ **ънъм** ~ *inim*, alim (qo'lim) ~ **әлъм** ~ *älim*, jonim ~ **жисанъм** ~ *žanım*, qo'lim ~ **қолум** ~ *qolum*, ko'nglim ~ **көңгүм** ~ *köngüm*;

I shaxs ko'pligi: **-мъз / мыз(c) / ъмъз / ымъз(c) ~ miz / miz(s) -imiz / imiz(s), -умуз / үмүз(c), -уз / вуз ~ umuz / ümüz(s), -vuz / vuzä:** balamiz/s ~ **баламъз/c** ~ *balamız/s*, inimiz ~ **ънъмъз/c** ~ *inimiz/s*, jonimiz ~ **жисанъмъз/c** ~ *žanımız/s*, qolimiz ~**қолъмъз/c** ~ *qolımız/s*, ko'ngliiz ~ **көңгүмүз/c** ~ *könglümüz/s*, ishimiz ~ **ъшъвуз(ә)** ~ *išivuz(ə)*;

II shaxs birligi: **-и/ъи/ъи/үн/үң ~ i/iŋ/iŋ/uŋ/uñ:** bolang ~ **балаң** ~ *balan*, ining ~ **ънъң** ~ *ininq*, aling / qo'ling ~ **әлъң** ~ *älinq*, joning ~ **жисанъң** ~ *žaninq*, qo'ling ~ **қолун** ~ *qolun*, ko'ngling ~ **көңгүң** ~ *könglün*;

II shaxs ko'pligi: **-ңъз / ңыз(c) ~ ηiz / ηiz(s), -ъңъз / ыңъз(c) ~ iŋiz / iŋiz(s), -үңүз / үңүз(c) ~ uŋuz / uŋuz(s), -и:з ~ i:z, и:йлә ~ i:jlä, -(ъ)ңла ~ (и)ңла ~ (и)ңла:** balangiz ~ **балаңъз/c** ~ *balanız/s*, iningiz ~ **ънъңъз/s** ~ *ininqiz*, joningiz ~ **жисанъңъз/s** ~ *žaninqiz/c*, qolingiz ~ **қүдүңъз/s** ~ *qolunqız/s*, ko'nglingiz ~ **көңгүңүз** ~ *könglünüz*, ishinglar ~ **ъшъңла ~ išinqlä**, uyinglar ~ **оийъйлә ~ oijylä**, qo'linglar ~ **қолыңла ~ qolinqla**;

III shaxs birlik va ko'pligida **-у/ү ~ i/i, -сы/ս्य ~ si/si, ба'zan -sy/sy ~ su/sü** affiksi variantlari qatnashadi: bolasi ~ **балась** ~ *balasi*, inisi ~ **ънъсь** ~ *inisi*, ali (qo'li) ~ **әлъ** ~ *äl*, jony ~ **жисань** ~ *žani*, tulkisi ~ **түлкүсү ~ түлкүсү**, qoyi ~ **қойу** ~ *qoju*.

Egalik affikslari variantlarining bunday shakllari singarmonizmning palatal va labial turlari qonuniyatları to'la sakllangan o'rirlarda qayd qilinadi, lekin shevalarda biror qonuniyat bilan bog'lash mumkin bo'limgan xususiyatlar ham uchraydi. Masalan, Toshkent shevasida I shaxs ko'pligida **-вуз / вузә ~ vuz / vuzä** affiksi qatnashadi: kitobimiz ~

кътэрувуз ~ *kitāpuvuz*, II shaxs ko‘pligida esa -*ъ:з* / **ъйъз** / **йлә** ~ *i:z* / *ijlä* / *jla* affksi qatnashadi: kitobingiz ~ **кътапъ:з** ~ *kitāpi:z*, kitoblarling ~ **кътапъйлә** ~ *kitāpijlä*.

Kelishik kategoriyasi. Ma'lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7ta kelishik shakli bo‘lgan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida 6ta kelishik shakli qo‘llanadi. O‘zbek shevalarida esa ba’zan bu raqam to‘rttagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy o‘zbek shevalaridagina 6ta kelishik shakli iste’molda bor. O‘g‘uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg‘ona shevalarida 5ta kelishik qo‘llanadi, ya’ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko‘rsatkich bilan ifodalanadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning “*ū~j*” lovchi shevalarida 4ta kelishik qayd qilinadi, ya’ni qaratqich va tushum kelishiklari bitta ko‘rsatkich bilan, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi ham bitta ko‘rsatkich bilan ifoda qilinadi. O‘zbek shevalarida kelishik qo‘srimchalarining quyidagi variantlari qayd qilinadi:

Bosh kelishik: Ko‘rsatkichi yo‘q.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining aksariyat shevalarida, o‘g‘uz lahjasining ayrim shevalarida funksional emas. Bu kelishik qo‘llaniladigan shevalarda quyidagi affikslar qatnashadi:

-*пън/пъң* ~ *nīŋ/nīŋ*: ena ~ **енәпъң** ~ *enänīŋ*, otaning ~ **атапъң** ~ *atanīŋ* (qipchoq);

-*ън/ъң* ~ *iŋ/iŋ*: ko‘rning toyu ~ **көпъң тойъ** ~ *köpřiŋ tojී*, otning boshi ~ **атың башъ** ~ *atiŋ bašී* (qipchoq);

-*пүң/пүң* ~ *nün/nün*: uning ~ **онуң** ~ *oniŋ*, uyning ~ **үйнүң** ~ *üjnün* (qipchoq);

-*уң/ун* ~ *uŋ/uŋ*: ko‘zning qorachig‘i ~ **көзүң қарачъев** ~ *közüŋ qaračičiŋ*, tunning qorong‘usi ~ **түнүң қараңысь** ~ *tünüŋ qaraŋısi*, qo‘yning juni ~ **қойүң йүнъ** ~ *qojuŋ jüni* (shim.o‘zb. shev.).

-*ծың/ծың* ~ *dɪŋ/diŋ*: bizning ~ **бъздың** ~ *bizdiŋ*, ularning ~ **олардың** ~ *olardiŋ* (qipchoq);

-*дүң/дүң* ~ *dün/diŋ*: qoyning ~ **қойдуң** ~ *qojuduŋ*, ko‘zning ~ **көздүң** ~ *közdüŋ* (qipchoq);

-*тъң/тъң* ~ *tiŋ/tiŋ*: kataknинг ~ **кәтәхтъң** ~ *kätäxtiŋ*, otning ~ **аттың** ~ *attiŋ* (qipchoq).

Tushum kelishigida quyidagi affiksler qatnashadi:

-**иъ/иъ** ~ *ni/nī* affiksi barcha shevalarda qo'llana oladi: olmani ~ **олмәнъ** ~ *älmanī* (Toshk.), suvni ~ **сувнъ** ~ *suvnī* (qipchoq);

-**ъ** ~ *i* affiksi Qorako'l va Olot shevalarida amalda bor: ishni qil ~ **иши қыл** ~ *i:ši qil*, so'zni bilmasang gapirma ~ **сөзъ бымасан гапърмә** ~ *sözi bilmäsän gäpimä*;

-**иу/иу** ~ *nū/nu* affiksi Qorabuloq, Mankent shevalarida uchraydi: qo'zini ~ **қозуну** ~ *qozunu*, talkini ~ **түлкүну** ~ *tulkünū*;

-**дъ/дъ/тъ/тъ** ~ *di/dī/ti/ti* affiksi barcha singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: tog'ni ~ **тавдъ** ~ *tavdī*, yigitlarni ~ **джъгъттардъ** ~ *džıggıttärđi*, otni ~ **аттъ** ~ *attī*, mehnatkashni ~ **мъйнаткәштъ** ~ *mijnätkästi*. -**дъ/тъ** ~ *di/ti* varianti Farg'ona guruh shevalarida ham qo'llanadi: uyni ~ **үйдъ** ~ *ujdi*, ishni ~ **ъиштъ** ~ *išti*.

Aksariyat shevalarda tushum kelishigi affiksidiagi **и** ~ **и** undoshi kuchli assimilatsiyaga uchraydi. Bu ayniqsa Toshkent shevasida yaqqol ko'rindi: qo'lni ~ **қоллъ** ~ *qolli*, boshni ~ **бассъ** ~ *bāssi*.

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi barcha shevalarga xosdir: Biz keldik kelin ko'rgani ~ **бъз келлъ кельн коргәнъ** ~ *biz kellij kelin korgäni*. Chymchuq soysayam qassob soysin ~ **чумчуг соисәйәм қассәр соисун** ~ *čumčug sojsäjäm qässäp sojsun* (Qarshi).

Jo'nalish kelishigida quyidagi affiksler ishtirot etadi:

-**га/ка/қа/за** ~ *-gā/kā/qā/za* affiksi. Bu affiksning barcha variantlari singarmonizmli shevalarda qo'llanadi. Singarmonizmni yo'qtgan shevalarda -**га/ка** ~ *gā/kā* varianti qo'llanadi: uyga ~ **үйга** ~ *üjgā*, ishga ~ **ъишқа** ~ *iškā*; -**қа/за** ~ *qa/za* varianti singarmonizmli shevalarda orqa qator unlilar kelgan negizlarga qo'shiladi: o'qishga ~ **оқышқа** ~ *oqušqa*, **dalaga** ~ **далага** ~ *dalaya*.

-**а/ә** ~ *a/ä* affiksi o'g'uz guruh shevalarida va shimoliy o'zbek shevalarida qo'llanadi: qo'limga ~ **қольма** ~ *qolima*, gullarga ~ **гулләре** ~ *gullärä*.

-**на/нә** ~ *na/nā* affiksi o'g'uz shevalarida uchraydi: alina (qo'liga) ~ **альна** ~ *ällinä*, bolasiga ~ **баласына** ~ *balasına*,

-**йа/йә** ~ *ja/jä* affiksi Qarshi shevasida uchraydi: xurmaga ~ **хурмайя** ~ *xurmaja*, o'ziga ~ **өзьйә** ~ *özjä*, U katta akasiga xurmada qatiq olib

borgan chog'da yo'lda yomg'ir yog'g'an ~ *O кәттә әкәсъиә хурмайә*
қәттәх әб бәргән чокга йолға йәзмур йәккән ~ *O kättä äkäsiä xurmaja*
qatix әб bärğän čäxga jolgä jáymur jáqqän.

Jo'nalish kelishigi affikslari 4 kelishikli shevalarda o'rinn-payt keishigi ma'nosini ham ifodalaydi. Bu yuqoridagi *хурмайә* ~ *xurmaja*,
чокга ~ *čäxga*, *йолға* ~ *jolgä* misollarida ham ko'riniib turibdi.

O'g'uz lajhasi shevalarida va shimoliy o'zbek shevalarida jo'nalish kelishigidagi kishilik olmoshlari menga ~ *маңа* ~ *maña*, senga ~ *саңа* ~ *sanya*, unga ~ *уңа* ~ *uña* shaklida, qipchoq lajhasi shevalarida esa *маян* ~ *mayan*, *саған* ~ *sayan*, *օған* ~ *oyan* shaklida sinkretiklashadi.

O'rinn-payt kelishigida -*да* / *да* / *ма* / *ma* ~ -*dä* / *da* / *tä* / *ta* affiksi qatnashadi. -*да* / *ма* ~ *dä* / *tä* affiksi barcha shevalarda, -*да* / *ма* ~ *da* / *ta* affiksi esa singarmonizmli shevalarda keladi: ishda ~ *ышта* ~ *ištä*, qo'lida ~ *қолуда* ~ *qo'lyda*, ichida ~ *и:чында* ~ *i:cindä*, shu orada ~ *иү орталықта* ~ *šu ortalığıta*.

Chiqish kelishigida 4 toifa affikslar ishtirok etadi:

-*дан* / *тан* / *ман* ~ *dän* / *tan* / *man* affiksining qo'shilish imkoniyatlari keng: -*дан* / *тан* ~ *dän* / *tan* affiksi barcha shevalarda qo'llana oladi: Buxorodan ~ *Бухорадан* ~ *Buxārādən*, sendan ~ *сандаң* ~ *sändän*. Boshqalari esa singarmonizmli shevalarga xosdir: yaprog'idan ~ *тарнақьдан* ~ *тарпақьдан*, maxlyqdan ~ *малуктап* ~ *maxlyqtan* (qipchoq);

-*нан* / *нан* ~ *nän/nan* affiksi Xorazm shevalarida *m*, *n*, *ng(ң/ң)* tovushlari bilan tugagan sozlarga qo'shiladi: o'zingdan ~ *өзүңнан* ~ *öziñnän*, bo'yingdan ~ *бойуннан* ~ *bojuñnan*.

-*дун* / *дин* / *тын* / *тын* ~ *dun* / *dün* / *tin* / *tün* affiksi shimoliy o'zbek shevalarida bu kelishikning asosiy affiksidi: sutchidan ~ *сүйтчидын* ~ *sütjčidin*, oshxonadan ~ *ашханадын* ~ *aşhanadın*, topa olmasdan ~ *тапамасдын* ~ *tapamastın*, Chimkentdan ~ *Чымгәттән* ~ *Čımgættän*.

-*дун* / *дун* / *тун* / *тун* ~ *dun* / *dün* / *tun* / *tün* affiksi ko'proc Qorabuloq, Mankent shevalarida va bir qator singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: uydan ~ *үйдүн* ~ *üjdün*, qo'ydan ~ *қойдүн* ~ *qojdun*.

O'g'uz va qipchoq lajhasi shevalarida egalik va kelishik affikslari o'rtasida interkalyar *n* tovushining kelishi ham kuzatiladi: qo'llarida ~

қолларында ~ *qollarında*, so'zidan ~ **сөзъндан** ~ *sözinnän*, o'zida ~ **өзънда** ~ *özindä*.

Shevalarda modal shakllar. O'zbek shevalarida ot, sifat, fe'l turkumlarining ichki kategoriyalarida shevalarning xususiyatlarini ko'rsatadigan so'z shakllari ham bor. Ular quyidagilar: **-джон** / *žān* affaksi Farg'ona vodiysi shevalarida erkaklar ismiga qo'shilib, hurmat ma'nosini ifodalasa, Xorazm shevalarida **-джан** / *žān* shaklida qizlar (ayollar) imlariga qo'shiladi. **-хон** / *xān* affksi Toshkent, Farg'ona vodiysida erkaklar ismlariga qo'shilganda, hurmat, nasl-nasabga aloqadorlik mazmunini ifoda qiladi. Xorazmda esa erkaklarga hurmat ifodalash uchun **-бай** / *baj* affiksidan foydalaniladi.

Shimoliy o'zbek shevalarida va ayrim qipchoq, o'g'uz shevalarida yoshi kattalarni hurmat qilib, ularning nomini qisqartirib chaqirish keng tarqalgan: Qurbon aka ~ *Kурәқә* ~ *Quräkä*, Sobir aka ~ *Сәкә* ~ *Säkä*, Toshpo'lat aka ~ *Тәшәкә* ~ *Täšäkä* kabi. Bu qozoq va qoraqalpoq tillarining ta'siri bo'lishi mumkin. Yoshi kichiklagni erkalab yoki izzat qilib, qisqartirilgan so'z oxiriga **sh**, **m**, **n** kabi undoshlarni qo'shib talaffuz qilish an'anasi bor: Otajon ~ *Атави* ~ *Ataš*, Dadaxon ~ *Дадан* ~ *Dadan*, Eshmuhammad ~ *Ешим* ~ *Eşim* kabi.

Shevalarda **-иши** ~ *čiš* affaksi ayollarni, qizlarni erkalash uchun qo'llanadi: bikajon ~ **бъкәч** ~ *bikäč*, onajon ~ **анач** ~ *anač* (Xorazm), Onajon (ism) ~ *Anaşı* ~ *Anaš* (shim. o'zb. sh.).

Erkalash-kichraytirish ifodalovchi **-ча** affksi aksariyat shevalarda, xususan, shimoliy o'zbek shevalarida qo'llanmaydi, balki adabiy tilning ta'sirida shevalarda paydo bo'lmoqda.

Sifat. Sifatlardagi adabiy tilga xos aksariyat so'zlar, affikslar shevalarda ham ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi, jumladan, sariq ~ **карь** ~ *sari* (qipchoq, o'g'uz), issiq ~ **и:ссы** ~ *i:ssi*, qora ~ **қара** ~ *qara* (qipchoq, o'g'uz), qattiq ~ **қәттү:** ~ *qättru:* (Toshkent). Sifat daralalaridagi juda ~ **джә** ~ *žä* (aksariyat shevalarda), eng ~ **и:ң** ~ *i:ŋ* (Qarshi), belgining kamligini ifodalovchi -roq affksi **-роқ** ~ *rāq*, **-рақ** ~ *raq*, **-рәқ** ~ *räk* variantlariga ega va boshqalar. Shu bilan birga shevalarning o'z affikslari ham bor. Qipchoq lahjasining aksariyat shevalarida va shimoliy o'zbek shevalarida sifatlardagi belgining kamligi -

ләү(в) / lay(v) ~ läü(v) / lau(v) affiksi bilan ifoda qilinadi: oqroq ~ **акләү(в) ~ aqlau(v), кокләү(в) ~ kökläü(v).**

Belgininh ortiqligini ifodalashda Xorazm shevalarida **зъл ~ zil** so‘zidan foydalaniladi: qop-qora ~ **зъл қара ~ zil qara**, sap-sariq ~ **зъл сары ~ zil sari**.

Son. Sodda va murakkab sonlarning qollanishida farqlar yoq. Ayrim sonlarning talaffuzidagina farqlar qayd qilinadi: ikki ~ **әкъ ~ äki** (Marg‘ulon), yeti ~ **үәдѣ ~ jädi**, elliq ~ **әллѣ ~ älli** (Xorazm), yeti ~ **әжсەтѣ ~ žeti** (qipchoq) va boshq.

Sonning ma’no turlarini hosil qilishda o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi.

Shimoliy o‘zbek shevalarida dona son hosil qilinmaydi, ya’ni sonning qo‘shimchasiz holati dona sonni ham bildiradi, bu shaklda o‘g‘uz lahjasi shevalarida **ðәнә ~ dänä** sozidan foydalaniladi: ikkita ~ **ъиккѣ ðәнә ~ ikki dänä**, uchta ~ **үч ðәнә ~ üč ðänä**. Jamlik son Xorazm shevalarida ikkalasi ~ **иikkъсъ ~ ikkisi**, uchalasi ~**үчъсъ ~ üčisi** kabi shakllar orqali ifoda qilinadi.

Olmosh. Kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o‘zgarish bilan shevalarda qo‘llanadi, ya’ni o‘g‘uz va shahar shevalarida men ~ **мән ~ män**, sen ~ **сән ~ săn** variantida kelishi xarakterli. Qipchoq lahjasi shevalarida III shaxsda u ~ **o ~ o / ул ~ ul / ол ~ ol** variantlarida uchraydi. Ko‘rsatish olmoshining шу ~ **шо ~ šo** (qipchoq), osha ~ **ошъ ~ oš** (Turkiston), mana shu ~ **мәни ~ maňi** (Toshkent), ana shu ~ **әни ~ äni** (Farg‘ona) kabi shakllari mavjud. Adabiy tildagi **у, бу, шу** olmoshlari shimoliy o‘zbek shevalarida **ул ~ ul, бул ~ bul, шул ~ šul** hakllarida qo‘llanadi.

Ravishlarning aksariyati adabiy til variantlariga yaqin, ba’zilari kuchli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi: u yodqa ~ **аёда ~ ayda**, bu yodqa ~ **багда ~ bayda** (Farg‘ona vodiysi shevalarida), kop ~ **көб ~ kob** (qipchoq).

Yordamchi so‘zlar, undov va taqlidiy so‘zlar ham adabiy tildan ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi. **ва** bog‘lovchisi hech bir shevada qo‘llanmaydi. **Ham** so‘zi (h undoshi eliziyaga uchragan holda) shevalarda bog‘lovchi vazifasidan ko‘ra yuklama vazfasida ko‘proq

qo'llanadi. Shu bilan birga shevalarda hu ana ~ **ҳәйлә** ~ *hajlä* (Samarqand), faqat ~ **тек** ~ *tek* (Turkiston), ha ~ **аса** ~ *ava* (o'g'uz), birt-chirt ~ **бърт-чърт** ~ *birt-čirt* (taqlidiy so'z, Turkiston), hav(axir) ~ **ҳав** ~ *hav* (o'g'uz) – bir muddat damimni olayin, axir ~ **бър заман дәмъимни алайн**, **ҳав** ~ *bir zaman dämimni alajin, hav* adabiy tildagi -yu, -ku yuklamalariga ekvivalent bo'ladigan -g'u ~*зү* ~ *yu* ta'kid yuklamasi qo'llanadi: bordi-ku ~ **бардь-гу** ~ *bardb-yu*, keldi-ku ~ **кәдъ-гу** ~ *kädi-yu* (Turkiston). kabi misollar qayd qilinadi. -g'u ~*зү* ~ *yu* yuklamasi bir variantli bo'lib, singarmonizmga bo'ysynmaydi.

Fe'l (tuslanishi). O'zbek shevalarida ham tuslovchi affikslarning (shaxs-son affikslarining) uch tipi qollanadi va ular quyidagi shakllarga ega bo'ladi:

I tip tuslovchilar

Bu tipdagи tuslovchilar to'liq tuslovchilar deb ham yuritiladi va uning:

- I shaxs birligida **-мә(н)/ма(н)** ~ *mä(n)/ma(n)* affiksi qatnashadi: kelaman ~ **келемән** ~ *kelämän*, o'qiyman ~ **оқъымән** ~ **оғъитән** ~ *oqijmän* (Toshkent). Ayrim o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida bu affiksragi n undoshi qo'llanmaydi: boraman ~ **барама** - *barama*, kelaman ~ **гәлемә** ~ *gälämä*.

- I shaxs ko'pligida **-мъз(ә)/мъз/c/пъз/пъз/c** ~ *miz(ä)/miz/s/piz/pız/s/*, **-вуз/вузә** ~ *vuz/vuzä* affikslari qatnashadi. Singarmonizmli shevalarda affiksragi z/z undoshi jarangsizlashadi. **-мъз** ~ *miz* varianti, deyarli, barcha shevalarda qo'llanadi: ketyapmiz ~ **кетвәммъз** ~ *ketvāmmiz*, boryapmiz ~ **бәрвәммъзә** ~ *bärvāmmizä* (Toshkent), **-вуз/вузә** ~ *vuz/vuzä* varianti Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qo'llanadi: ishlajmiz ~ **ышынъвуз(ә)** ~ *işlijvuz(ä)*, qilamiz ~ **қыләвуз** ~ *qılāvuz*, **-пъз/пъз/c/** ~ *piz/pız/s/* varianti (aslida u assimilativ variant) singarmonizmli shevalarda uchraydi: kelyapmiz ~ **келәппъз/c** ~ *kelyäppiz/s*, qarabmiz ~ ~ **қараппъз/c** ~ *qarappız/s*.

-мъз ~ *miz* affiksi Toshkent shevasida **-ди** ~ *di*, **-са** ~ *sä* affiksli so'z shakllariga qo'shila olgan: oldik ~ **әлдімъз** ~ *äldimiz*, aysak ~ **әйтсәмъз** ~ *äjtsämiz*, berdik ~ **бердъмъз** ~ *berdimiz*, yursak ~ **йурсәмъз** ~ *jursämiz..*

- II shaxs birligida **-сə(н)/са(н)** ~ *sä(n)/sa(n)* affiksi qatnashadi: kelasan ~ **ке^ләсән** ~ *keləsən*, oqiyasan ~ **оқъйсән** ~ *oqijisan* (Toshkent). Bu shaklda ham ayrim o‘g‘uz va shimoliy o‘zbek shevalarida **н** undoshi qo‘llanmaydi: borasan ~ **бараса** ~ *barasa*, kelasan ~ **гәләсә** ~ *gäläsä*.

- II shaxs ko‘pligida **-съз/съз/с + лә(р)/ла(р)** ~ *siz/sizz/s + lä(r)/la(r)*, **-с** ~ *s*, **-сълә** ~ *silə* affiksi ishtirok etadi. Bu shaxsda ham singarmonizmli shevalarda affiksdagи z undoshi jarangsizlashadi.

-съз ~ *siz* varianti, deyarli, barcha shevalarda qo‘llanadi: boryapsiz ~ **бәрвәссиз** ~ *bärvāssiz* (Toshkent), ketyapsiz ~ **кетйәпсиз** ~ *ketjäpsiz* (Marg‘ilon).

-съз / съз / с + лә(р) / ла(р) ~ *siz /siz / s + lä(r) / la(r)* varianti singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi: baribsız ~ **барыпсиз/с** ~ *baripsiz/s*, ushlibsız ~ **үшлапсиз/с** ~ *uşlapsız/s*, ko‘rbsizlar ~ **көрпесъзләр** ~ *körpiszizlär*, oqibsizlar ~ **оқыпсиз/слар** ~ *oqipsiz/slар*.

-с, -сълә ~ *s,silə* varianti esa Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qo‘llanadi: ishlaysiz ~ **и^шләүс** ~ *işlijs*, ishlaysiz ~ **и^шләйс** ~ *işläjs*, keləsəzlar ~ **ке^ләсълә** ~ *keläsilla*.

- III shaxsida affiks qatnashmaydi, lekin **-а/ә ~ a/ä, -ү ~ j, -б ~ b** affiksli ravishdoshlar ishtirok etgan fe’llarda va boshqa ayrim fe’llarda **-ðь / ðь / ть / ть ~ di / dī / ti / tī** affiksi va uning ko‘pligida **ба’зан -лә(р) / ла(р) -lä(r) / la(r)** affiksi qo‘llanishi mumkin. Singarmonizmni yo‘qatgan shevalarda faqat **-ðь / ть ~ di / ti** varianti qo‘llanadi: ishladi ~ **и^шләдь ~ i^{slädi}**, kelyapti ~ **ке^вәтть ~ kevätti**, singarmonizmli shevalarda esa **-ðь / ðь / ть / ть ~ di / dī / ti / tī** variantlarining barchasi qo‘llanadi: boradi ~ **барадь ~ baradь**, ichadi ~ **и^чәдь ~ i:^čädь**, ko‘rsatdi ~ **гөрсәтть ~ görsätти** (o‘g‘uz), qirqdi ~ **қырқть ~qırqtı**. Tojikistonning janubiy o‘zbek shevalarida **-мь ~ tu** varianti ham qayd qilinadi: sochyapti ~ **чечомтты ~ čäcättu**.

II tip tuslovchilar

Bu tipdagи tuslovchilar qisqargan tuslovchilar deb ham yuritiladi va ular **-ðь/ðь/ть/ть ~ di/dī/ti/tī** va **-сə/са ~ sä/sa** affikslari bilan shakllangan fe’llarga qo‘shiladi.

- I shaxs birligida faqat **-м ~ m** affiksi qatnashadi: aldim ~ **алдым ~ aldim**, aytsam ~ **айтсан ~ ajtsam**, berdim ~ **бердым ~ berdim**, yursam ~

ўурсам ~ *jürsäm* va b. Shevalardagi *көрдүм* ~ *kördüm*, *қойдум* ~ *qojdum* tuslanishida ikkinchi bo‘g‘indagi lablangan unilarning qatnashishi tuslovchi affiksga tegishli emas, balki o‘tgan zamon affiksi tarkibida kelib, Inbial singarmonizmga amal qilinishidir.

- I shaxs ko‘pligida *-к/қ* ~ *k/q*, *-и:й* ~ *i:j*, *-е/вуз/вузә* ~ *v/vuz/vuzä* affikslari qatnashadi.

-к ~ *k* affiksi singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda qo‘llanadi: *ко‘рдик* ~ *кордък* ~ *kordik*, bordik ~ *бэрдък* ~ *bordik*. Toshkent shevasida shart maylidagina qayd qilinadi: borsak ~ *бэрсок* ~ *barsok*, olsak ~ *алсок* ~ *alsok*. Shuningdek, Toshkent shevasida *-к* ~ *k* affiksini o‘tgan zamon fe‘lida ~z~ z affiksi almashtiradi va bunda qisman fonetik o‘zgaish yuz beradi: bordik ~ *бэрдүз* ~ *bärdüz*, keldik ~ *келдүз* ~ *keldüz*.

-е/вуз/вузә ~ *v/vuz/vuzä* affiksi bilan shakllangan fe‘llarning qo‘llanishi Toshkent shevasida kengroq: borsak ~ *бэрсовуз(ә)* ~ *bärsovuz(ä)*. Shuni ta’kidlash kerakki, bu affiks qo‘shilishida so‘zda sifat o‘zgarishlari yuz beradi, ya’ni *-са* ~ *sä* affiksi tarkibidagi *ә/ä* unlisi o‘unlisiga o‘tadi.

-к/қ ~ *k/q* oppozitiv variantlari singarmonizmli shevalarning asosiy xususiyati hisoblanadi: keldik ~ *келдък* ~ *keldik*, bordik ~ *бардък* ~ *hardiq*.

-и:й ~ *i:j* affiksi Toshkent va Qarshi kabi shevalarda iste’molda bor: urdik ~ *урди:й* ~ *urdi:j*, bildik ~ *бълд:й* ~ *bildi:j*.

- II shaxs birligida *-и* ~ *η* affiksi qatnashadi (bu affiksni buyruq-istik maylidagi *-и* ~ *η* affiksi bilan qorishtirmaslik kerak). Uning qo‘llanish qonuniyatları I shaxsdagi *-и* ~ *m* affiksi bilan aynandir: olding ~ *алдын* ~ *aldın*, aytsang ~ *айтсан* ~ *ajtsan*, berding ~ *бердън* ~ *berdin*, yursang ~ *йұрсәң* ~ *jürsəñ*. Bu shaxsda Xo‘jand shevasida *-и* ~ *η*, *-й* ~ *j* affiksi qollanadi: ketayotgan eding ~ *кетвәтгән едъй* ~ *ketvätgən edij*.

- II shaxs ko‘pligida quyidagi affikslari qatnashadi:

-ңыз/ңыз ~ *ηiz/ηiz* affiksi aksariyat shevalarda qo‘llanadi: bordingiz ~ *бардъңыз* ~ *bardinız*, kettingiz ~ *кемтъңыз* ~ *kettinqiz*. Shundan *-ңыз* ~ *ηiz* varianti singarmonizmni yoqatgan shevalardagina qo‘llanadi. Toshkent va Qarshi shevalarida bu affiks qo‘llanmaydi.

-*ңуз/ңүз* ~ *ηuz/ηüz*, -*ңуз/ңүз* ~ *ηuz/ηüz* affikslari labial singarmonizm amal qiladigan shevalarda qo'llanadi: buyurdingiz ~ *бүйүрдүңүз* ~ *bujurdunuz*, kuttingiz ~ *күттүңүз* ~ *kuttünüz*.

-*иъз* ~ *ji:z*, affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida, -*злә* ~ *zlä* affiksi Qarshi shevasida iste'molda bor: bajardingiz ~ *бәджәрдөйз* ~ *bädärlijz* bordingiz ~ *бәрдөзлә* ~ *bärdizla*.

-*йлә* ~ *jlä* affiksi ham Toshkent va Qarshi shevalariga ko'proq xarakterli: oldinglar ~ *әлдөйлә* ~ *älдijlä*, ishladinglar ~ *ъишләдөйлә* ~ *işlädijlä*

-*иңлә/ңла* ~ *ηlä/ηla* o'g'uz lahjası shevalarida qo'llanadi: keldinglar ~ *әлдөйңлә* ~ *gäldinqlä*, bordinglar ~ *бардөңла* ~ *bardinla*.

- III shaxs ko'rsatkichga ega emas.

III tip tuslovchilar

Bu tipdagı tuslovchilar buyruq-istak maylida qo'llanadi va uning:

- I shaxs birligida quyidagi affikslar qatnashadi va istak ma'nosini ifodalaydi:

-*(ə)ү/(a)ү* ~ *(ə)j/(a)j* affiksi barcha singarmonizmli shevalarda bor: boray ~ *барай* ~ *baraj*, ketay ~ *кетәй* ~ *ketäj*, qo'llay ~ *қоллай* ~ *qollaj*. Ko'rindiki, unli bilan tugagan so'zlarga affiksning -*ü* ~ *j* varianti qo'shiladi. Bu shakl shimoliy o'zbek qarluq shevalarida qayd qilinmaydi.

-*ү* ~ *ij* affiksi singarmonizmni yo'qatgan shevalarda qo'llanadi: ishlay ~ *ъиштый* ~ *işlij*, ketay ~ *кеттый* ~ *ketij*, so'ray ~ *соръй* ~ *sorij*. Bunda unli bilan tugagan so'zlardagi *ə* unlisiga o'zgaradi. Bu affiksning shimoliy o'zbek qarluq shevalarida singarmonistik varianti bor: boray ~ *баръй* ~ *barij*, oylay ~ *ойльй* ~ *ojlij*, ko'ray ~ *коръй* ~ *körij*.

-*ъийн/ъийн* ~ *iün/ijün* affiksi Xorazm va shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: olib borayin ~ *анпаръийн* ~ *apparijün*, *olib kelayin* ~ *әккәлтъийн* ~ *äkkäljin*. Uning qisqargan shakli ham bor: *анпары:н* ~ *appari:n*, *әккәли:н* ~ *äkkäli:n*.

- I shaxs ko'pligida quyidagi affikslar qatnashadi va ular ham istak ma'nosini ifodalaydi:

-*әйну* ~ *äjnu*, -*йлу* ~ *ijlu*, -*әйнук* ~ *äjnuk* affikslari singarmonizmni yo'qatgan shevalarda qo'llanadi: ishlaylik ~ *ъишләйну* ~ *işläjnu*

(Namahgan), **әтъйлу** ~ *ālijlu* (Toshkent), **бәрәйнүк** ~ *bärajnuk* (Namahgan, Xo'jand)

-**әйлъқ/айльқ** ~ *ajlik/ajlıq* affiksi aksariyat singarmonizmli shevalarda talaffuzda mavjud: tushaylik ~ **чүшәйлъқ** ~ *çüşəjlik*, qaraylik ~ **қараильқ** ~ *qarajlıq*. Bu affiksning -**әйлъқ** ~ *ālik* varianti singarmonizmni yo'qtgan shevalargagina xos: qo'llaylik ~ **қоллайлъқ** ~ *qollajlıq*.

-**әйлъқ/айъқ** ~ *ajik/ajiq* affiksi qipchoq lahjası shevalari uchun xarakterlidir: aytaylik ~ **әйтәйлъқ** ~ *äjtäjik*, boraylik ~ *barajiq*.

-**и:үк/ы:үқ** ~ *i:jk/i;jq* affiksi shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: ko'raylik ~ **koru:үк** ~ *köri:jk*, qolaylik ~ **қалы:үқ** ~ *qali:jq*.

-**әль/аль** ~ *āli/ali* affiksi Xorazm shevalarida qo'llanadi: boraylik ~ **бараль** ~ *baralı*, ketaylik ~ **ғытмалъ** ~ *gıtälti*.

- II shaxs birligida affiks qatnashmaydi. Bu shaxsda ishtirok etadigan -**ғын / қын / ғын / қын** ~ *gin / kin / yin / qın* affikslari buyruqni kuchaytirish yoki kuchsizlantirish uchun qo'llanadi.

- II shaxs ko'pligida -(ъ)и / (ъ)и / (ъ)иңлар / (ъ)иңлар ~ *(i)η / (i)η / (i)ηlär / (i)ηlar / (i)ηizlär / (i)ηızlar* affikslari aksariyat shevalarda qo'llanadi: boringizlar ~ **барыңыз(с)лар** ~ *barıñız(s)lar*, kelinglar ~ **кељиңләр** ~ *kelinqlär*, qaranglar ~ **қараңлар** ~ *qarañlar* (qipchoq). -**(ъ)и/(ъ)и** ~ *(i)η/(i)η* varianti adabiy tildagi sungari birlikning hurmat shakli sifatida qo'llanadi.

-**йла** ~ *jlä* affiksi Toshkent, Qarshi kabi shevalarda qayd qilinadi: kelinglar ~ **кељиңйла** ~ *kelijlä*, olib boringlar ~ **әбәрьйла** ~ *äbärijlä*.

-**(ъ)иңла/(ъ)ила** ~ *(i)ηıñla/(i)ηıla* affikslari Xorazm, Qorako'l va Olot shevalariga xosdir: anglanglar (tushuninglar) ~ **аңлаңла** ~ *añlañla*, ko'ringlar ~ **гөрьиңла** ~ *görىñlä*.

- III shaxsda -**сън / сын** ~ *sin / sìn*, -**сун** ~ *sun*, -**съ / сь** ~ *si / sì*, -**су / сү** ~ *su / sü* affikslari ishtirok etadi.

- **сън** ~ *sin* affiksi barcha shevalarda qo'llanadi. - **сън / сын** ~ *sin / sìn* variantlari singarmonizmli shevalarda faol qo'llanadi: eshitsin ~ **ъиштесън** ~ *işitsin* (Toshkent), qaytsin ~ **қайтсын** ~ *qajtsin* (qipchoq).

-**syn** ~ *sun* varianti Namangan shevasida qayd silinadi: korsin ~ **корсун** ~ *korsun*, bilsin ~ **билсун** ~ *bilsun*.

-su/sъ/sу/sу ~ *si/sü/su/sü* variantlari Iqon, Qorabuloq shevalarida uchraydi: borsin ~ **барсъ** ~ *barsı*, ishlasin ~ **ишиләсъ** ~ *i:släsi*, ko'rsin ~ **корсү** ~ *körsü*, qo'yisin ~ **қойсү** ~ *qojsu*.

-дәз/тәз/ләз ~ *dəg/təg/ləg* affiksi Tojikistondagi qarluq shevalarida uchrajdi: ishlasin ~ **ышладәз** ~ *ışlädäg*, pishirsin ~ **башармәз** ~ *bi:şärtäg*, olsin ~ **оләз** ~ *ălläg*. Bu affiks boshqa shevalarda qayd qilinmadi, lekin Alisher Navoiy va Husayniylar o'z asarlarida bu maylning III shaxsida **-dik** affiksini ishlatgan. Alisher Navoiyda:

Telba ko'nglungni, Navoiy, zabit aylay olmading.

Emdi chek andin ilik har sori borsa bordik baytidagi **borsa bordik** iborasi **borsa borsin** deb tushunilgan.

Fe'lning funksional formalari

Sifatdosh shakllari:

- *p/ap/əp* ~ *r/ar/ər* affiksi. Bu affiksning bo'lishsiz shaklida -s qo'shimchasi qatnashadi: Korar - ko'rmasdan gəpirəə berma ~ **Kөрәр-көрмәстән гәпърә:әрмә** ~ *Körär kermästän gäpirä:ärmä*. (Andijon) Shevalarda sifatdoshning -yp/yp ~ ur/ür varianti qayd qilinmaydi. Faqat adabiy til qolipidagi matnlarda qo'llanishi mumkin: Qaldırıg'och qora bolur, Qanoti ola bolyr ~ **Қалдыргаш қара болур, қанаты ала болур** ~ *Qaldırıyaş qara bolur, Qanatı ala bolyr* (Shim. o'z. shev.).

- *мъиши/мъиш/муши/муш* ~ *miš/miš/müš/muš* affiksi. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda faqat **-мъиши/мъиш** ~ *miš/muš* varianti qo'llanadi: borgənmish ~ **бэргэммъиши** ~ *bärgämmuš* (Toshkent), aytgan mish ~ **айтгәнъиши** ~ *ajtgänimis* (Farg'on'a).

- *гән / кән / ған* ~ *gän / kän / yan* / *qan* affiksi. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda faqat **-гән / кән** ~ *gän / kän* varianti qo'llanadi: yo'yan ~ **қойгән** ~ *qojgän*, topgan ~ **тәпкән** ~ *täpkän* (Toshkent).

Ба:шишымда "он лә:pәр ба:йың қы:зыман,

Әлъимдә ду:тарым, "о'йн са:зыман.

A:tам-ә:нам сәвгәнъимә бәрмәсә,

Аққын су:ва акқанъима разъман.

Ba:ssimda "on lä:pär ba:jyñ qt:ziman,

Ä:limdä du:tarım, "o:jın sa:ziman.

A:tam-ä:näm sävgänimä bärmasä,

Aqqin su:va aqganima raziman (Xorazm laparlaridan).

Bu affiks so'ngidagi "n" undoshi ayrim shevalarda regressiv assimilatsiyaga uchrashi mumkin: kelganlarga qaranglar ~ **кегалиларга қарайлар** ~ *kegällärä qäräjlär* (Andijon).

-эн/ан ~ *än/an* affiksi. O'g'uz lahjasiga oid shevalarda uchraydi: borayotgan ~ **баратъран** ~ *baratyrän*, kelgan ~ **зәлән** ~ *gälän*.

-дөгон ~ *doyon* affiksi. Bu affiks shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi va u bir variantlidir: boradigan ~ **барадөгон** ~ *baradoyon*, keladigan ~ **каләдөгон** ~ *kälädoyon*.

-дэжак/джек ~ *žaq/žák* affiksi: oladi ~ **алдэжак** ~ *alžaq*, ketadi ~ **тъмдэжак** ~ *gýtžák* (Xorazm).

-асъ/есъ ~ *asi/äsi* affiksi: borgim keldi ~ **барасыт гәлдү** ~ *barasım gälđü* ~ *barasim galdi*, ichgim keldi ~ **и:чәсъм гәлдө** ~ *i:čäsim gälđü* (Xorazm).

-әчъ ~ *äči* affiksi: borayotgan edim ~ **бәрәчи:дым** ~ *bäräči:dim* (Quyi Qashqadaryo).

-гучъ ~ *guči* affiksi Xo'jand shevasida qayd qilinadi va bu affiksdagi ъ/i unlisi lab garmoniyasiga uchraudi: boradigan edim / eding / edi ~ **бәргүчүдүм** / **бәргүчүдүң** / **бәргүчүдө** ~ *bärgüčudum* / *bärgüčuduñ*, *bärgüčudi*. Faqat III shaxsdagina bu unli lablanmaydi.

Ravishdosh shakllari:

-ә/а/ү ~ *ä/a/j* affiksi. Bu affiks varianti barcha singarmonizmli shevalarda qo'llanishda bor. Singarmonizmni yoqatgan shevalarda faqat - **ә/ү** ~ *ä/j* varianti qo'llanadi: keta berdъ ~ **кетә вурдъ** ~ *ketä vurdi* (Marg'ilon), oynay-oynay ~ **ойнай-ойнай** ~ *ojnaj-ojnaj*, bora-bora ~ **бара-бара** ~ *bara-bara* (qipchoq). Xorazm shevalarida uning bo'lishsiz shaklida yana - **и/и** ~ *in/in* affiksi qo'llanadi va bu affiks tarkibidagi a/ä/ü unlilari ъ/ь ~ i/î unlilariga o'zgaradi: ko'rmay ketdi ~ **гөрмыйн съттө** ~ *görmijin gitti*, olmay ketti ~ **алмыйн съттө** ~ *almijin gitti*.

-п/ъп/ъп ~ *p/ip/ıp* affiksi. Bu affiksning jarangsiz undosh dilan tugagan variantlari barcha shevalar uchun xosdir: ishlab ~ **ышләп** ~ *işläp*, olib ~ **альп** ~ *alip* (Andijon), lekin qipchoq shevalarida bir qator pozitsiyalarda jaranglashgan variant ham qo'llanadi: borib edi ~ **барыб едъ** ~ *barib edi*, kelib edi ~ **кельб едъ** ~ *kelib edi*.

-*уб* / *уб* / *ун* / *ун* ~ *üb* / *ub* / *üp* / *up* affiksi. Shevalarda bu affiks variantlai qo'llanmaydi, lekin adabiy lashgan ayrim she'riy (folklor) matnlarda qayd qilinishi mumkin.

-*энъ* / *кэнъ* ~ *gāni* / *kāni* affiksi. Bu affiks faqat singarmonizmni yo'qotgan shevalarda qayd qilinadi: borgani ~ *бэргэнъ* ~ *bārgāni*, eshitgani ~ *ешигэнъ* ~ *eşitkāni*.

-*ынчә* / *кынчә* / *ынча* / *кынча* ~ *ginčä* / *kinčä* / *yinčä* / *qinčä* affiksi: yurguncha ~ *йүргөнчә* ~ *jürginčä*, barguncha ~ *барғынча* ~ *barynčä*. Men barmaguncha sen kelma, kuyib-yanib yurguncha ~ *Мән бармагынча сән гәлмә, күйіп-йанып йүргөнчә* ~ *Män barmayinča sän gälmä, kijip-janip jürginčä* (o'g'uz). Adabiy tilda bu shaklda birinchi bo'g'inda *u(y)* unlisi qo'llanadi.

Bu affiksning shimoliy o'zbek shevalarida -*ычи:* / *кычи:* / *гычи:* / *қычи:* ~ *giči:* / *kiči:* / *yiči:* / *qiči:* variantlari qayd qilinadi: ko'rguncha ~ *корғычи:* ~ *körgiči:*, aytguncha ~ *айткъчи:* ~ *ajtkiči:*, borguncha ~ *барғычи:* ~ *baryči:*, otguncha ~ *атқъчи:* ~ *atqiči:*.

-*и:* ~ *i:* affiksi. O'g'uz lahjası shevalarida qo'llanadi. Adabiy tildagi -*a* ravishdosh affiksi ma'nosiga mos keladi: yuradi ~ *йури:dъ* ~ *juri:di*. Lekin *йури:dъ* ~ *juri:di* shaklidagi fe'l adabiy tildagi *yurar* edi shakliga ekvivalent bo'ladi.

Adadiy tildagi -*gach* / *kach* / *qach* affiksining variantlari shevalarda uchramaydi.

Harakat nomi shakllari. Unda quyidagi affikslar qatnashadi:

- *мак* / *мақ* ~ *mäk* / *maq* affiksi o'g'uz lahjası uchun xarakterlidir: oynamoq ~ *ойнамақ* ~ *ojnamaq*, ketmoq ~ *зұтмәк* ~ *gitmäk*.

-*и* / *ыш* / *ыш* / *үш* / *үш* ~ *š* / *iš* / *iš* / *üš* / *uš* qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining xususiyatidir: bilish ~ *былыш* ~ *biliš*, yig'ish ~ *ийгыш* ~ *jiyiš*, o'rish ~ *оруш* ~ *oruš*, ko'rish ~ *коруш* ~ *köriš*. Singarmonizmni yo'qatgan shevalarda *и* / *ыш* ~ *š* / *iš* variantlarigina qo'llanadi.

-*е* / *үе* / *үе* ~ *v* / *uv* / *üv* affikslari qipchoq lahjası uchun xarakterlidir: biluv ~ *былув* ~ *biluv*, eshituv ~ *ешитув* ~ *eşituv*, qoluv ~ *қалув* ~ *qaluv*.

Shuni ajtish lozimki, harakat nomining har uchala varianti adabiy tilga juz'i tahrir bilan qabul qilingan va adabiy tilning ta'siri natijasida bu affikslar shevalarda aralash qo'llanmoqda.

Fe'l zamonlaridagi ayrim o'ziga xos xususiyatlar

Ma'lumki, shakllangan fe'llar ravishdosh hamda sifatdosh affikslari va tuslovchi affikslarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Fe'llarda tuslovchi affikslardan oldin qo'llanadigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Shu bilan birqalikda, bu affikslar qo'shilganda, turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi va bu holat shevaning adabiy tildan ba'zan kuchli farqlanishiga olib keladi.

O'tgan zamon shakli tuslanishi.

Yopmoq fe'li: *джанқаттман* ~ *жарқаттман*, *джанқансан* ~ *жарқансан*, *джанқан* ~ *жарқан*; *джанқаммис* ~ *жарқаммис*, *джанқансъс* ~ *жарқансъс*, *джанқан* ~ *жарқан*.

Bo'lishsiz shakli: *джаппагаммман* ~ *жаррайтман*, *джаппагансан* ~ *жаррайсан*, *джаппаган* ~ *жаррайан*; *джаппагаммис* ~ *жаррайаммис*, *джаппагансъс* ~ *жаррайансъс*, *джаппаган* ~ *жаррайан* (qipchoq).

Bormoq fe'li: *бәргәммән* ~ *bārgämmän*, *бәргәнсән* ~ *bārgänsän*, *бәргән* ~ *bārgän*, *бәргәнвуз* ~ *bārganvuz*, *бәргәнсъла* ~ *bārgansilä*, *бәръишән* ~ *bārişgan* (Toshkent).

Fonetik-morfologik o'ziga xosliklar, ayniqsa, murakkab o'tgan zamon fe'llarida yorqinroq ko'rindi:

Qipchoq lajhasi shevalarida: *кељведым* ~ *kelivedim*, *кељведың* ~ *kelivediñ*, *кељведеть* ~ *kelivedi*; *кељведьк* // *кеведенък* ~ *kelivedik* // *kevedik*, *кељведыңыз* ~ *kelivediñiz*, *кељведеть* // *кељведеть* ~ *kelivedi* // *kelivedi*; *баръвәдым* ~ *barivädim*, *баръвәдьң* ~ *barivädiñ*, *баръвәдеть* ~ *barivädi*; *баръвәдьк* ~ *barivädk*, *барвәдьңыз* ~ *barivädiñiz*, *баръвәдьңла* ~ *barivädiñlä*, *баръвәдьла* ~ *barivädilä* (Xorazm);

Toshkent guruh shevalarida: *бәрувдым* ~ *bāruvdim*, *бәрувдьң* ~ *bāruvdin*, *бәрувдеть* ~ *bāruvdı*; *бәрувдьй* ~ *bāruvdij*, *бәрувдьъз* ~ *bāruvdı:z*, *бәрувдьйла* ~ *bāruvdijlä*, *бәръшувдеть* ~ *bārişuvdi* (Toshkent).

Qarshi-Buxoro guruh shevalarida -r/ər sifatdosh affikslari fe'l shakllarida -й/j affiksi bilan almashadi va adabiy tildagi *borar edi* so'z shakli *бәрәйъдым* ~ *bāräjidim*, *бәрәйъдьң* ~ *bāräjidin*, *бәрәйъдеть* ~

bārājidi; бэрэйъдък ~ bārajidik, бэрэйъдъңзла ~ bārajidiñizlä, бэрэйъдъ ~ bārajidi tarzida tuslanishga ega bo'ladi.

Hozirgi zamon fe'llarida tuslovchi affiksdan oldin qo'llanadigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Toshkent shevasida **-вәт** ~ *vät* affiksidikeyingi т/t undoshi regressiv assimiliatsiyaga uchraydi: *бэрвәммән ~ bārvāmmän, бэрвәссән ~ bārvässän, бэрвәсттә ~ bārvätti, бэрвәммъз(ә) ~ bārvämmiz(ə), бэрвәссылә ~ bārvässilä, бәгъшессттә ~ bārişvätti*.

Buxoro shevalarida **-әп** ~ *āp* affiksidiagi p undoshi ham regressiv assimiliatsiyaga uchraydi: *бэрәммән ~ bārāmmän, бэрәңсән ~ bārāpsän, бэрәптә ~ bārāpti, бэрәммъз ~ bārāmmiz, бэрәңсъз ~ bārāpsiz, бэрәптълә ~ bārāptilä*.

Qipchoq shevalaridagi **-джатър** ~ *žatır*, **-ватър** ~ *vatır*, Xorazm shevalaridagi **-йатър** ~ *jatır* affikslarining singarmonistik variantlari yoq: **барајатърман** ~ *barajatırman*, **кељәджатърман** ~ *keläžatıřman* (qipchoq), **гәйатърман** ~ *gäjatırman*, **барайатърман** ~ *barjatırman* (Xorazm) va hk.

Qorabuloq shevasida bu shaklda **-айт** // **әйт** ~ *ajt* / *äjt* affiksi qo'llanadi: borjapman ~ **барајтма** ~ *barajtma*, borjapsan ~ **барајтса** ~ *barajtsa*, borjapti ~ **барајттә** ~ *barajtti*, ajtjapman ~ **е:дәйтма** ~ *e:däjtmä*, ajtjapsan ~ **е:дәйтсә** ~ *e:däjtsä*, ajtjapti ~ **е:дәйттә** ~ *e:däjti*.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida **-мәль** / **маль** ~ *mäli* / *malı* affiksi zaruriyatlik fe'lini hosil qilgan: borish kerak ~ **бармаль** ~ *barmalı*, ichish kerak ~ **и:чмәль** ~ *i:čmäli*. Bu shakldan yana boshqa shakllar hosil qilinadi: aytish kerak edi ~ **айтмальдъ** ~ *ajtmalidi*, ichish kerak edi ~ **и:чмәльдъ** ~ *ičmälidi*, bormaslik kerak ~ **бармальмас** ~ *barmalimas*, ichmaslik kerak ~ **и:чмәльмәс** ~ *ičmälimäs*.

So'z yasalishi

So'z yasalishida ham o'ziga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiy tilidagi so'z yasovchi affikslar shevalarda rang-barang fonetik variantlarda uchraydi. Shu bilan birga shevalarning bevosita o'ziga xos yasovchi affikslari ham mavjud:

-әк ~ ak affiksi fe'lidan sifat yasaydi: suzag‘on sigir ~ **сузак съевр ~ vizak siyir**, tepag‘on ot ~ **dəpək at ~ däpäk at** (Xorazm).

-әкъ ~ äki affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonistik varianti yoq: tashqaridan ~ **сыртакъ ~ sırtakъ**: tashqaridan eshitdim ~ **сыртакъ ешиттъм ~ sırtakъ eşittim**, yoddan ~ **йадәкъ ~ jadäki**: yoddan oqidi ~ **йадәкъ оқыдь ~ jadäki oqıdı** (Shimol. o'zb. sh.). Bu affiks adabiy tilda **oqzaki so'zida uchraydi**.

-ал / әл ~ al / äl affiksi sifatdan fe'l yasaydi: sarg‘ay ~ **сарал ~ saral**, ozay ~ **азал ~ azal**, ko'pay ~ **көнәл ~ köpäl** (Xorazm).

-(a)доң ~ (a)don affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonistik varianti yoq: oqshamgacha (tungacha) ~ **ахшамадоң ~ axşamadoñ**, kechgacha ~ **гечадоң ~ geçädoñ** (Xorazm).

-ләк / лақ ~ læk/laq affiksi sifatdan ravish yasaydi: chapaqaj oshiq ~ **чапләк a:shıq ~ čapläk a:şıq**, onaqaj oshiq ~ **онлақ a:шық ~ oňlaq a:şıq** (Xorazm).

-чыл / чыл ~ čil / cil affiksi otdan sifat yasaydi: mahmadona ~ **сөзчыл ~ sözčil**, uyqichi ~ **үйхъчыл ~ ijxičil** (Sim.o'zb. sh.)

-са / ca ~ sā / sa affiksi Turkiston, Qoraqalpog‘g’iston o'zbek shevalarida otdan ot yasaydi: **йенса ~ jeñsä** (non yopishda qo'lga kiyiladi), **йанса ~ japsa** (bir yo'la yopiladigan nonlar to'dasi), **мойынса ~ mojınsa** (aravaga qo'shish uchun otning bo'yniga solinadigan asbob, bo'yinturuq)

-сақ / сақ ~ säk / saq affiksi yasama otdam sifat yasaydi: yataq‘on **йатымсақ ~ jatımsaq**, yurag‘on ~ **йұрұмсақ ~ jürümsäk**. **Қар्य йатымсақ, ғаш үйрұмсақ каләдь ~ Qarı jatımsaq, ғaş jürümsäk kalädi**. Adabiy tilda bu affiks *qurumsoq* so'zida qayd qilinadi.

-чылап / чылан ~ čilap / cilap affiksi otdan ravish yasaydi: erkaklarcha ~ **әркәкчыләп ~ ärkäkčiläp**, xotinlarcha ~ **хатынчылан ~ xatinčilap** (Xorazm).

-ша / ша ~ šä / ša affiksi: tenglashtir ~ **төңшә ~ teñšä**, qaçsha ~ **қахшиа ~ qaxša**, qursha ~ **куриша ~ qurša**, quruqlashtir ~ **курухшиа ~ quruxša**, quloq sol ~ **тыңшиа ~ tñša** (Andijon).

Bir qator kamunum affiksilar ham qayd qilinadi:

-мәк ~ mäk affaksi sifatdan ot yasajdi: ko'kat ~ **коқмәк ~ kokmäk** (Andijon, Farg'ona).

-шүг ~ šug affaksi otdan sifat yasaydi: yopishqoq ~ **йелъмишүг ~ jelimšuy** (Toshkent).

Xorazm shevalarida ba'zi o'rirlarda chiqish kelishigi affksi so'z yasash funksiyasini bajargan: boladek bo'lди ~ **бала́дън болдъ ~ baladın boldi**, bolamdek bo'lди ~ **ба́ла́мнын болдъ ~ balamnın boldi**, otdek yuribdi ~ **аттын йуръыпты ~ attın jüripti**.

Shevalarda shunday misollar uchraydiki, yasalishdagi har ikkala qism adabiy tilda mavjud, lekin adabiy tildagi bir so'z yasovchi affiks o'rnida ikkinchi bir so'z yasovchi tanlanadi: **дамъзъяq** (Xorazm) – adabiy tida *tomizg'i*, **qамышъяq** (shim. o'zb. shev.) – adabiy tilda *qamishzor*.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbek shevalaridagi morfologik o'ziga xos xususiyatlar qaysi turkum va kategoriyalarda namoyon bo'ladi?
2. Ko'plik affiksining adabiy tildan farq qiladigan o'rirlarini aytib bera olasizmi?
3. Egalik affikslaridagi adabiy tildan farq qiladigan o'rirlarini aytib bera olasizmi?
4. Turlovchi affikslarning qo'llanish xususiyatlarini aytib bera olasizmi?
5. Qaysi shevałar besh kelishikli, qaysilari to'rt kelishikli?
6. Shevalardagi tuslovchi affikslarning tiplarini aytib bera olasizmi?
7. Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shakllarining hosil qilinishini izohlab bering.
8. O'z shevangizga xos so'z yasovchi affikslarni aytib bera olasizmi?

Tayanch tushunchalar:

Shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari [morphological and syntactic peculiarities of dielects] – o'zbek shevalaridagi so'z turkumlari va so'z tarkibi hamda uning sintaktik tizimi.

Shevalarda grammatik son kategoriyasi [the category of grammar plurality in dielects] – shevalardagi birlik, juftlik va ko'plikni birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda egalik kategoriyasi [the category of possessive in dialects] – shevalardagi egalik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda kelishik kategoriyasi [case category in dialects] – kelishik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda so‘z yasalishi [the word formation in dialects] – shevalardagi yangi so‘z hosil qilish tizimi.

Mavzu: O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari

Reja:

1. Shevalarda so‘z birikmasi va izofali birikmalar.
2. Sheva matnlarida gaplarning aks etishi.

Matn

O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari kam o‘rganilgan. Bu soha M. Turobova va Y. Jumanazarovlarning tadqiqot obyekti bo‘lgan, xalos.Y. Jumanazarov o‘g‘uz shevalarining sintaktik xususiyatlarini o‘rgangan. Ushbu o‘rinda e’lon qilingan sheva materiallari asosida shevalarining ayrim sintaktik xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Avval ta’kidlaganimizdek, o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, fonetika, leksika va morfologiyyada namoyon bo‘ladi. Sintaksis esa hozirgi adabiy tilning so‘zlashuv shaklini ko‘proq aks ettiradi. Bu, ayniqsa, savol-javoblardan iborat matnlarda ko‘zga tashlanadi. Xalq shevalaridan yozib olingan ertak, lapar va boshqa janrdagi matnlarda ham, asosan, adabiy tilga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etgan.

1. So‘z birikmaları. Shevalarda so‘z birikmalarining barcha turlari qayd qilinadi.

Bitishuv: ...дэстәхәндә йетмъиши хыл евқәт тәййир боптъ ~ ...dästäxändä jetmiš xil āvqat tajjär bohti (Toshkent).

Boshqaruv: Мән хәссәммә әп чъкъй ~ Män xässämme äp čiqij (Toshkent). Пәс-пәс тамдын қар йавар ~ Päs-päs tamdün qar javar (Turkiston). Нан чыгарды ~ Nan čiyardı (qipchoq)

Moslashuv: Хәсәндүн атасы байлардын колуда наевча бол откән ~ Häsändin atası bajlardın goluda navča bop ötkän (qatag‘on shevasi).

Shevalardan yozib olingen matnlarda turkiy izofalar keng qo'llangan: Мыйтанинага адрас көрпә ташласть ~ *Mijmannaryga adres körpä taşlađi* (qatag'on). Сәмъз кой қымбат оладь ~ *Samiz aoi qimbat oladī* (Iqon). Сагчы күйтк шах эккә депть (Turkiston). Forsiy va arabiy izofalar esa kam qo'llanadi. Bunday iboralar tojik va o'zbek xalqlari aralash yashagan joylardagi aholi nutqida uchrashi mumkin.

2. Sheva matnlarida ko'proq sodda gaplar qo'llangan. Shunday bo'lsada, sodda gaplarni har doim ham chegaralab olish qiyin. Sheva matnlarida, ayniqsa, gap bo'laklari inversiyasi ko'p qayd qilinadi: **Бър кун бъз келдък Хәсән джайъя** ~ *Bir kün biz keldik Hasan žajŷa*. Соңra мен отърдым чәй ъчъп ~ *Soñra men otirdim čaj ičip* (Samarqand).

Matnlarda ko'chirma gaplar faol qo'llangan: **Кәл айттыкъ: - Нымә берасан?** ~ *Käl ajttiki: - Nimä beräsän?* ...иетъп айттыкъ комъссарга: - **Бъзлэр нымә гүнах қылдък?** ~ ...*jetip ajttiki komissarya: - Bizlar nimä günah qildiq?* (qipchoq)

Matnlarda qo'llangan qo'shma gaplar ham murakkab xarakterga ega emas: **Бър кунъ тор(т) къшиъ тузо: қойып отъръшгәнәкән, тузо:га бър котта ләйлә:(к) ылъпъпты** ~ *Bir kuni tor(t) kiši turā: qojip otirişgänäkän turā:ga bir kätä läjlä(k) ilinipti* (Toshkent). **Қазъ бәйтъ күтъп отърәвурсын, ендъгъ гәппъ бәйдән ешътъң** ~ *Qāzi bājji kutip otirävursin, endigi gäppi bojdān ešitiŋ* (Toshkent).

Undalmalar faol qo'llanadi: Bolam, senga maslahat kerakmi, yo bo'masa, mol-dunyomi ~ Болам, саган мәслә:т кәрәкмъ, яа бомаса, мал-дуйнамъ ~ Balam, sayan mäslä:t käräkmi, ja bomasa, mfl-dijnami? (Turkiston).

Gaplarda kirish so'zlar ko'p qayd qilinadi: ...әнъ шуйтъп, Ҳәсән Қайқъ еттәдән кечкәчәй мъйнәт қып... ~ ...äni šujtip, Häsän Qajqı ettädän keçkäcäj mijnät qıp... (Qatag'on). Undalmalar qo'llangan: E таҳсир, әхър бъззъ бър търъвуз бօғән ~ *E täxsir, äxir bizzi bir pirivuz bogän* (Toshkent) va hokazo.

Ayrim shevalarda -къ ~ *ki* yuklamasining gapdag'i urg'u beriladigan so'z shaklida qo'llanish hollari qayd qilinadi. Bu Qorabuloq shevasida yorqin ko'rinadi: **Бий тағыңкъ ортасъда ҳальгъ там турупты.** *Bij tagyńkъ ortasъda ħalǵı tam turuppty.*

о:йуқкъ и:чъдә сулув қы:з ба: әкә(и) ~ Bi:j tayıñki ortasında haliyi tam turupti. Bi:j öjüñki i:čidä suluv qı:z turupti.

Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalarning sintaktik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Yozib olingen matnlardan qanday sintaktik hodisalarni qayd qilishingiz mumkin?

Tayanch tushunchalar:

Gap [sentence] – fikrni ifoda qiluvchi eng kichik til va nutq birligi.

So'z birikmasi [phrase] – ikki mustaqil so'zning o'zaro aloqaga kirishuvi.

Bitishuv [contiguity, parataxis] – ikki mustaqil so'zning grammatik ko'rsatkichlarsiz birikuvi.

Boshqaruv [government] – hokim so'zning talabiga ko'ra tobe so'zning tushum va vositali kelishiklarda hamda ko'makchilar bilan qo'llanishi asosida aloqaga kirishuvi.

Moslashuv [conformance] – qaratqich va qaralmish munosabati.

Inversiya [inversion] – gap bo'laklarining odatdagagi tartibining buzilishi va u shu gapdagagi bo'laklarining gapdagagi mavqeiga ta'sir etmasligi.

Mavzu: O'zbek shevalarining leksik xususiyatlari

Reja:

1. O'zbek shevalarining leksik tarkibi.
2. Shevalarda so'zlarning o'zaro semantik munosabatlari.

Matn

O'zbek shevalari leksikasi keng tushuncha bo'lib, u quyidagi ma'nolarda tushunilishi mumkin:

1. O'zbek tilining shevalaridagi lug'at qatlaming barcha sohalariga oid so'zlar yig'indisi.
2. Muayyan shevaga xos barcha so'zlar yig'indisi.
3. Har bir shevaning o'ziga xos so'zlari. Bunday so'zlar o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, lekin ular adabiy tilning boyish manbalari hisoblanadi.

O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishi sifatida unda bo'lgan barcha qatlamlarni va aksariyat so'zlarni o'zida birlashtiradi, binobarin, o'zbek shevalari quyidagi leksik qatlamlardan iborat bo'ladi:

1. Umumturkiy so'zlar.

2. O'zlashgan so'zlar:

- arab tilidan o'zlashgan so'zlar;
- forsiy tillardan o'zlashgan so'zlar;
- rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlar.

3. O'zbek tili sharoitida yaratilgan so'zlar.

4. Shevalarning maxsus so'zları.

Umumturkiy so'zlar barcha turkiy tillarda va shevalarda qo'llanadi hamda ular o'zbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin yoki kuchli va kuchsiz fonetik o'zgarishga uchrashi ham mumkin. Bunga *yer/yer*, *ish is*, *bash/ bas* kabi va boshqa turli sohalarga oid so'zlar taalluqlidir. Shevalar lug'at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so'zlar tashkil etadi.

O'zbek tiliga so'zlar, asosan, uch manbadan: arab, fors-tojik, rus tilidan o'zlashgan, lekin kamroq bo'las-da, boshqa tillardan ham o'zlashgan so'zlar bor. Bu so'zlar shevalarda fonetik qulaylashtirilgan holda iste'molda bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, shevalar lug'at tarkibida forscha-tojikcha so'zlar ko'proq, arabcha so'zlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal so'zlar juda kam uchraydi, bu esa bunday so'zlarning o'zlashish jarayoni ko'proq vaqt talab qilishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy bo'limgan til unsurlari negizida yangi so'zlar ham yasalgan. Bu ayniqsa, fan-teknika, bozor iqtisodi bilan bog'liq so'z va terminlarning yasalishida ko'rindi. Ularning asosiy qismi boshqa tillarga xos, lekin yasovchi unsuri (elementlari) o'zbek tiliga oid bo'ladi va u yasama so'z o'zbek tilidagina qo'llanadi, masalan, *ishxona*, *bizneschi*, *tasvirchi* va boshqalar. Bular, albatta, shevalarda ham ayrim fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi va sheva mulki bo'lib qoladi.

Shevalarning maxsus so'zlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. O'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadagan so'zlar. Bunday so'zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo'llanadi. Bu toifaga aksariyat hollarda qarindoshurug'chilikka oid so'zlarni kiritish mumkin: kelin oyi ~ **зэлън бый** ~ *gälin biji*, tog'a ~ **нағачъ** ~ *naγačči*, oyi ~ **әчә** ~ *ačä*, pochcha ~ **дамад** ~ *damad*. Shuningdek, boshqa tildan o'zlashgan so'zlarning shevada ko'chma ma'no kasb etishi ham muayyan shevaga xos so'zlarni tashkil etadi: **вәджис** ~ *väž* - javob so'z, gap (aslida vaj - bahona), **зам** ~ *zat* - narsa, predmet (aslida kelib chiqish ma'nosida), **кәсә** ~ *käsä* - piyola (aslida *kosa* ovqat qo'yiladigan idish) va h.o.

2. Kuchli fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar: tashqi ~ **дышиан** ~ *dyshian* (Xorazm), tuproq ~ **йорпақ** ~ *yorpaq* (shim. o'zb. sh.), qirq ~ **қых** ~ *qyx*, obkash ~ **ейнагаш** ~ *ejnayaš*, aqallı ~ **акқал** ~ *aqqal*, takht, tayёр ~ **тақ** ~ *taq* (qipchoq), filoof ~ **ғылп** ~ *yilp* (shim. o'zb. sh.) va boshqalar.

Shevalardagi so'zlarning o'ziga xos ma'no munosabatlарини quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) *ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so'zlar bilan yuritiladi:*

чәкәлә: ~ *čaqälä*: (Toshkent) // **бувәк** ~ *buväk* (Fargona) // **бала** ~ *bala* (shim. o'zb.sh.);

түхум ~ *tyxym* (Toshkent) // **мәйәк** ~ *mäjäk* (qipchoq) // **йымърта** ~ *jimırta* (Xorazm);

оғыр ~ *oyir* (Toshkent) // **кәль** ~ *käli* (shim.o'zb.sh.) // **соқъ** ~ *so:qi* (Xorfzm);

ҷумәлъ ~ *čumäli* (Toshkent) // **морчә** ~ *morča* (Samarqand) - **қарындинса** ~ *qarinža* (Xorazm);

шорчәй ~ *čöpčaj* (Toshkent) // **мәтәл** ~ *mätäl* (Samarqand) // **ертәй** ~ *ertäj* (Xorazm).

b) *ayni bir so'z shevalarda turlichcha ma'noga ega bo'ladi:*

шатъ ~ *šäti* - Toshkentda arava qismi nomi, Farg'onada narvon;

бувъ ~ *buvi* - Toshkentda ota va onaning onasi, Farg'onada ona ma'nosida.

пәшиша ~ *pässä* - Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Farg'ona va shimoliy o'zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

d) *narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko'ra ular turlicha nomlanishi mumkin:*
нэнпэр ~ *nānpär*. U qush va parranda patidan yasaladi (Samarqand);
чекъч ~ *čäkič*. U yog'och va simdan yasalib, urish, yassilash ma'nosini ifoda qiladi (Toshkent);

дукъ ~ *duki*. U duk-duk taqlidiy so'zidan olingan (shim.o'zb.shev).

Shuningdek, ayrim so'zlar sheva vakillarining ayni bir predmetni ifodalashda turli tushunchalardan kelib chiqishlari asosida nomlangan bo'lishi mumkin. Masalan, **түйнәк** ~ *tüjnäk* (shim.o'zb.shev.) / **дүйнәк** ~ *dü:näk* (Xorazm.) // **санча/чапча** ~ *sapča/čapča* (qipchoq) so'zları endigina palakda paydo bo'lgan, pishmagan qovunni bildiradi. **түйнәк/дүйнәк~ түjnäk/dü:näk** so'zi **tugmoq** tushunchasidan kelib chiqqan, **санча/чапча** ~ *sapča/čapča* esa **sop**, **ushlash** mumkin bo'lgan predmet tushunchasi bilan bog'liq.

Har bir shevaning o'ziga xos so'zları bo'ladi. Masalan, shimoliy o'zbek shevalarida **жасай** ~ *žaj* (asta), **тунгуттърғу** ~ *tünqütiruv* (asabga tegmoq), **бөтән** ~ *bötän* (boshqa); qipchoq lahjasi shevalarida **съяқ** ~ *sijaq* (ko'rinishi), **ыран** ~ *ırən* (epidemiya); o'g'uz lahjasi shevalarida **мәңзәмәк** ~ *mäñzämäk* (o'xshamoq), **атъз** ~ *atız* (ekin maydoni) kabi.

O'zbek shevalaridagi barcha leksik o'ziga xosliklarni o'rganish lug'at boyligimizni, til imkoniyatlarimizni kengaytirishimizga yordam beradi va shuning uchun adabiy tilga bunday so'zлarni o'rni bilan qabul qilib borish zarur.

O'zbek shevalariga xos so'zлarni **jargon** va **argolardan farqlash lozim**, dialektal so'zlar barcha sheva vakillari uchun **tushunarli** bo'ladi. Jargonlar va argolar esa dialektal xarakterga ega bo'lmaydi, balki ma'lum ijtimoiy guruh yoki bir toifa kishilar uchungina **tushunarli** bo'ladi. Masalan, savdogarlar tilida **dollar** o'rnida **ко'ки**, yallachilar tilida **то'y** o'rnida **отар**, **pul** o'rnida **yakan** so'zi qo'llanadiki, ular ijtimoiy diafektga oiddir.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbek shevalarining lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek shevalaridagi dialektal so'zlar fonetik xususiyatlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

3. Dialektal so‘zlarni ma’no xususiyatlariga ko‘ra qanday guruhlash mumkin?

Tayanch tushunchalar:

Dialektal so‘z [Dialectal word] – ma’lum shevagagina xos bo‘lgan so‘z.

Shevalarning leksik tarkibi [Lexic structure of dialects] – ma’lum bir shevadagi barcha so‘zlar yig‘indisisi.

Jargon [slang] – ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos so‘zları. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.

Leksik qatlam [lexic layer] – tildagi (shevadagi) tub va o‘zlashgan so‘zlarning guruhlari.

**Mavzu: Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjası
Reja**

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahja leksikasidan namunalar.

Bu lahja tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi **tukyuu** (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar, Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552 yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini egallagan edilar. X asrda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta territoriyada hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiyligi til bo‘lib qolgan.

Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan territoriyada qarluqlar bilan birga **chigil**, xalaj,

yag‘mo qabilalari ham yashaganlar. **Uyg‘urlar** ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan.

Chigil qabilasi IX-X asrlarda lle daryosining janubida, Issiqko‘l atroflarida yashaganlar².

Mazkur lahja vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi. Fanda bu lahja qisqacha **qarluq** lahjasi deb ham yuritiladi. Bu lahjaga kirgan shevalarning aksariyati turkiy tillarga xos bo‘lgan singarmonizmni yo‘qotgan. Bundan shimoliy o‘zbek shevalariga mustasnodir.

Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra ikki guruhga ajralishidir, ya’ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizm qonuni amal qilmaydi (uning ayrim ko‘rinishlarigina mavjud bo‘ladi), shimoliy o‘zbek shevalarida esa singarmonizm saqlanadi. Shuning uchun ham shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar 6, 7tadan (ə/ä, o/o, y/u, ъ/i, e/e, a/a, ɔ/ɔ) oshmaydi, shimoliy o‘zbek shevalarida esa 9, 10 unli a(ɔ)/a(ä), ə/ä, o/o, ө/ö, y/u, ү/ü, ы(ъ)/i(i), и(ъ)/i:(i), e/e qatnashadi.

Bu lahja shevalari 5 va 4 kelishikli shevalardir. Bundan shimoliy o‘zbek shevalari mustasno bo‘lib, Chimkent shahar shevasigina 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida 6 kelishik saqlanadi. Fe’l shakllarida ham o‘ziga xosliklar mavjud.

Bu lahja shevalari uch guruhga bo‘linadi:

1. Toshkent guruhi shevalari. Bunga Toshkent, Parkent, Piskent, Yangiyo‘l kabi shevalar kirdi.

Fonetik xususiyatlari:

- so‘zning har qanday bo‘g‘inida old qator va orqa qator unlilar qo‘llana oladi: **əkə ~ əkä, бўла ~ bälä, ғоломъ ~ yäläti;**
- **у/ü** va **y/u** unlilari o‘rnida oraliq **y/u** unlisi qo‘llanadi: **гул ~ gul, қум ~ qum;**
- **ө/ö** va **o/o** unlilari o‘rnida oraliq **o/o** unlisi qo‘llanadi: **қол ~ qol, кол ~ kol;**

²Bu ma’lumotlar K. Shoniyozdovdan olindi. Qarang: Шониёзов К. Қарлуклар ва уларнинг тили хакида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: ФАН. – Б. 481-490.

- ъ/i: va ъ/i unlilari o'tnida oraliq ъ unlisi qo'llanadi: **към ~ kim**, **чък ~ čiq;**

- e/e tovushi i tovushiga o'tadi: mehnat ~ **мъхнат ~ mixnät**, dedi ~ ~ **дъдъ ~ didi:**

- so'z oxirida **к/ү ~ k/j** almashuvi yuz beradi: terak ~ **терәй ~ teraj**, ertak ~ **ертај ~ ertaj**, bilak ~ **бъләй ~ bilaj;**

- so'z oxirida **q** undoshi tushib qoladi: chiroq ~ **чырс ~ cirā:**, sariq ~ **сәрп ~ sāru:**, ochchiq ~ **әччу ~ äccü:**, qattiq ~ **қәттүй ~ qättü:** ;

- so'z oxirida va so'z boshida **g'** undoshi tushib qoladi va unda oldingi ɔ unlisi cho'ziq talaffuz etiladi: og'zi ~ ɔ:зъ ~ ă:zi, tog' ~ **тօ ~ tā:** ;

- **h** bo'g'iz undoshi aksariyat shevalarda **x** undoshiga o'tadi: mehnat ~ **мъхнат ~ mixnät**, hunar ~ **хунәр ~ xunär.**

- tushum kelishigida to'liq progressiv assimilatsiya yuz beradi, masalan, tushum kelishigida: tuzni ~ тузъ ~ **tzzъ** (tuzni); **әшишъ** (oshni); **темърръ ~ temirri;**

- so'z boshida **r/t** va **ч/č** undoshlari mosligi yuz beradialmashadi: tushda ~ **чүштә ~ čuštä**, tushdi ~ **чүшті ~ čušti.**

Morfologik xususiyatlari:

- 5ta kelishikli sheva;

- bu shevalarda **-нъ ~ ni** affaksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: suvning tegi ~ **суевъ тәйъ ~ suvvı teji**, pichoqning sopi ~ **pъcho:nъ сәрп ~ pičā:ni sāpi**, otni min ~ **отъ тън ~ ātti min;**

- hozirgi zamon davom fe'li Toshkentda **-вәт ~ vät** (**кеевәттъ ~ kevätti**), Parkentda **-әт ~ āt** (**бәрәттъ ~ bärätti**) variantlarida qo'llanadi.

-и/ъи/үи ~ š/iš/uš affaksi harakat nomining asosiy affaksi hisoblanadi: yetishdi ~ **йетъиштъ ~ jetišti**, qurishdi ~ **куруиштъ ~ qurušti.**

-ләр ~ lär affaksi va uning variantlari hurmat va ulug'lash ma'nosini ifodalaydi.

-лъг/луг ~ lig/lug affaksi ko'plik ma'nosini ham anglatadi: ularning uylari ~ **улә:нъ ойлугъ ~ ulä:ni uylari**, dadamlarning ishlari ~ **әдәмгълә:нъ ъашлъгъ ~ ädämgilä:ni išligi.**

-*га* ~ *gi* affiksi Toshkent shevasida jamlik ma'nosini ifoda qiladi: **адамгула** ~ *ädamgila* (adam + boshqalar). **оимгула** ~ *äjimgila* (oyim + boshqalar);

- fe'l tuslanushining I shaxs ko'pligida **-вуз / вузэ** ~ *vuz / vuzä*, **-е / уе** ~ *v / uv* affikslari qatnashadi: **бэрсвуз / бэрсвузэ / бэрдув** ~ *bäravuz / bäravuzä / bärduv*;

Farg'ona guruhi shevalari.

Fonetik xususiyatlari:

- so'z boshida **т/ч** ~ *t/č*, **с/ч** ~ *s/č* undoshlari almashadi: tush ~ **чуш** ~ *čuš*, tish ~ **чыш** ~ *čiš*, soch ~ **чоч** ~ *čāč*;

- so'z oxirida **к/г** ~ *k-g*, **к/ғ** ~ *q/γ* almashuvi sodir bo'ladi. Masalan, yo'q ~ **йоғ** ~ *joy*, bo'lak (boshqa) ~ **беләг** ~ *böläg*, bir kunlik ~ **быр куллуг** ~ *bir kullug*, baliq ~ **белъя** ~ *beliy*. Olmoshlarda: qandoq ~ **қандәг** ~ *qandäy*, andaq ~ **андәг** ~ *andäy*, shundoq ~ **шундәг** ~ *šundäy*, bundoq ~ **бундәг** ~ *bundäy* (Namangan).

- turli holatlarda **х/қ** ~ *x/q* undoshlari almashadi: (Namangan) toxta ~ **тоқтә** ~ *toqtä*, to'qson ~ **тоқсан** ~ *toxsän*, boqdik (qaradik) ~ **бахтуқ** ~ *bäxtuq*.

- progressiv assimilatsiya qayd qilinadi: qushni ~ **кушиш** ~ *quşşı*, gapni ~ **гаппі** ~ *gäppi*, toshni ~ **төшиш** ~ *täşsi*;

- umlaut hodisasi qayd qilinadi: bosh+ъ ~ **бәшъ** ~ *başı* (O'sh), ot ~ **әтъ** / **әтъ** ~ *äti* / *eti* (Namangan).

Morfologik xususiyatlari:

- bu shevalar 5 kelishiklidir;

- bu shevalarda ham **-иъ** ~ *ni* affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: akasining **иши** ~ **экәсънъ ишъ** ~ *äkäsini işi*, oshning tuzi ~ **оштъ тузъ** ~ *ästi tuzi*;

- tushum kelishigi affiksidiagi **и** undoshi **d**, **t** undoshi bilan almashadi. Bu Andijon, Marg'ilon, Qo'qon guruh shevalarida qayd qilinadi. Bunda jarangsiz undoshdan so'ng **-тъ-ти**, jarangli undoshdan so'ng esa **-дъ-ди** variantlari qo'shiladi: oshning mazasi ~ **оштъ мәзәсъ** ~ *ästi mäzäsi*, **тәлдъ кестъ** ~ *täldi kesti*;

- bu shevalarda hozirgi zamон davом fe'li **-ум** ~ **ut**, **-иән** ~ **jäp** variantlarida qo'llanadi: ketyapti ~ **кетүттү** ~ **ketutti** (Namangan), **ойнашыпты** ~ **ojnashapti** (Marg'ulon);

- **ишиши** ~ **ı/iš/uš** affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: kelishdi ~ **кељишти** ~ **kelišti**, qurishdi ~ **курушти** ~ **qurušti**.

- **ләр** ~ **lär** affiksi ba'zan **-на** ~ **nä** variantida ham qo'llanadi: ishinglar ~ **ишийнә** išijnä, бөгъйнә ~ **bäyjnä** (Namangan);

- fe'l tuslanushining I shaxs ko'pligida adabiy tilga xos shakl qo'llanadi: boramiz ~ **bärämiz**, keldik ~ **келдик** ~ **keldik**, bordyk ~ **бэрдик** ~ **bärdik**;

- harakat va paytning chegarasini ifodalashda **-чөур** ~ **čävyr** (-**äčä** ~ **gäčä** affiksi o'mida) qo'llanadi: bahorgacha ~ **бәхәргәчөур** ~ **hähärgäčävur**, shahargacha ~ **шәхәргәчөур** ~ **şähärgäčävur**;

- tartib son **-нәжъ** ~ **nži** affiksi bilan shakllanadi: birinchi ~ **бүрънәжъ** ~ **birinži**, beshinchi ~ **бешънәжъ** ~ **beśinži**;

Samarqand-Buxoro guruh shevalari. Bu guruhgа Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo'jand kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

- ə/ä unlisi boshqa shahar shevalaridan farqli ravishda o/o unlisiga yaqin, ya'ni qisman lablangan: oldim ~ **ə(o)ллым** ~ **ä(o)llym**, bozor ~ **öə(o)зə(o)r**

~ **bä(o)zä(o)r**;

- so'zning ikkinchi bo'g'inida adabiy tildagi i unlisi "u" ga o'tadi: xotin ~ **ҳотун** ~ **xätun**, dori ~ **дору** ~ **doru**;

- й/j, x/h undoshlaridan oldin adabiy tildagi u unlisi o/o ga o'tadi: uyqu ~ **ойқу** ~ **ojqu**, suhabat ~ **соҳбат** ~ **sohbät**, guruh ~ **зироҳ** ~ **guroh**;

- e/s, r/g, f/y undoshlaridan oldin o/o unlisi "y/u"ga o'tadi: o'gay ~ **угай** ~ **ugäj**, o'sma ~ **усма** ~ **usmä**, bog'ma ~ **бугма** ~ **buymä**;

- ba'zi so'zlarda i unlisi "e"ga o'tadi: mix ~ **mex** ~ **mex**, tig' ~ ter ~ **тег**, umid ~ **умед** ~ **umed**;

- x, h undoshlari farqlanadi: xon ~ **ҳон** ~ **xän**, hol ~ **ҳол** ~ **häl**;

- л/l undoshi bilan tugagan so'zlarga д/d undoshli affiks qo'shilganda, progressiv assimilatsiya yuz beradi: oldim ~ **аллым** ~ **ällim**, keldim ~ **келлым** ~ **kellim**, aldap ~ **әлләп** ~ **älläp**;

Morfologik xususiyatlari:

- jo'nalish kelishigi affixi o'rin-payt kelishigi ma'nosini ham ifodalaydi: **У кәттә әкәсъйә, хүгтәйә қәттәх** ёб бәргән чәхә (chog'da) йолға (yolda) йәзмур йәққән ~ U kätta äkäsiä xurmäjä qätix äb bärğän čäxgä(chog'da) jolgä(yolda) jäymur jäqqän (Qarshi);
- hozirgi zamon davom fe'li -чи ~ әп affixi bilan ifoda qilinadi: kelyapman ~ **кеլәппән** ~ keläppən, sorayapsan ~ **сөрәңсән** ~ söräpsän, koryapti ~ **көрәпту** ~ köräptü;
- uzoq o'tgan zamon fe'lida tuslovchi affikslar qatnashmasligi mumkin: **мән келгән / сән келгән / у келгән // бүз келгән / сыз келгән / улар келгән ~ män kelgän / săn kelgän / u kelgän // biz kelgän / siz kelgän / ulär kelgän;**
- o'tgan zamon hikoya fe'lida - **әр/әр** (bolishsigi **-məc/məs**) sifatdosh affixi tarkibidagi p/r, bo'lishsizidagi c/s undoshlari й/j undoshiga o'zgaradi: kelar edim ~ **кеլәйъдым** ~ keläjidim, kelmas edim ~ **кељмәйъдым** ~ kelmäjidim, kelar ekan ~ **кељмәйъкән** ~ keläjikän, kelmas ekan ~ **кељмәйъкән** ~ kelmäjikän, kelmas emish ~ **кељмәйъмъи** ~ kelmäjimiš.

Lahja leksikasidan namunalar. Bu lahjaning leksikasi butun lahja uchun umumiy bo'la olmaydi, balki Toshkent, Farg'ona vohasi, Buxoro guruh shevalari va shimoliy o'zbek shevalari leksikasida muayyan farqlar mavjud.

Toshkent, Farg'ona shevalarida quyidagi kabi so'zlar qo'llanadi: arg'amchi ~ **әргәмчъ** ~ äryämči, agat ~ **әгәт** ~ ägät, masxara ~ **әдисува** ~ äžuvä, oynak ~ **әйнәк** ~ äjnäk, yaroqsiz ~ **әкчә** ~ äkčä (Toshkent), shakarob ~ **әччу:-чуччу** ~ äčču:-čučču:, sirg'a ~ **зърај** ~ ziräj, ammo ~ **ъ:лло** ~ illä:, goh-gohda ~ **йәго:да** ~ jägädä (Andijon), uchrashish ~ **кеzъкъыш** ~ kezikiš (O'sh), darg'azablik ~ **купър** ~ kupir (Toshkent), o'jar ~ **къийк** ~ qijiq (Andijon), sopol idish ~ **қоқчә** ~ qoqäčä (Andijon), janjalkash ~ **лолъ** ~ loli (Farg'ona), so'ta ~ **мәрдәк** ~ märdäk (Farg'ona), qo'lqop ~ **мъйәләк** ~ mijäläk (O'sh), holat ~ **әлпәз** ~ älpäz (Toshkent) va boşkalap.

Buxoro guruh shevalarida quyidagi kabi so'zlar qo'llanadi: belanchak ~ **әлвәндж** ~ älvänž, kekirdak ~ **әруқ** ~ ärük, bexostan ~ **бәнәхәс** ~ bänäxäs, agar ~ **бәлле** ~ bälle, salomlashmoq ~ **вәхордъ** ~ växordi, beshik

~ гәвәрд ~ gävärd, sovg'a ~ зәллә ~ zällä, nimcha ~ ъчък ~ ičik, ko'rga ~ кампәл ~ kämpäl, yenglik ~ өстүнчә ~ āstincä va boshqalar.

Shimoliy o'zbek shevalarida quyidagi kabi so'zlar qo'llanadi: katta ~ дәв ~ däv, ko'rsatkich barmoq ~ баралаттақ ~ baramaltaq, ora ~ айтомъ ~ ajtoti, og'ir xarakterli ~ арқальқ ~ arqaliq, namroq ~ өзгөл ~ iyal, boyagi ~ үаңағась ~ jaŋaqas, ho'l ~ үаш ~ jaš, ochko'z ~ үеръек ~ jerik, nuqul ~ өнкәй ~ önkaj, vazmin ~ салақа ~ salaqa, barmoq ~ шавшақ ~ šavšaq va boshqalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

Chigil, xalaj, yag'mo, uyg'ur, qarluq [chigil, khalag, jagma, ujgur, karluk] – qadimgi turkiy qabilalar.

Mavzu: Qipcoq lahjası Reja

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahjaning leksik xususiyatlari

Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi. Qipchoq qabilalari ham uzoq o'tmishda Oltoy o'lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. XIII asr o'rtalarida ular **kimak/imak** (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrlarda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo'yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo'ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O'rta Osiyo, Volga bo'yi territoriyalarida istiqomat qiladilar.

Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida yashaydilar.

Fonetik xususiyatlari. Qipchoq lahjası shevalarida singarmonizm qonuni to'liq amal qiladi. Hatto fe'llardagi yetakchi va to'liqsiz fe'lidan iborat fe'l shakli ham singarmonizmga bo'ysinadi: bor ekan ~ **барақан**~ *baraqan*, boribmi ekan ~ **барыппақан** ~ *barippaqan*, ko'p ekan ~ **кувәкән** ~ *kuvækən* va boshqalar. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi:

- kontrast juft unlilar: *y/y* ~ *ü/u*, *ø/o* ~ *ö/o*, *w/w* ~ *i:/i:*, **ө-ө** ~ *i/i*, *a/a(ɔ)* ~ *ä/ä* mavjud.

- palatal singarmonizm to'liq, labial singarmonizm esa esa qisman saqlanadi;

- diftonglashish kuchli: **е**, *e*, **о**, *o* ~ *'e*, *"o*, *"ö*;

- so'z boshida й ~ j undoshi **ж** ~ **ž** undoshiga o'tadi: *yo'l* ~ **жисол** ~ *žol*, yamon ~ **жисаман** ~ *žaman*;

- **г/f** ~ **г/γ** undoshlari й ~ jga o'tadi: *yig'in* ~ **жисъитън** ~ *žijin*, tegdi ~ **тъйдъ** ~ *tijdъ*, sigir ~ **съйр** ~ *sijür*;

- unlilar o'rtasida **п** ~ *p*, **к** ~ *k*, **ң** ~ *q* undoshlari jaranglashadi: *gəp* ~ **забъ** ~ *gäbi*, ekin ~ **егън** ~ *egin*, chiqin ~ **чъғън** ~ *čiğin*;

- x undoshi **q** undoshiga o'tadi: xotin ~ **қатын** ~ *qatin*, tuxum ~ **түкүм** ~ *tuqum*, xayol ~ **қыйал** ~ *qışjal*, xat ~ **қат** ~ *qat*; aksincha **q** undoshi **x** undoshiga ham o'tadi: vaqt ~ **вакт** ~ *vaxt*, oq ~ **ox** ~ *ox*.

- so'z oxirida **k**, **q** undoshlari tushib qoladi: sariq ~ **саръ** ~ *sarb*, kichik ~ **къичъ** ~ *kicci*;

- unli bilan boshlanadigan so'zlar boshida **h** undoshi ortadi: ayvon ~ **ҳайван** ~ *hajvan*, aqlı ~ **ҳақълъ** ~ *haqlı*;

- so'z o'rtasida va oxirida **f** ~ *γ*, **к** ~ *q*, **ң** ~ *k* undoshlari vga o'tadi: og'iz ~ **авуз** ~ *avuz*, bog' ~ **бас** ~ *bav*, tog' ~ **тав** ~ *tav*, bo'yoq ~ **бойав** ~ *bojav*, ellik ~ **елүв** ~ *elüv*.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich va tushum kelishiklari affiksida **н** undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarda **d**, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarda **t** tovushlari bilan almashadi: uyning ~ **үйдүң** ~ *ujduñ*, otning ~ **антың** ~ *attıñ*, ishni ~ **ышты** ~ *iști*, gulni ~ **гулдъ** ~ *guldı*;

- jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ **әрмъйә кеткән** ~ *ärmiyä ketkän*, o‘qishga bordi ~ **окув бордъ** ~ *oquv bordi*;

- kishilik olmoshlari jo‘nalish kelishigi shakli **маган** ~ *mayan*, **саган** ~ *sayan*, **уган** ~ *uyan* shaklida qo‘llanadi;

- so‘zga ko‘plik qo‘sishmchasi qo‘shilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ **ðжъгълләр** ~ *žigillär*, atlar ~ **аллар** ~ *allar*;

- harakat nomi -**в/уе/үе** ~ *v/uv/iiv* affiksi bilan ifoda qilinadi: boryv ~ **баруө** ~ *baryv*, keluv ~ **кеլүө** ~ *kelüv*, qoluv ~ **қалуө** ~ *qalyv*;

- hozirgi zamon davom fe’li **-жасатър** ~ *žatyr* affiksi (uning old qator varianti yo‘q) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ **баръпджасатър** ~ *barъpžatır*, ketyapti ~ **кетъпджасатър** ~ *ketipžatır*;

- kelasizi zamon sifatdoshi **-тъган** ~ *tüyan* affiksi (uning ham old qator varianti yoq) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ **кеլэтъган** ~ *kelətiyan*, boradigan ~ **баратъган** ~ *baratiyan*;

- hozirgi-kelasizi zamon fe’lining III shaxsida **-olv** ~ *di* affiksi qatnashmaydi: keladi ~ **кела** ~ *kelä*, boradi ~ **бара** ~ *bara*;

- **bilan** ko‘makchisi - **мән/ман** ~ *män/man* tarzida sintetiklashadi: ishi bilan ~ **ъиڭмән** ~ *išimän*, oyog‘i bilan ~ **айағьман** ~ *ajayiman*.

Lahja leksikasidan namunalar: jarchi ~ **айтымчы** ~ *ajtümči*, mayda ~ **ачарва** ~ *ačarva*, xayriyat ~ **баевдэжсүт** ~ *bavžüt*, bosh barmoq ~ **бармалтақ** ~ *barmaltaq*, titroq ~ **вараджса** ~ *varaža*, iliq ~ **ðжесъльм** ~ *žilim*, issiqroq, sovimagan ~ **ылымъқ** ~ *ilimiq*, farosat ~ **ындым** ~ *indim*, moyillik, xohish ~ **ығдэжсүм** ~ *iyžüm*, o‘pich ~ **мұччы** ~ *myčči*, cho‘qqi ~ **сала** ~ *sala*, taxchil ~ **санðжап** ~ *sanžap*, janjalkash ~ **тырдэжсүк** ~ *tıržıq*, yolg‘on ~ **өшәк** ~ *öšäk*, so‘qmoq ~ **қасаға** ~ *qasaya*, epchil ~ **гадаң** ~ *yadañ*, kuy ~ **әдәвүүр** ~ *ädävür*.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?

2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.

3. Lahjaga xos yana qanday so‘zlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

Qipchoq, kimak / imak (yimak) [Kipchak, kimak] – qadimgi turkiy qabilalar.

Mavzu: O‘g‘uz lahjasi

Reja

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari
4. Lahjaning leksik xususiyatlari

Qadimda o‘g‘uzlar Ille daryosi bo‘ylarida shakllanib, IX-X asrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi va Orol bo‘yi tumanlarida istiqomat qilganlar. Keyinchalik g‘arbgaga qarab siljiganlar.

Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako‘l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog‘istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar.

O‘g‘uz lahjasi, asosan, Xorazm viloyatida keng tarqalgan, lekin bu viloyat faqat shu lahjadan iborat degan so‘z emas. Professor F.Abdullayevning ko‘rsatishicha, bu viloyatda qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor.

Fonetik xususiyatlari:

- bu lahja shevalarida *a/a*, *y/u*, *y/ü*, *u/i*: *ň/i*, *ý/i*: *ň/i*, *o/o*, *e/ö*, *ə/ü*, *e/e* unlilari qo‘llanadi;
- o‘zbek tili qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unlilar mavjud;
- qisqa va cho‘ziq unlilar farqlanadi, ya’ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho‘ziq unlilar (birlamchi cho‘ziq unlilar) mavjud: *am* ~ *at* (hayvon) – *a:ð* ~ *a:d* (ism), *om* ~ *ot* (o‘simglik) – *om* ~ *o:t* (olov);
- dastlabki bo‘g‘inda e unlisi *ə/ä* unlisiga o‘tadi: *kel* ~ *gəl* ~ *gäl*, dedi ~ *dəðbə* ~ *dädi*, berdi ~ *bərðbə* ~ *bärdi*;
- so‘z boshida t undoshi jaranglashadi: *til* ~ *ðyl* ~ *dil*, *tun* ~ *ðy:n* ~ *dü:n*, *tep* ~ *ðə:p* ~ *də:r*, *tush* ~ *ðy:u* ~ *dü:s*;
- so‘z boshida k tovushi jaranglashadi: *ketti* ~ *zəmmə* ~ *gəttə*, *kel* ~ *zəl* ~ *gäl*, *kun* ~ *gy:n* ~ *gü:n*, *ko‘z* ~ *zə:z* ~ *gö:z*;

- к/қ va ғ/γ undoshlari к/к va г/г undoshlariga moyil talaffuz etiladi: qani ~ *қ(к)ань* ~ *q(k)anı*, qanday ~ *қ(к)андай* ~ *q(k)andaj*, Г‘аріб ~ *Г‘(з)ары:н* ~ *γ(g)ari:p*, tog‘lar ~ *да:з(з)ла:* ~ *da:y(g)la::*;

- “bol” fe’lining boshidagi б undoshi tushib, ол ~ ol tarzida talaffuz etiladi.

- к/к, қ/қ undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘sishimcha qo‘shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: tilagi ~ *тъләкъ* ~ *tiläki*, sochig‘i ~ *сачақъ* ~ *sachaqı*;

- ayrim shevalarda ko‘hna ε unlisi talaffuzda bor: kel ~ *гεл* ~ *gel*, ber ~ *бεр* ~ *ber*, er ~ *ε:p* ~ *e:r*.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich kelishigi affiksining -ъң ъң ~ *iŋ/iŋ* varianti ham qo‘llanadi: otning boshi ~ *атың башь* ~ *atıñ başı*, bizning shahrimiz ~ *бъзың қаламыс* ~ *biziñ qalamüs*. Urganch, Xeva shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari -нъ/нъ ~ *ni/ni* affixsi bilan ifoda qilinadi;

- jo‘nalish kelishigi affixsi -а/ә ~ *a/ä* variantida ham qo‘llanadi: otinga ~ *атыма* ~ *a:tyma*, ishga ~ *и:шә* ~ *i:şä*;

- sifatning intensiv shakli *дым* ~ *dım* ravishi bilan shakllanadi: *дым йашып* ~ *dım jaxşı*, *дым и:ссы* ~ *dım i:ssi*, *дым йаман* ~ *dım jaman*;

- men, sen, u olmoshlari yolg‘iz holda *мән*, *сән*, *у* ~ *män*, *sän*, *u* tarzida, jo‘nalish kelishigida *маңа*, *саңа*, *үңа* ~ *maña*, *saña*, *uña* variantlariga ega boladi. III shaxs kishilik olmoshi birligida *ъүгү* ~ *һүнү* ko‘pligida *хулар/улар* ~ *һular/ūlar* tarzida diftonglashadi;

- ko‘plik affixsi -лә/ла ~ *lä/la* variantida ham qo‘llanadi: gullar ~ *гулә* ~ *güllä* olinglar ~ *альыла* ~ *alınla*;

- tartib son -нәжись ~ *nži* variantida qo‘llanadi; birinchi ~ *бъръндэжь* ~ *birinži*, beshinchi ~ *бешъндэжь* ~ *bešinži*;

- harakat nomi -мақ/мәк ~ *maq/mäk* affixsi bilan hosil qilinadi: ko‘rmoq ~ *гормәк* ~ *görmäk*, ishonmoq ~ *ы:нанмақ* ~ *i:nanmaq*;

- hozirgi zamon davom fe’li -йатыр ~ *jatır* affixsi (u ham bir variantli) bilan shakllanadi: kelyahti ~ *гәйатыр* ~ *gäjatyr*, boryapti ~ *барйатыр* ~ *barjatyr*;

- kelasi zamon fe'lining -*джәк*/*джаң* ~ *джәк*/*джаң* affiksli shakli qo'llanadi: keladigan ~ *гәлдәжәк* ~ *gälzäk*, boradigan ~ *бардәжәк* ~ *baržaq*;

- buyruq-istak fe'lining ko'plikdagi I shaxs shakli *-лъ/лъ* ~ *li/li* affiksi bilan shakllanadi: kelaylik ~ *гәләлъ* ~ *gäläli*, boraylik ~ *баралъ* ~ *baralı*;

- buyruq-istak fe'lining II shaxs birligida o'g'uz lahjasining o'ziga xos shakli qo'llanadi: bersangchi ~ *бәрсәңә* ~ *bärsäñä*, borsangchi ~ *барсаңа* ~ *barsaña*;

- kelasi zamon fe'lida *-а/ә ~ а/ә* affiksli ravishdoshi asosida *-сы/сы ~ си/си* affksi bilan hosil qilingan shakli qo'llanadi: *аласым / аласың / аласы ~ alasım / alasın / alasi; аласымыз(c) / аласыңыз(c) / аласы~ alasımız(s) / alasınız(s) / alasiñiz(s) / alasi;* *и:чәсым / и:чәсың / и:чәссы ~ ičasim / i:časin / i:časi; и:чәсымыз(c) / и:чәссыңыз(c) / и:чәссы ~ ičasımız(s) / i:časiñiz(s) / i:čası.*

Bu so'z *гәлдө* ~ *gälđi* so'zi bilan birga qo'llanadi.

Lahja leksikasidan namunalar: go'zal ~ *аңапара* ~ *ajpara*, ha ~ *ава / хавва* ~ *ava / havva*, poraxo'r ~ *a:льмсақ* ~ *a:limsaq*, kichik sandiq ~ *a:рәжса* ~ *a:rža*, arava shotisi ~ *a:рыш* ~ *a:rış*, katak ~ *a:tанақ* ~ *a:tanaq*, avarak (burunga taqiladigan bezak) ~ *ә:вәрәк* ~ *ä:vääräk*, poygak ~ *ә:дән* ~ *ä:dän*, ayb, gunoh ~ *ә:ләшмә* ~ *ä:läşmä*, yirik, katta ~ *бабаң ~ babaŋ*, chorraha ~ *бәндөрйә* ~ *bändirjä*, maza qilmoq ~ *хәзәтмәк ~ häzätök*, danak ~ *би:дәнәнә* ~ *bi:žänä*, sabzavot ~ *зылал ~ zılal*, chiziq, yol ~ *зы:з ~ zi:y*, shamol ~ *йе:лпис* ~ *je:lpis*, bedarak ~ *қуйын ~ qujın*, qishloq ~ *о:ва ~ o:va*, o'tin ~ *о:мча* ~ *o:mča*, tutandiriq ~ *пә:zzә ~ pääzzä*, taqsi (qaddi-qomati kelishgan) ~ *тақсы ~ taqsı*, serjahl ~ *тосалаң ~ tosalaŋ*, boshliq ~ *ҳо:n ~ ho:p*, yosh yigit ~ *әжсо:джыңқ ~ žo:žığq*.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

O'g'uzlar [oguz] - qadimgi turkiy qabilalar.

Мағыз: Areal lingvistika (lingvistik geografiya)

Режа:

1. Areal lingvistika to‘g‘risida умумиј ма’лумот.

2. Areal lingvistika методлари.

3. Areal lingvistika манбалари.

1. *Areal lingvistika (lingvistik geografiya) tushunchasi va uning mohiyati.* Bu terminlarning birinchisi lotincha *area* – *maydon*, *kenglik, hudud* hamda *lingvistika* – *tilshunoslik*, ikkinchisi esa *lingvistika va geografiya* таркibi qismlaridan iborat.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarinining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilari va raqamlar vositasida karta(xarita)da, aks ettirish bilan shug‘ullanadigan dialektologiyaning bir bo‘limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosg tillarga xos bo‘lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir.

Lingvistik geografiya shevalarni o‘rganishning bir metodi hamdir. Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariiga ham e’tibor qaratiladi. Bu ikki hodisaning obekti bir bo’lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug‘atlar yaratish orqali o‘rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ularni tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham lingvistik geografiyanı dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Lingvistik geografiya quyidagi tushunchalarga asoslaniladi:

Izoglossa. Bu so‘z lotincha bo‘lib, *izo* – teng, *glossa* – til degan ma’nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatic xususiyatlar mosligi darajasiga ko‘ra tarqalishini ko‘rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatic shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shuftufayli uning *izofonema*, *izomorfema*, *izoleksema* tiplari belgilanadi. Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho‘ziq “o:” unlisi izofonema sifatida, -ə/a ko‘plik affiksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ~ *caraka* ~ *salaqa*, kasallik ~ *trap* ~ *iran* kabi so‘zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda izoglossalarning

izofon (fonetik izoglossa), *izomorf* (morfologik izoglossa), *izoleks* (leksik izoglossa), *izosema* (semantik izoglossa) haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. O'zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglosalar genetik umumiylilikka ega bo'lgan tillarga aloqador bo'ladi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari (kontakti) natijasi samarasini sifatida yuzaga keladi va har ikki til uchun umumiy bo‘ladi. Bunda qarindosh bo‘lmagan tillar o‘z mustaqilligini saqlaydi.

Areal. Izoglossalarning tarqalish hududini bildiradi. Yuqoridagi izoglossa turlarining bir necha hududlarda tarqalishini ko'rsatadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unlilar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilarda kartada aks ettiriladi.

Areal termini biologiya, geografiya, kimyo, antropologiya fanlarida ham qo'llanadi. Biologiyada hayvonlar va o'simliklarning, geografiyada tabiat hodisalarining, kimyoda tabiiy boyliklarning, antropologiyada xalqlar va irqlarning tarqalish hududlari kartalashtiriladi.

Til landshafti. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning joylashishi xususiyatidir. Ular turli ranglar vositasida ko'rsatiladi.

Innovatsiya. U izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Masalan, labial singarmonizm qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, qirg'iz tilida mustahkamlanib qoldi va bu til orqali boshqa til va shevalarga tarqaldi. Demak, labial singarmonizmning innovatsion markazi vazifasini keyingi davrlar uchun qirg'iz tili bajaradi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiy turlari amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalargida amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini — izoglossalarni shartli belgililar vositasida ham, bebosita o'zini ham yozish mumkin.

Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning turi **lingvistik atlas** deyiladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tiining tarqalish chegarasini ko'rsatgan rangli kartalar yig'indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasning klassik namunalarini bop. Bular quyidagilar:

Venker G. Shimoliy va markaziy Germanuyaning dialektokogik atlasi. 1881 (6 karta).

Vrede F. Nemis lingvistik atlasi. 1926-1932 (6 jild).

Jilyeron J., Edmon E. Fransiya lingvistik atlasi. 1896-1908.

Yaberga K., Yuda I. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlasi. 1928 va h.k.

Bular ichida J. Jilyeron, E. Edmonlarning lingvistik atlasi boshqa shu xildagi atlaslarning tuzilishiga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarinh tarqalishini ko'rsatish maqsadida ham yaratiladi.

2. *Areal lingvistika (lingvistik geografiya) metodlari.* Areal lingvistika (lingvistik geografiya) shunday sohaki, u har bir sheva va dialekt haqida, uning madaniy, tarixiy xususiyatlari, o'ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug'ullanadigan xodimlar, mutaxassislarni keng tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, avvalo, o'rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo'ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasini tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo'yash texnikasi belgilab olinadi.

O'zbek tili lahjalarining tarqalishi



1. Қарлук-чигил-уйғур лаҳжаси

2. Ўгуз паҳжаси

3. Қыпчоқ лаҳжаси

Areal lingvistikaning asosini lingvistik tadqiqotlarda foydalaniладиган til hodisalari tashkil etadi. Shuning uchun *areal lingvistikaning metodlarini farqlash* muhim ahamiyat kasb etadi³.

Ular quyidagilar:

1. Muayyan til(shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlarini *qayd qilish*. Bu jihatdan dialektologiya va lingvistik geografiya metodlari mos keladi. Sheva faktlarining haqqoniyligi areal lingvistikaning mukammalligini ta'minlaydi.

2. Areal lingvistika uchun tanlanadigan sheva materiallarini *sharhlash*. Dialektologik atlas tuzishda sheva faktlarining sharhi muhim o'rinn tutadi. Ular quyidagi aniq lingvistik vazifalarni bajaradi:

³Taniqli olim V.M. Jirmunskiy dialektologik atlas yaratish metodikasi deganda yning ikki tamoyilini tushunadi: muayyan hududdagi sheva xususiyatlarini yalpi o'rganish va har bir kartalashtiriladigan izoglossalar chegarasini belgilash. Qarang: Жирмунский В.М. Немецкая диалектология. – Москва: Издательство АН. – С.134.

a) o'rganilayotgan til yoki shevalarining aloqada bo'lgan (qo'shni) til va shevalar bilan *interferensiysi* natijalarini talqin qilish. Avvalgi sahifalarda ta'kidlanganidek, o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda shevalari bilan kesishgan. Shevalar kesishgan joyda har ikkala til shevalariga o'xshamagan shevalar paydo bo'ladi. So'zsiz, bu shevalardagi o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammo sharhlash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo'shni yashaydigan o'zbeklar shevasida egalik affksi va o'rin-payt, chiqish kelishigi o'rtasida "n" undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo'lida ~ *әлънðə* ~ *älinðä*, qolidan ~ *әлъннən* ~ *älinnnän* va b. Qirg'iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar n undoshining yo'qolib borishi ham o'zbek tili shevalari bilan interferensiyaning natijasidir.

b) *ijtimoiy omillarni hisobga olish*. Interferentsiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bunda ikki sheva yoki tilning interferensiya sharoitida qo'shilib ketishi chog'idagi til qarshiligi bo'lishi hisobga olinadi. Bunga Qashqadaryodagi "й/j"lovchi shevalar "дж/ž"lovchi shevalarga qorishuvi natijasida "й/j"lovchi shevalar aholisining ko'pligi tufayli "й/j"lashishning ustun kelishi misol bo'la oladi.

d) *muayyan hududda turg'unlashmagan til hodisalarini sharhlash*. Iffi sheva yoki dialektga xos xususiyatlarning shu sheva va dialektlarda qo'llanishi hamda ulardan birining g'olib kelmasligi interferentsiyaning tugallanmaganligini, ya'ni bir sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Bunga o'zbek tilidagi "ә/ә" va "а"lashish, "й/j" va "дж/ж" hodisasining parallel qo'llanishi misol bo'la oladi.

e) *konvergensiya hodisalarini farqlash*. Ma'lumki, o'zbek tili taraqqiyotida shahar shevalarida ө/ө – о/o, ү/ү – у/u, и/i: - ы/f: unililar konvergensiya uchragan. Ular ham kartada izohlar bilan beriladi va hk.

3. *Innovatsion markazni aniqlash*. Bu tamoyil, albatta, til tarixi bilan bog'langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo'lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda "й/j/-дж/ž" paralleli bo'lmagan. Hozirgi qipchoq shevalarida va ba'zi turkiy tillarda so'z boshida "дж/ž"ning paydo bo'lishi ikkilamchi hodisadir. O'zbek

shevalarida “дж/ž”lashishning “й/j”lashish (qipchoq lahjası shevalarida **жакшиш** ~ *žaxši* o’ttında **якшиш** ~ *jaxší*) varianti paydo bo’lmoqda hamda u tobora kengroq tarqalmoqda. Ko’rinadiki, “й/j”ning innovatsion nuqtasi qadimgi turkiy til bo’lgan. Hozirgi singarmonizmni yo‘qotgan shevalar ham qadimda singarmonizmli bo’lgan. Bunda ham innovatsiya nuqtasi sifatida qadimgi turkiy til qatnashadi.

4. *Til substratlari ta’sirini aniqlash.* Substrat hokim til yoki shevaning qoldiqlari bo‘lib, muayyan hududda hokim til elementlari qolgan bo‘ladi. Masalan, hozirgi Xorazm shevalarida “Avesto” tilining substratlarini uchratish mumkin, jumladan, Xorazm (Hvairizm), Asfandiyor (Spandudota), Bahrom (Varxram). O‘zbek va tojik shevalari interferensiysi sharoitida tojik shevalariga xos xususiyatlar shu shevalarda saqlanib qoladi. Bu substratlar ham izohlar bilan kartalarda aks ettiriladi.

O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. O‘zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishi endigina rivojlanmoqda. Bu sohada Sh. Shoabdurahmonov, A. Jo‘rayev, Q. Muhammadjonov, A. Shermatov, Y. Ibrohimov, N. Murodovalarning tadqiqotlari mavjud. Sh. Shoabdurahmonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. A. Jo‘rayev areal lingvistikaning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildi. Q. Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini, A. Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini, N. Murodova Navoiy viloyati shevalarini kartalashtirgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lingvistik geografiya nima?
2. O‘zbek shevalari atlasi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek shevalari kimlar tomonidan kartalashtirilgan?

Tayanch tushunchalar:

Areal lingvistika (lingvistik geografiya).

Atlas [Atlas] – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o‘quv quroli.

Izoglossa [izogloss] – til, sheva faktlarining teng kelish holatlari.

Lingvistik geografiya [linguistic geography, dialect geography] – o‘zbek shevalarini o‘rganishning bir metodi, shevalardagi til faktlarini maxsus o‘rganadigan soha.

Lingvistik karta [linguistic map] – izoglossalar joylashtirilgan karta.

Til landshafti [linguistic landscape] – izoglossalarning joylashish xususiyatlari.

Innovatsiya [innovation] – izoglossalarning tarqalish markazi.

Mavzu: O‘zbek adabiy tili va dialektlar.

Reja:

1. Adabiy tilning ta’rifi.
2. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari.
3. Adabiy til va tayanch dialekt.
4. Badiiy adabiyot va dialektizm.

Matn

1. Ma’lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo‘lib, u me’yorlashgan yoki me’yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta’rifni berish mumkin:

Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammaatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoeplik normalarga amal qiladigan, so‘z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir.

O‘zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.

Adabiy til biror dialektga teng kelmaydi, u bir til doirasida barchga birday xizmat qiladi, biror dialekt ham adabiy tilga tenglashtirilmaydi.

Adabiy til va dialektlar turli funksiyalariga ko‘ra farqlanadi:

1. Adabiy til davlat, siyosat, fan, san‘at tili hisoblanadi, ayni zamonda bu tilda savodxon shaxslar ish ko‘radi. Dialekt esa muayyan hududda qo‘llanadi va shu hududning o‘zidagi aholigagina xizmat qiladi.


2. Adabiy til yozma va og‘zaki shakllarga ega bo‘ladi, dialekt esa faqat og‘zaki ko‘rinishga ega.

3. Adabi til qat'iy amal qilinadigan me'yordan iborat bo'ladi. Dialekt ham muayyan hududda o'ziga xos me'yori bo'ladi, lekin u umumtil doirasiga chiqa olmaydi.

4. Adabiy tilning funksional uslublari rang-barang, dialektlarda bunday uslublar to'g'risida fikr yuritilmaydi.

5. Adabiy til va dialektlar o'rtasida ziddiyatlar bor, lekin ular adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi (10-rasm).

10-rasm



Har bir milliy tilning ikki bosqichi bo'ladi:

1. Milliy tilning quyi bosqichi. Bu mahalliy shevalar demakdir.
2. Milliy tilning yuqori bosqichi. Bu uning adabiy tilidir.

Ayrim manbalarda bu ikki bosqich oralig'da **koyne** termini bilan yuritiladigan til to'g'risida ham ma'lumot beriladi, ya'ni aksariyat dialektlar uchun umumiyligi bo'lgan so'zlashuv tili **koyne** deb yuritiladi. Bunga xalq og'zaki ijodi asarlari tilini ham kiritish mumkin, bu asarlar tili ham adabiy til, ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun ham shevalar o'r ganilganda, xalq og'zaki ijodidan ko'plab misollar keltiriladi.

2. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari. O'zbek adabiy tili ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki adabiy til orfoepik me'yordarga bo'ysundiriladi. Og'zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o'qish-o'qitish ishlari, ommaviy

majlislarda qo'llanadi. Yozma adabiy til esa orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy o'zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniadi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy va boshqalar.

3. Adabiy tilning tayanch dialekti. Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda "o'lik til" degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida "o'lik tillar" mavjudligi haqida ma'lumotlar ko'p.

O'zbek adabiy tili shartli ravishda **fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg'ona dialektiga tayanadi**. Ma'lumki, Toshkent shevalari 6ta unlili (y/u, o/o, ə/ä, e/e, ъ/i, ɔ/ä) dialektdir. Farg'ona dialektidagi so'z shakllari, xususan, fe'l shakllari o'zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog'lab qo'yish juda ham to'g'ri emas, balki o'zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallahib boradi. Shu ma'noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo'lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining unsurlari ko'p uchrasa-da, unda qipchoq va o'g'uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o'rinnlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun*, *jo'natmoq*, *jo'nti*, *jo'nalish* so'zлari qipchoq lahjasiga xosdir. Bu so'zlarning ayrim qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga oid shevalarida *йүн*, *йөнәт*, *йөнъ* (ишикъынг йөнъын бъл - Turkiston), *йөнәлтүш ~ jün, jönät, jöni, jönälliş* variantlari bor. Adabiy tildagi *keljak*, *bo'lajak*, *o'laroq*, *kelasi* kabi soz shakllari aslida o'g'uz lahjasi shevalariga xosdir.

4. Badiiy adabiyot va dialektizm.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm*, *morfologik dialektizm* va *leksik dialektizm* turlariga ega bo'ladi.

Leksik dialektizm shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir. Masalan, *darpanmangla* (bezovtalanmanglar (Xorazm), ...*kelinbiyning biror marta noroziligini eshitgan emasman* (Qo'nalg'a). *Toshkentdagi axtiqlarini* (nevaralarini) o'zлari *Urganchga kelganlari-dayam ko'raveramiz* (Qo'nalg'a).

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Rozi bo'ldi, *palakat* (Qo'nalg'a), *galdi* ("Xorazm"). *Bormasangiz bo'lmiydi* ("Qo'nalg'a"). ...*zeykash* (zaxkash) *tomonga enib...* (Avaz K. "Qo'nalg'a")⁴.

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanishidir. Masalan, *Shatta*(shu yerda, "Qora ko'zlar"). *Dim* (juda) *gech galdingiz* ("Xorazm"). *Qarindoshim bilan bir maishat qilali* (Qo'nalg'a).

Sintaktik-stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko'rinishadi: *Shukur, odamga o'xshab so'zlab bilar ekansiz* ("Qo'nalg'a"). *Alni na, o'n marta yuvamilar* ("Qo'nalg'a").

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqeа yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) adabiy tilda sinonimi bo'limgan so'zlarni majburan qo'llaydi. Masalan, yozuvchi Komil Avaz "Qo'nalg'a" asarida *sazaq* (o'simlik nomi), *tuncha* (mis qumg'on), *kalchaya* (qumlikning taqir joyi), *ittunak*

⁴ Badiiy asarlardan olingan misollar lotin yozuviga ushbu asar muallifi tomonidan o'girildi – A.S.

(yovvoyi qovun turi) va h.k. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to‘lig‘icha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlanadi. Bunga J. Sharipovning “Xorazm”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarlarini keltirish mumkin.

Dialektal so‘zlarni badiiy adabiyotda qo‘llashda yozuvchilar turli usullardan foydalanadilar. Ayrim mualliflar shevaga oid so‘zni izohsiz ishlatib ketsalar, ayrimlari sahifa tegida uning ma’nosini keltirib boradilar (masalan, “Xorazm” romanida). Dialektal so‘zning ma’nosini izohlashda yana quyidagicha usullardan foydalilanilgan:

- dialogik nutqdagи dialektal so‘z nuallif gapida reallashtiriladi: - *Buvijon*, - *dedi u onasining mayus yuziga termilib*. – *Shirmon xoladan qarz olib tursangiz bo‘lmasmikan* (Farg‘ona tong otguncha).

- dialogik nutqda ayni bir yoki turli personajlar nutqidagi shevaga xos va adabiy tildagi variantlarni keltirish bian izohlangan: - *Ugra osh qilsak ham bo‘ladi, manjuza qilsak ham bo‘ladi. Lag‘monga go‘sht kerak* (Farg‘ona tong otguncha). - *Polvon, nega anqayyapsan. Xiva shahrini ko‘rmaganmiding? – dedi. – Katta qal’a, hamma yerini go‘rib boladimi*, - *dedi Polvon* (Xorazm).

- shevaga xos so‘zlar juft soz tarkibida (antonim, sinonim tarzida) keltirilgan: *Uzoq-yovuqdan ancha odamlar keldi* (“Oltin vodiydan shabadalar”). ... *barcha xalq bel, kapcha ko‘tarib, yop-anhor*, daryo bo‘yi sohil tomon yo‘l oldi (Xorazm)⁵.

Ayniqsa, dialektal so‘zlardan hazil, kinoya sifatida ham foydalilanilgan:

Miraziz A’zamga

Bolalarcha kasha yeb,

Bolalarga yozadir.

Shuytib, sakson yoshda ham

Bolalardek tozadir.

(O‘zbek adabiyoti va san’ati, 2015 yil 1-yanvar)

Shuni ta’kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo‘lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib

⁵Bu faktlar B. Fayzullayev va O. Xidirovlarning “Dialektizm va kontest” maqolasidan olindi.

ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Adabiy til deb nimaga ataladi?
2. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllariga qanday izoh berasisiz?
3. Tayanch dialekt tushunchasiga izoh bering.
4. Dialektizm deb nimaga aytildi?

Tayanch tushunchalar:

Adabiy til [literary language] – me'yorlashgan til.

Adabiy tilning shakllari [forms of literary language] – adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari.

Tayanch dialekt [basic dialect] – adabiy tilga biror jihatdan, ya'ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo'ladigan dialekt, sheva.

O'lik til [dead language] – muomaladan chiqqan til.

Mavzu: O'zbek tilining dialektal bo'linishi

Reja:

1. O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari.
2. O'zbek shevalarining tasnifi.
3. O'zbek: dialektologlari.

Matn

1. O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari. O'zbek shevalari, asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o'rganila boshlandi va shu asnodda uning dastlabki tasniflari paydo bo'la bo'ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida V. Nalivkin, M. Nalivkina, A. Starchevskiy, A. Vishnegorskiy, Z. Alekseev, N. Ostroumov, T. Qiyosbekovlar jonli til faktlari asosida o'zbek tili lug'ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ularni sof dialektologik ishlar deb ham, adabiy til faktlari deb ham bo'lmaydi.

XX asrning bosqlarida o'zbek adabiy tiliga asos bo'ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o'zbek shevalari keng miqyosda o'rganila boshlandi. Shu jarayonda o'zbek shevalari tasnif qilindi.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tamoyillardan foydalaniadi. Ular quyidagilar:

- o'zbek (turkiy) tiliga xos bo'lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo'lishi;

- ma'lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan singarmonizm va umlautning mavjudligi;

- tarixiy qatlamga oid leksik birliliklarning miqdori, o'zlashgan qatlam so'zlarining ishtiroki;

- o'zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo'lmagan til va shevalarning ta'siri;

- shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo'lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darajasi;

- so'zning fonetik strukturasi va boshqalar.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O'zbek shevalarini professor I. I. Zarubin tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarcand-Buxoro kabi to'rt guruhga bo'linishini ko'rsatadi, lekin ularga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto qipchoq va shimoliy o'zbek shevalari uning e'tiboridan chetda qolgan.

2. O'zbek shevalari tasnifi. O'zbek shevalarini dastlab professor K. K. Yudaxin tasnif qilishga musharraf bo'ldi. U o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga ko'ra tasnif qilib, 4ta guruhnini belgilaydi:

- asl turkiy tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari;

- o'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar;

- eron tili unlilar tizimini saqlagan o'zbek shevalari;

- o'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik K. K. Yudaxin o‘zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib, uni 5 guruhga – Toshkent, Farg‘ona, qipchoq, Xeva va shimoliy o‘zbek shevalariga ajratadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda E. D. Polivanovning ulug‘ xizmatlari bor. U o‘zbek tili va shevalari bo‘yicha 250dan ortiq nomda katta va kichik hajmda asarlar va ilmiy ishlarni yaratgan. Hozirgi kunda uning 150dan oshiq ishlari e’lon qilingan. E. D. Polivanov o‘zbek shevalari bo‘yicha “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” (1933), “Toshkent shevasining tovush tizimi” (1922), “O‘zbek tilining singarmonizmni yo‘qotgan shevalari namunalari” (1928) kabi ishlari mavjud.

E. D. Polivanov o‘zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Keyingi davr dialektologlari E. D. Polivanov o‘zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiya (qardosh bo‘lmagan tillarning aralashuvi)ni hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu e’tibordan chetda qoladigan fikr emas, lekin E. D. Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog‘lab qo‘yish mumkin emas, balki E. D. Polivanov turkiy tillar, o‘zbek tili va uning eroniy tillar bilan munosabati kabi holatlarni hisobga olgan. Aslida, u deyarli barcha o‘zbek shevalarini shaxsan o‘rganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi, urug‘, qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtai nazardan shevalarni tasnif qiladi hamda o‘zbek tili tarkibida uch yirik lahja mavjudligini belgilab beradi:

1. Chig‘atoy lahjasi. Bu lahjani 7 tipga ajratadi: 1. Samarqand-Buxoro. 2. Toshkent. 3. Marg‘ilon-Qo‘qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A. Chortoq yoki umlautli shevalar. 5.Qo‘qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o‘zbek shahar (Chimkent, Turkiston)shevalari. 7. Shimoliy o‘zbek qishloq (Mankent) shevalari.

2. O‘g‘uz lahjasi. U 2 tipdagisi shevalarni o‘z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G‘azavot, Xazorasp, Yangiariq) shevalari.


3. Shimoliy o‘g‘uz guruh (Iqon, Qorabuloq) shevalari.

4. Qipchoq lahjasi. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. Xorazm qipchoq shevalari: a) Shimoliy Xorazm (“дж”lovchi); b) O‘rta Xorazm

(“й”lovchi) shevalari. 2. Qurama shevalari. 3. Qozoq-nayman, Farg’ona-Qoraqalpoq shevalari. 4. Shimoliy o’zbek qipchoq dialekti (So’zoq, Cho’laqo’rg’on).

Chig’atoj lahjasiga qarashli, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli eronlashgan shevalar deb hisoblaydi (11-rasm).

11-rasm



G’ozi Olim tasnifi. U shevalarni leksik, morfologik va fonetik xususiyatlariga ko’ra tasnif qilish lozimligini uqtirgan holda shevalarni 1) o’zbek-qipchoq, 2) turk-barlos, 3) Xiva-Urganch lahjalariga ajratadi.

O’zbek-qipchoq lahjasini qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, Gurlan; turk-barlos lahjasini Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasini Xiva, Qarluq guruhlariga ajratadi.

A. K. Borovkov tasnifi. A. K. Borovkov shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib, dastlab “а/а”lovchi va “о/ә”lovchi shevalarni farqlaydi. аlovchi shevalarga Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo‘l, shevalarini; “а/а”lovchi shevalarni esa, о’з navbatida, “й/ј”lovchi va “дж/ڏ”lovchi shevalarga ajratadi. “й/ј”lovchilarga Chimkent, Mankent, Turkiston; “дж/ڏ”lovchilarga Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A. K. Borovkov o’zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana 4 dialektga ajratadi:

1. **O'rta o'zbek dialekti.** Uni ikki guruhga ajratadi: 1) O'rta O'zbekiston shevalari: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va boshqalar; 2) shimoliy o'zbek shevalari: Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2. **Shayboniy o'zbek yoki "дж(dj)"lovchi dialekti.** Bunga Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Shimoliy Xorazm va Farg'ona vodisiyidagi "дж(dj)"lovchi shevalarni kiritadi.

3. **Janubiy Xorazm dialekti.** Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G'azovot, Sho'raxon kabi shevalarni kiritadi.

4. **Alohiba guruh shevalariga** 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent; 2) umlautli shevalarga (Namangan)ni kiritadi.

V. V. Reshetov tasnifi (tasnif to'liq keltirilmoqda)⁶.

Hozirgi O'zbekiston territoriyasida mavjud bo'lgan o'ziga xos etnogenetik jarayon hamda qardosh va qardosh bo'lмаган xalqlar tilining bir-biriga ta'siri o'zbek tilining juda murakkab dialektal kompleksini vujudga keltirdi. Tarixiy-lingvistik jihatdan bu kompleks uchta komponentdan iborat:

1) **shimoli-garbiy guruh** – o'zbek tilining qipchoq lahjasи. Bu guruhga o'zbek tilining qipchoq shevalari; territorial yondosh qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2) **janubi-g'arbiy guruh** – o'zbek tilining o'g'uz lahjasи. Bu guruhga territorial yondosh turkman tili taalluqlidir.

3) **janubi-sharqiy guruh** - bu guruhga qarluq-chigil-uyg'ur lahjasini tashkil qiluvchi ko'pchilik o'zbek shahar shevalari, hozirgi o'zbek adabiy tili va eski o'zbek tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg'ur tili kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko'pchiligi uchun shu narsa xarakterlik, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqador bo'lган.

Bundan ko'rindaniki, o'zbek tilining dialektal kompleksi haqiqatan ham murakkab bo'lib, u O'rta Osiyo va Qozog'iston territoriyasidagi xalqlar tilining kichik lingvistik xaritasini eslatadi.

⁶Qarang: Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. -- Б. 3-14.

Tarixiy-lingvistik faktlar ko'rsatganidek, O'rta Osiyo va Qozog'iston territoriyasida mavjud bo'lgan uchta (qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur) til birligi o'zbek tili tarkibida ham xuddi shunga mos uch lahjaning (qipchoq, o'g'uz va qarluq-chigil-uyg'ur lahjalarining) mavjud bo'lishiga olib kelgan.

I. Qipchoq lahjası. O'zbek tilining qipchoq lahjası har xil turkiy urug'-qabila guruh vakillarini o'z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qangli, mitan, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, ongut, qiyot, do'rmon, arg'in, uyg'ur* kabi ko'pgina urug'lar mavjud.

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. O'zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to'g'ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko'pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Bugina emas, o'zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston respublikalari territoriyasida ham bor.

O'zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avloddan-avlodga o'tib kelgan juda boy xalq og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi o'zbek xalqining milliy g'ururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan bo'lgan o'zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini o'rganish, o'z navbatida, qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjası o'z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra o'zbek adabiy tili normalaridan ham ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

II. O'g'uz lahjası. Xorazmning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G'azavot, Yangiariq, Sho'raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarda, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog'istonning bir qator tumanlarida o'g'uz lahjasining vakillari juda ko'p.

Shimoliy o‘zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o‘g‘uz elementlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog‘don qishlog‘ida) ham uchraydi.

III. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjası. O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjası shahar shevalarini va ularga yondosh bo‘lgan shahar tipidagi qishloq shevalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur dialekt birligining shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniyalar harakati bilan bog‘langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg‘ur til birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi yirik punktlar aholisining shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O‘zbekistan territoriyasidan tashqarida ham ko‘p tarqalgan. Masalan, Qozog‘iston territoriyasidagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent; Qirg‘iziston territoriyasidagi O‘sh, Jalolobod, O‘zgan va boshqalar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg‘onistonda ham uchratamiz. Ma‘lumki, 1630-yillarda o‘zbek urug‘laridan qatag‘onlarning bir qismi Shoshdan (Toshkent vohasidan) Afg‘onistonga ko‘chib ketganlar. O‘zbek shevalarini klassifikatsiya qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli guruhlarga kiritganlar, holbuki, mazkur shevalar o‘rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham, ba’zi grammatik formalarda ham ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Uyg‘ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman “umlaut”ning mavjudligiga qarab Namangan shevasi, xususan, Namangan atrofidagi ba’zi qishloq shevalari, masalan, Uychi shevasi alohida o‘rin tutadi.

Namangan shevalariga asos bo‘lgan turkiy til birligini e’tiborga olmasdan turib, Andijon, O‘sh kabi shevalar genezisini aniqlash mumkin emas. Shuningdek, Toshkent shevasining yuqorida ko‘rsatilgan shevalarga genetik jihatdan aloqadorligini hisobga olmasdan turib, Toshkent

shevasidagi ba'zi fonetik xususiyatlarning va morfologik formalarning kelib chiqishini tushuntirish mumkin emas, Modomiki, shunday ekan, yagona territoriyada va yagona bir til jamaa tarkibida bir-biriga bog'lanmagan holda vujudga kelgan til hodisalari yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Toshkent va Jizzax shevalarining yaqinligini tasodifiy bir hol deb bo'lmaydi, shuningdek, Qarshi, Toshkent va Namangan shevalari o'rtasidagi o'xhash fonetik hodisalarning mavjudligini faqat til taraqqiyotining umumiyligi bilangina izohlash mumkin. Iqon-Qorabuloq, ayniqsa, Chimkent-Sayram tipidagi shevalar ham shu umumiy taraqqiyot yo'lidan chetda qolgan emas. Chunki bu shevalar eski o'zbek yozuv tili bilan, shuningdek Toshkent va Namangan tipidagi shevalar bilan mustahkam aloqadordir. Faqat mazkur shevalarning ayrimlarigina o'g'uz tili elementlarini ma'lum darajada saqlaganligi bilan Toshkent, Namangan tipidagi shevalardan farqlanadi, xolos. Samarqand-Buxoro-Xo'jand guruhi shevalarining turkiy zaminini ham qarluq-chigil-uyg'ur til birligi tashkil etadi, lekin bu shevalarning tarkibiy qismida tojik tili qatlamining minimal ustunligi va ikki tillilik saqlangan. Shu sababli mazkur shevalar bilingvizm jarayonini, har jihatdan o'zaro farqlanadigan til sistemalarining o'zaro ta'sir jarayonini o'rghanish nuqtai nazaridan juda qiziqarlidir. Mazkur lahjaga oid shevalar (Toshkent, Jizzax, Qarshi, Andijon, Namangan, O'sh, Qorabuloq, Chimkent va boshqalar) tarixiy jihatdan bitta dialekt kompleksini tashkil etadi. Bu lahjani tubandagi guruhlarga bo'lish mumkin:

I. Farg'ona guruhi. U bir necha dialektlarni o'z ichiga oladi:

1. *Namangan dialekti.* Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) taalluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi.).

Mazkur dialektga oid shevalar uyg'ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

2. *Andijon-Shahrixon dialekti.* Bu dialektga Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

3. O'sh-O'zgan dialekti. Bunga O'sh, O'zgan, Jalolobod va shu tipdagi boshqa shevalar taalluqli bo'lib, ular uchun janubiy qirg'iz shevalari bilan bo'lgan metisatsiya xarakterlidir.

4. Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Bu dialektga Marg'ilon, Farg'ona, Vodil, Qo'qon va boshqa shu tipdagi shevalar kiradi.

II. Toshkent guruhi.

1. Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

2. Jizzax dialekti.

III. Qarshi guruhi.

1. Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.


2. Samarcand-Buxoro dialekti. Bunga Samarcand, Buxoro, Xo'jand, Farg'ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o'g'uz va qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).

IV. Shimoliy o'zbek guruhi.

1. Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba'zi shevalar taalluqli bo'lib, ular o'zinining tarkib topish jarayonida avvalo o'g'uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan.

2. Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur dialekt o'g'uz tili elementlarining kam bo'lishi, biroq Janubiy Qozog'iston shevalari bilan metisatsiyaga kirganligi sababli qipchoq tili elementlarining ko'proq bo'lishiga qarab Iqon-Qorabuloq dialektidan farq qiladi (12-rasm).

O'zbek shevalarining prof. V. V. Reshetov tomonidan qilingan klassifikatsiyasi



3. O'zbek dialektologlari. O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo'lgan professor E. D. Polivanov, mashhur professorlar K. K. Yudaxin, G'ozi Olim, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o'zbek olimlari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh. Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M. Mirzaev, F. Abdullaev, S. Ibrohimov, H. G'ulomov, Y. G'ulomov, A. Aliev, A. Shermatov, A. Jo'raev, O. Madrahimov, T. Yo'ldoshev, N. Rajabov, X. Doniyorov, T. Nafasov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, H. Myrodova va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professor va fan doktorlari bilan birga 50ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borganlar va olib bormoqdalar. Bu olimlar ishlari tufayli o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va deyarli barcha lahja va shevalar sinxronik tarzda o'rganib chiqildi, lug'atlari tuzildi.

O'zbek dialektlari hamon tadqiqot ob'yekti bo'lishi mumkin, ya'ni endilikda o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar: o'zbek shevalari fonologiyasi, turkiy dialektologiya, etimologiya, turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlardan o'rganilishi kerak. Bu

kabi masalalarining o'rganilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalar qanday tamoyillar asosida tasnif qilinadi?
2. O'zbek shevalari kimlar tamonidan tasnif qilingan va ulardag'i farqlar nimalardan iborat?
3. Qaysi o'zbek dialektologlarini bilasiz va ular qanday tadqiqot ishi olib borishgan?

Tayanch tushunchalar:

Shevalarni tasnif qilish [classification of dialect] – shevalardagi o'xshash va noo'xshash xususiyatlarni hisobga olib, ularning guruhlarini belgilash.

Metisatsiya [metisation] – qardosh tillar va shevalar chatishuvi.

Gibrnidizatsiya [hubridization] – qardosh bo'limgan til va shevalarning aralashib ketishi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar

(shevalardan yozib olingan matnlar)

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi

Toshkent shevasi

Мэн озъм есқъ бў:воммән. Ҳэзър онуч сотъх йеръ бў:. Йэрмъ тўк, йэрмъга мевәлый дәрәхлә еккәммән. Әлмә-пәлмә, нэк-пок дъягендәй – хәммәс бў:. Эзғына сөвзъ-пыйз, кәртъшкайәм еккәммән, йегулувгә йэрәшә. Боллә дәләдә ъшләшәдъ. Қаръп қолдъм, қәдъм мәнәм дәләдә ъшләр-ъдъм. Ҳэзър тэмсрәгә еккән нәрсәлә:гә, тәккә қәрәп турәмән. Джъум туръболәдъ дъйъсмъ, ъшләп оргәнгән әдәмгә. Йэздә дәла беғъда қоревулчълыйәм қъләмән, болләгә йэрдәм босън дъп. Ҷаңъ, съзга бў:дәрчълыйдән гәпърь-берәколъй. Бў:нъйәм джә ъшъ коп боләдъ. Ертә кохләм тўк эчъләдъ, шорәсъ осын кетмәстән. Пойәла сънгән, беғазлә чушъп кеткәм босә, ъшкәм, башкәттән ъшләнәдъ. Бу шундэ: боләдъ: сънгән пойәнъ эп тәшәп, оннъгә йенгъ пойә қойъләдъ, кегън пойәла егъп ъшкәм қълынәдъ. Пойәгә йомбашләгъп беғез бэйләнәдъ. Беғаззъ ўстәй мънәм

байлыкуз. Тәлль ыңгъчкә нөвдәссынъ ыстәй дыйвуз. Кегын тәкъ ышкәмгә котәрәвуз. Нөвдәләрънъ тәрәп, чыптәмънәм бәғәзгә байләп қойсуз. Йәздә тәк осып, ышкәммь орап кеткәндә хәмтәв (< хәмтәк) қылсуз. Бомәсә, нөвдә пышмый қоләдъ, узымәм бемәзә боләдъ. Хәмтәв қыгандә, кун йәхшъ чушәдъ. Нөвдәйәм пышәдъ, узымәм шырәлъ боләдъ. Кун йәхшъ чушышичун бә:йләнъ йулып тәшләшшь хәмтәв дыйвуз. Узым пышкәндә, ышкәммь устьгә бәғгә оттәссыгә хөвәзә қылсуз. Хәвәзәдә отърып күшшь корыйвуз. Йәздә тут шышығыдәм бәшләп кәрәйәлә:, чуғурчу: келәдъ. Корып турмәсән, узыммь шылып кетәдъ. Тәртәрәй чәлсән кочәдъ. Энув котта йәңдә:гәйәм коннъро: қып қойәмән, күш қорышкә. Коннъро:нъ пәкърдән қыламән. Пәкърръ ычыгә быйтә темърръ эсылтъръп байләп, пәкърръ йәңдә:нъ уччыгә эсып қойәмән. Үчъдәгъ темъргә кәнепп байләп хөвәзәгә тортып келәмән. Хәвәзәдән турып кәнепп тортып қәсәм, дәрәнн-дурунц қып кетәдъ, күш бәләсъ йоләп корсынчъ. Хәвәзәдә йәтәмән, күшшь зөвзъ кесә, йәткән джайымдә кәнепп тортып қойәмән, коннъро: джәрәңләп кетәдъ, күш бәкә йоләмъйдъ. Кечәстийәм хөвәзәдә йәтәмән. Йәззъ ўссық дым кечаләръйәм оттә (< у ерда) гүр-гүр шәмәл. Хәвәзәдә йәтъыштыйәм гәштъ бә:. Бу йыл йәздә быр кельйлә. Хәвәзәгә джай қь-бърәмән, ошәндә быләсъс хөвәзәнъ гәштънъ. Еттәмән ыккъ вәш шәкәрәнгулъ (мож. шакар ангур) сувгә соп, муздәй қып берый, кәрсүлләтъп йеп корын, ошәндә быләсъс бәғгә, узыммь хәсыйетънъ. Узым джәнъвәрәм мъң быр дәрткә дәво. Е, роствәнәм бъ-нъмә дывтувдым. Хъ, бә:дәрчъльйә кессов (< келсак), куздә узымла узып элънгәндән кегын тәкъ комыш керәй. Комышдән элдүн узыммь зәңгъ, нөвдәләрънъ ышкәмдән чушыръп ҳәсъләсъз нөвдәлә кессып тәшләнәдъ. Кегын қондә: қылънәдъ. Узыммь нөвдәләрънъ йығып, байләп қүйышшь қондә: дыйвуз. Қондә: қыгандә, узыммь нөвдәләръ йәткәззүлъп, узун қып нөвдәмънәм байләп қойыләдъ. Кегын устьдән бәрдъ йәпсәйәм боләдъ, турпә: йәпсәйәм боләдъ. Мән бәрдүгә комәмән. Энув каләвәттә устьдәгъ тәк әймәкъ. Унъ коммыймән, оргәнгән, қыштәйәм турвурадъ. Энувнъйәм әймәкъ қымәкчымән. Джайдәнъ устьга чықәрвәрәмән. Ошәнъ устьдә соп йәтвурсын, хөвлүгәйәм сыйә берәдъ. Келгусъ йыл мәмбъ кырмъскәнъ

пәрхыш қымыс: чымэн, пәрхыш қып копәйттәрәмән. Мундәнәм бытта соръ қып қүйй, йәхшү турәдьгән узым, мәғъзыйәм коттәкорғанныңкәдән қолышмыйдь. Қәләмчәсъдән съзгәйәм бытта екъп беръй, бәхәнәмънәм узымлый боп қәләсъс, узымлый ойгә нымә йессъын, о:льм.

Farg'ona shevasi

Ertaklar

Бър кун девәнәйъ Мәшрәп сәхрәгә сәйыл еткәнъ чыккәнъдь. Сәхрәдә бәрәйәтъп әтрәпъгә қарәсә бър дейқон қош ҳәйдәйәткәнъмъш. Дейқон қош ҳәйдәрәкән-у, Мәшрәпть йәзгән ғозэлләръдән бърънъ бузъп куйләйәткәнънъ ештьпть. Дейқон ҳәйдәлгән шудгәрдъ мәлә бәсъп еткәч, Мәшрәбъ девәнә мәлә бәсългән йердъ эйәк вә қолләръмънән бузъпть. Бунъ коргән дейқон „до:д-пәрйәт” қылъп: „Ей девәнәйъ Мәшрәп, не сәвәлтуркъм, мәнъ мәлә бәскән йеръмъ бузәсән?” – дептъ, унгә джәвәбән девәнәйъ Мәшрәп: “Сәнъ мәлә бәскән йеръинъ шул сәвәптын буздымъкъ, мәнъ йәзгән ғозэлъмъ бузъп әйтүрсән”, - дептъ. Дейқон Мәшрәптән узр сорәпть.

Kunlärdän bir kun ilän ärigä šundäj depti: dunjädä nimäni eti širin ekänligini soräp, dunjädägi bärčä etlärdi tätip kelišti bujuripti. Äri ketipti. U dunjäni äjnälip, butin etlärdi tätip, kečigip qälipti, qäldiryäc uhnän xäbär äliš učun jolgä čiqipti. Joldä ärigä duč kelip, unnän soräpti: „Dunjäda nimäni eti širin ekän”, - dep soräsä, äri äjtipti: “Dunjädägi bärčä etlärdän ädäm eti širin ekän”, - depti. Qäldiryäc ärin: “Tilijni čiqär bir opäj”, - depti. Äri tilini čiqärgänäkän, tilini čišläp, užväläpti.

Äri səqov häldä iländi äldigä bäräpti. Țlän äridän nimäni eti širinligini sorägänäkän, äri yuṇyilläp žäväp ejtälmäpti. Qäldiryäc äjtipti: “Dunjädägi bärčä jäxsi etlärdän qurbäqäni eti širin ekän, dijäpti”, - depti. Šunnän bujän iländi jemiši qurbäqä eti bolip qälgänäkän.

Боръ былән тулкъ екәләсъ джә: қолън дос болышыпть. Уләр бър кун бър дәштә кетәйәткәнләръдә джъдә қоннъләръ әчкөлъп, нымә қыльшынъ бълышишмәстән, у йәк – бу йәкләригә қарәшсәкъ, узәктә бър бәғ (бәх) корънъпть қорғондъ ъчъдә. Унгә йәкън борышыпть, йәкън бәрәшып узым оғыллых қылмәхчъ волышыпть. Қарәшсәкъ, қорғон

джъдә бәләтәкән. Нымә қылышынъ бъльшмәстән қәрәшсә, эмъзъй тургәнәкән. Шу эмъзъйдән бър бәлә қылып қысьлып йетъп отышьпть екәләсъ, шундә тулкъ боръгә бър гәп эйтъпть: “Узъмләр хоп пышьпть йетълып, узъмдъ шундәй йыйлъккъ тойып буннъмъздән чықып кессең”, - дыпты. Рә:сә узъмдъ екәләсъ йайды. Тулкъ шундә ҳыйлә ъшләтъпть. Ҳыйлә ъшләтъп, буннъгә бър узъмдъ тъқвәпть - екәлә буннъгә узъмдъ тъқвәльп, боръгә: “Хәлтыйәм қониң тоймәдымъ”, - дәпть. Боръ унъң сәрь шәшълып, қызықып йу::ръпть узъмдъ. Эхъръ, қониң йэрълып кетәдъгән дәрәджәгә йетъп қәпти. Шундә тулкъ дувәлдъ устыгә ъ:ргып чықвәльп, ҳә:дып „бәғбән эка оғыръ кеттыйо:”, - дәп чақыро:ръпть. Шундә боръ нымә қылышынъ бълмәстән эмъзъккә йугърсә, эмъзъккә сығмәпть. Дувәлгәйәм ъргыйәлмәпть. Шундә бәғбән чықып қолып, рә:сә тохмагләп урыпть. Чәлә олъй қылып тәшләпть. Шундә бәғбән ендъ боръни олъп қолдъ деп кетыпть әркәссыгә қорәп. Шундә келтейдъ зәрбъгә боръни йегән узъмләръ чықып кетыпть. Тулкъ дәрров дувәлдән ъргып чушыпть ҳәл-әхвәл сорәгәнъ. Тулкъ әлдънъ әлъп, боръгә эйтъпть-дә: “Мәнъйәм әниердә рә:сә кәлтейләштү. Екәлә бъкынъмъ әләлмәй қолдым. Тур ендъ кетәмъз”, - дәпть боръгә. Боръйәм “мәйиль бо:мәсә” деп эмъзъйдән әлдън отыпть. Эркәссыдән тулкъвәй отыпть. Қәрәсә боръ джә: ҳәлләсләп кетәйәткәнъмъш. Тулкъ ойләп корып қәрәсә, боръ әлдън кетйәпть. Кейън тулкъ “вәй эйәғым!”- деп эхсәғләнъп йурыйәпть. Уңгә боръни рәхмъ кельп: “Ке, әрқамгә мънвәл, бо:мәсәм”, - дәпть. Шундә тулкъ мънвәлтып: “Хъх ешәгым, сәнъ әлдәмәсәм кымъ әлдәймән”, - дәп боръни мънъп тәккә қәрәп чықып кетыпть. Шу мънән боръмънән тулкъ мурәдъ мәхсәттәгә йетъпть.

Namangan shevasi Suhbat

Кулләдән бър кун оттәғиммънәм тәғәммъкъга кырудуг, бъззы йәңгәчәм қәшишъ (қарши)әддъ, шыйпонгә откуздъ. Ендъ әлдъмъзгә у-бу қойып түрүддъ, шу вәхттә қошнъсъ қетъкә чықып қолдъ.

- Қошнъ, қетъғыңгыздән босә бър косә берън.

- Бър хурмәчә қолудъ, ындъгынә гүзәргә сөткәнъ спчып кеттыйә.

- Есьзгънә, зэддөв-мэддөвъйәм йо:мъ, башъммъ тэтэлэвэлэй дудум.

-Зэддөвъ йоғ-у, өзъмъзгэ эп қойгэндъм, өшэндэн берэклэй, башънъзгэ восэ.

-Худэйс, мольцъ гомуш восун, йолъммъ йэкъы || йэкъы қълдъз. Вэй қошнъ, шашългэнъмнэн ҳол сорэшэм есъмнэн чыл қоптъ, ендъ сорэшэйнүк: түзүмъсэз. Түнүкүн тэвънъз йоғ деп ьшътъп хълэйхэрэгъм эчъшмэсэ.

-Хэ, ендъ түзүмэн. Духтур кельп қарэп, дэръ-мэръ йэзып берүдъ ьчып өнчэ өзүмгэ кеп қоддъм.

-Ылайс эйыллэръцыз бэхтъгэ түзү волун. Еткэндэй, огльздэн хэт келуттъмъ? Тынчкэммъ?

-Хэ, келуттъ, тынчмуш, ойнэп-кулүп йургэнъмуш. Ыкучкун бодь рэсъм йүвэръпть, ғэлэти эркэсъдэ попугъ вэр шэпкэлэдэн кыйвэпть.

-Хэ тузу:, тынч восэ боптъ. Огльз бомэсэ морйэгэкэндэ популуг шэпкэ кыйгэн босэ.

-Хэ, шунэкэймуш.

-Вэй өлмэсэм, өшиш қып, дэмлэп чыку:ддъм, ендъ лэнджэм боп қоддъ. Откэн сэ::р шунэкэ тэклъг эш қылу:ддъм тэ:гъ эп, кырмоч боп қоптъ. Хоп көрьшгүнчэ хэй, йоқэса.

-Хэй.

Уннэн кын йэңчэмъз бэzzъ өлдъмъзгэ кеп: “Сылэнъйәм зерктьрьвэддумъ... хэтгунлэгэ гэб босэ. Шуньчун эйтъшэддэдэ: элэkkэ чыккэн хэтгуннъ еллъг эгүз гэпъвэр деп. Ыктэмъз бэрвоп қолду:мъ, болдъ гэппь бэйтэверэмъз. Хэй, эбэн тузу:мъ, эчэнлэйәм йүрьптилэмъ, үкэлэрън”.

-Хэ, хэммэлэръ йэхшь, кырсэн сорэп қой дейьшудь.

-Сэломэт болуссан, хъч келэйәм демеисълэ.

-Көрмейсъмъ, ышлэ джудэ коп, ендъ муннэн бэкэ кеп турэмъз. Хэй. ендъ бэз турэйлук, бэр ьшмънэм бэддэжэйгэ кетуткэндүг бэйгэ кырьвэтэйлүг деп қолдъм, Мэнү: эшнэммъйәм башлэп кырэведдьм.

-Жудэ йэхшь қыпсълэдэ. Джэ тез қайтуссълэйэ, экэт-пэкэт қысо: бэлэддъ, эхър.

- Ъшъмъз зэрурэг, башкә күнъ келәрмъз,
-Хәй... дәрәп кетүссүләйә, тәбә, башкә кельянә, бомәсә.

Kitob tumanı Ayronchi qishlog'i shevasti

Бъзәддь қышлах халқы қыйәнъ, бәлғаль, хожә уруғләръдән. Бъзәенни шу уруғләдән ургып қәгән-дә. Қадым әкәль-үкәль мәлдәр кышъләр bogән дыйдәләр, улә түйә сөвгән, қой сөвгән, әйрән қыған.

Бъз әктъб боп келлък, ыгърмә сәккъзынчъ йыл йер токатыш болль, ыгърмә токкъзынчъ йылгә кельп кәлхәзләштьк. Быр селсөвт бойъчә мен кәлхәз рәйъсъ боллъм. Быр әйдән кейн сәғүм бъзды селсөвттә рәйъсъқып қойдълә, йеккы йыл ышләдъм. Қышләк-қышләкка кәлхәс түзуллъ. Оттъз йеккынчъ йыл ғалаба кәлхәзъ болль, йекки йылләң кейн уштә қышлах - Әчәмәйль, Қайчыль, Әйрәнчъ быр кәлхәз болль. Кейн йәнә кәлхәзлә былләшть. Қыр бърънчъ йыл йәнә бъзды рәйъс қыльп сәйләдълә. Ошә йыль ҳосыл йәхшъ бомәдъ. Рә:бәр өзи буйрук қып, ыш көрсәтмәсә бекәр-дә. Қыр бърънчъ йыл уруш боп қолль, ыгъулләддь урушкә йувәрәйәппъз. Шүйтъп қыр йеккынчъ йылләгә бәркәп кәлхәзъмъзә куч кәм қоллъ. Ә:рәнум мънән өзъмъс сув сугәргәммъз, съзгә, бу қышыгә охшәгән ыгъулләр қейгә, бъзгә уштә търе:тър бәръдъ, ышләвчылә гъжълләгән ҳәммәгънәсъ әйәл. Ошә вәхлә ҳәм шәль екәйдък ҳәм пәхтә. Онәккынчъ мәттән лайшәнә чушәйдък, әпрыл әйъгә дәвур шәльни екъб боләйдък. Сәғүн пәхтәнъ егәйдък. Търе:тълләрмъз гә: йурәдъ, гә: йәтәдъ, жонвэр ков екса, беш-элтъ гектәр егәйдъ, ыгърметә-оттъстә эт селкә мънән чыгытты етъб боләйдък. Ҳәммә нессә пәхтәгә қарәтъләйдъ. Медъмъс қып сөвун, чай, шәкәр, чыт тәхсъмләйдък. Чытты қарастьнъ эләсъзмъ, сурғынъ эләсъзмъ. Қайсъ керә: боса эләйдъс, ғаллайәм шуннәг. Кәлхүччыләйәм йәхшъ ышләйдъ, ҳәммә тәң әзиннән ышкә чығадъ, ҳәддъ йәғьдъкъ бирәнтә чығмәй қоса. Шүйтъп хәр йыль дәвләткә пәхтәнъ пъләнъдән әшъръп тәшшъръп турдък-тә. Быр хыл кышылә әрдын элль, уоттуз беш- уоттуз элтъ әрәвә пәхтәнъ езъ кәшъккә солъп, быр кышъ тәрәзъйә тәртъп беръп келәйдъ, поләшолә дегән гәб бомайдъ.

Шәкәр ләвләвънъйәм көв егдък. Быр кун қәлхуччыләддъ хәммәсънъ быр от боскән эңцәр боръдъ, ләвләвъ еғылгән, шунцә эп чыхтъм, ъдәрәгәйәм ҳъч кым қомәдъ, ҳәммә бәлә-чәкаләръ мънен чығдъ. Бытта ънвърсәльмъз бә. Быр вәштән чүштъм-дә ҳәммәгә сәнәб беддъм, быр хәттән тыйдъ, озымәм әллъм. Йәгәнәдән чықканынъ эп кетъйлә дедъм, чүччъ шәкәр ләвләвъ-дә, ҳәммә теръп-теръп эп кетәйәптъ. Қарәсәм, рәйәннъ вәкълләръйәм бә:ръ келәйәптъ-дә. Быр упәлнәмәчъ бәръдъ быр вәх ләп ътъп әллъмъзгә кеп қоллъ. Шу турушкә, ҳәшәр қыпсән-дә, дедъ. Кейнъ рәйкум бәво кеп қоллъ, кечкурун, бойрәғә чәкъддъ.

Кечкәчә хәммәсънъ човъп тәйләдък, қомә:дъ еннъ. Рәйкумбәво ләвләвънъ пәйдәсъ кәттә деп гәпъръп-гәпъръп кеп, кейин бъзәддъ мәхтәб бәщка рәйъсләрдъ қызәртърдъ. Еннъ бъзә эпъннъккә отып қоллък. Быр суворъп, суворгәннен кейн тәйбашәйдъ, қәвләп ҳәр-хәр жайгә үйдък, шүйтъп ҳәммә джәйдъ ләвләвъ бәссып кеттъ, ҳәсълъ тәхсъмләйдък, чыт кесә қәлхәзгә дәррөв хесәвләп чығамъз, қанъ неччъ метъдән тыйә:дъ, соғун хәвәр қыламъз, Фалләнъ қол мънән оръп, ҳом мънән йәнчәйдък, ънтызом шуннәй қатты едъкъ, йәнчън, сәв(у)рън, тәййәллән, некын хыйәнәт қымән, дыйдъм.

Ошә вәгләр қәлхуччыләрдә мәләм кувъдъ, шунчә мәл қәлхәздъ йерънъ бәсмәгъчыйдъ. Қәлхәздъ иңкънъ йесән, ҳәләлләв йе, дейдъг-дә, әдәмләгә, съз пъронтъ әркәсънъ мә:кәмләсә:ңъз, пъронткә йәддәм бергүзәнъңъз шу болә:дъ, дыйдък.

Быр джәйгә шөлъ екувдък, әдәмнъ қәмләгъдән, когәръп чығып, кейнъ от бәссып кеттъ, шундәй босәйәм, быр розғортә быр туннәчә шөлъ тыйдъ.

Быр кун рәйкумбәво чақыръп: “Сенә әт-ҳокъз йетышмәйдъмә?”- деп сорәдъ.

Быр кун ъстъмә зорәләйвъдъ, бәдәнъмә варәжә къръвъдъ, хылпә дәвшүшм пъттъ, йентъкып-йентъкъп нәпәс әлемән, әйәльм быр мәмә чакыргәнәкән, у қолънъ шүтъп тәмәғымә эп кельвъдъ:”Е, қой, қой”, - дедъм. Сув ъччәм отмәйдъ. Соғун карәсәм, бәдәлрәп уч кышъ окыйвъдъ, әйәльмнъ чәкъръв әйттъм: “Быр кышъгә буйур, шә::рдән тәвә:мә, ғузәддән тәвә:мә быр върәч тәпсә-дә. Йувәрсә”, - дедъм.

Карәсәм, әвхәл шо. Соғун шә::рдән върәч кев өп кеттү мөнъ, ендъ йыттыпән, бә:рьсъ өзъчә гәпләшәйәпть, қуләгъмә кырәдъ, чүшмәймән уләддъ гөвүгә, ҳүштәмән бүлмәймән, иекън нәпәс түттәккынә рөшәм болль бәргәннәң кейн. Шүтип, әпәрестә қып түзәлъп кеттүм. Еннъ әдәмләгә белбувардән йүғәрьдән йәрә чыхсә, мена йуворсън, дедъм. Быр қышынъ сонъдән быр сом дегән йәмсән йәрә чъыпть, бәхшынә, пәлчыңә йугурәвърасәммә, бәр чоләг върәчкә, дәп кәғәз йәзъб бердъм. Тағъ бъттәсънъ карәсәм уштәсъ окув йә::пть, тәмәхгъ быр тәмсәнънъ қысьв әгән, ҳылла нәпәс әләдъ. ҳәзър върәчкә бәр, дәп жонәтъв йувәрдъм.

Кәлхәзгә йеттү йуз гектәр эвъ йер бәр ъдъ, сув йетышмәйдъ, кум бәтъш пәйтъ ту:рь эллыгә бәддъм. Вәтхузгә ышләгән устә қышъ бош кетә:мә, мәнә сув берәсәмма, йохмә?- дедъм. Сув учун уруш-согъшәм бол турәт(ъ)тә, еннъ. Бу гөвънънъ кой, улум, дедъ.

Ныкә тойдә әрзъ-хәвөсъ бәр-ку:, нә қышыләр тоққыс тәвәк қыләдьләр, йыгът бергән нессәдән тоққыс хыл тәвәм қыләдъ: әнәр, ҳәлвә, нән, шәшлък..., ҳәммә қассыгә сөлъвәләдъ. Той кунъ быр қас йәзъп қойәллә, шу қаскә кым қанчә тәйләсә тәйләйдъ, пулль кыйәв тәмсәнә тәпшырәллә. Шу кунъ ҳәмсәйә ҳәвлъгә къз дугәнәләръ мънән оттърәдъ, қыздъ вәкъльнъ сорәб бәрәллә(r). Кәмпърләр ләләләддъ гүп-гүп урып, тезро: гәпър деб мәжмур қыгәннәй қыләллә. Шунъ учун вәкъл сорәп кегәллә кәмпълләгә пул берәдъ. Еннъ қыс кымнә ۋәкъльнъ бергәм босә, шунъ гөвъ гәп, кәрәтәйәм боләдъ. Ыгът тәмсән әйәлләръ ыгъуттә кыптыдән, тоңидән ъ:нә откәръп турәдъ, кейън ыгът екә жорәсъ мънән чымълтыққа кыръп учәвыйәм сәләм соләдъ. Кәмпъллә: "... ков йәшәсън! Мъң йәшәсън!"- қып қолләллә(r). Еккъ жорәнъ къйәвбәшләтәр дейдълә. Уләгә әтәп қалпәк, қас, тәвәм тәттүп эллыгә қойәллә, бәркәшъгә пул тәйләп, улә элъп кетәллә. Пуллъ къздъ енәсъгә берәллә(r). Кельнинъәм къйәвдъ эллыгә къйъръп қойәллә(r), ойгә әдәм толә боләдъ. Кейън кельң-къйәвдъ хешләръ чымълтыққа қарәп сәчәлә сәчәдъ.

Еттәмънәң қайннәсъ къйәвдъ қошыгә чынташох, чайный-пъйәлә, бәркәш кетъръп қойәдъ. Къйәв унъ элъп кетәдъ. Нәмсәзъ эсъргә бәръп къз откә мънъл къйәвдъкъйә жонәйдъ. Йолләгә бәқам тутәллә әдәмлә,

Къздъ мъндъръб боргъч йә экәсъ, йә укәсъ уләгә пул берәдъ. Къз эт мънэн элэвдъ гъддъдән эйнәләдъ, къздъ ыгът котэръв эләдъ. Кейин бетәчәръ, джоййыгарь қыс коддъсъ боләдъ. Қыс коддъгә къздъ этә-енәсъ коргәнъ кельп, хәпәвән, оттуйәк сп кебберәдъ.

Koson shevasi

Bir bäräkän bir joyäkän qädim zämändä bir kiši bogänäkän. U kišini uštä oyli bärikan. Kunlärdän bir kun u kiši äyir käsäl bolib qälipti, kättä oylini čäqirip šunnäj depti: oylim, meni jääšädän korä olimim jäqin qälli. ägär män olsäm, gorimni uč kun päjlejsämmi?- depti. Oyli joq päjlemäjmän depti. Šunnäj kejin u ortänči oylini čäqirtiripti. Lekin ortänči oyli häm ätänsi gorini uč kun päjläskä räzi bomäpti. U kiši qättiq xäpä bopti vä kenžä oylini čäqiripti. Oylim, mäbädä män olip qälsäm, gorimni uč kun päjlejsämmi? - depti. Kenžä oyli uč kun emäs, jus kun disäjäm päjläskä täjjärligini äjtipti. ärädän bir nečci kun otkännän kejin u kiši olpety. Ätäsidän qälgän meräsnı uč oyil bolip äptilä. Lekin ektä kättä oyil mäisät, ojin-kulgigä berilip ketipti. Tez kundä ulä ozlärigä qäräshli bogän meräsnı ičib tämäm qiptilä. Ulädä hič nersä qämäpti. Uläni här kuni birgä mäisät qilajkän doslärijäm täjläp ketipti. Šunnän kejin ulä ukälärini äldijä kelip pul soräntilä. Kenžä oyil äkälärini gäpini qäjtärlämäj ulägä pul beräveripti. Lekin ulä tez kundä bu pulsijäm ičip tämäm qipti vä jänä ukälärini äldijä kepttilä.

Kenžä oyil ätäsi olgännän kejin birinči kuni gorgä bäripti. Bir četkä otivälip, gorni päjläj bäs läpti. Bir päjt äsmännän bir qärä ät tušipti vä gorni uč mettä ejnälip ketejkändä kendjä oyil ätti ušlaväpti. Sundä ät šunnäj depti: Män ätajni ätijdim, ätaj olgännän kejin uni gorinä zijärät qilişgä čušgänidim. Ägär keraj bop qäsläm, mänä bir jälni tutätasän, dip jälidän julip beripti-dä, äsmängä kotärlipti. Ikkinci kuni bir zängär ät kelip, gordi uč mättä ejnälip ketejkändä oyil unijäm ušlaväpti. U ätäm jälidän julip berip, kozdän gäjip bopti. Uchinči kuni bir sämän ät kepti. Ujäm gordi uč mättä ejnälip endi ketejkändä oyil ušlaväpti. U ätäm jälidän uč tälä julip berip, kozdän joqälipti. Kenžä oyul ujgä kelip bu sirdi äkälärigä ajtmäpti. Äkäläri ičip kenžä oyildijäm bär - joyini kokkä sävuriptilä. Šunnän kejin ulä boşqä jurtkä bäs äp ketiptilä vä bir kişigä čopänlikkä išgä kiriptilä.

Kunlädän bir kun äkäläri kenžä oyilni qojlani äldigä qäldirip, ozläri šä:ärgä čušip ketiptilä. Ulä šä:ärgä bärip sunnaj xäbärdi eštiptilä: ägär kimdäkim ät minän qirq zinälik närvännän čiqip pässäni qizini qälidän suv ičip, uzugini älip čušsä, pässä qizini ošängä berädi. Ulä ujgä kelip, bu xäbärdi kenžä oyilgä äjtipti. Kenžä oyil mänijäm äbärijlä, dip jelinsäjäm äkäläri uni äbärmäptilä. Sundä kenžä oyil qära atti jälini tutätipti, ustigä kijimläri minän ät päjdä bopti. U kijimläri kijip, pässä säräjigä jol äpti, zinäni äldijä bärip, ätgä bir qämči uripti, ät 38 zinägä čiqipti. Kenžä oyil ätini bäsni qäjirip čušip ketipti vä heč nersä kormägändäj pädägä qäräp juripti, äkäläri kelip, bugungi bogän vähijäni gäpiripti. Ikkinci kuni kenžä oyil zängär ät minän bäripti, 39 zinägä čiqip, qäjtip ketipti. Učinči kuni cämän ät minän bärip 40 zinägä čiqipti. Pässäni qizidän suv älip ičipti, qälidän uzugini älip čušip ketipti vä pädäsimi bäqip jurivuripti. Pässä sunnaj bujruq čiqäripti. Hämmäni qolini juvdırıp čiqijlä, dip. Lekin 40 zinägä čiqqän äzämätti tāpämmäptilä. Pässä kim qälli, jänä, qolini juvmägän, dipti. Hizmätkärlä bir pädäči qälgänini ejtiptilä. Pädächinijäm čäqirip, qolini juvdırıptilä vä uni qoligä uzukti koriptilä. Sunnaj kejin pässä 40 kečäj-u, 40 kunduz toj qilip, qizini kenžä oyilgä beripti vä pässälidijäm tāpşiripti. Kenžä oyil ektä äkäsimi väzir qilip äpti vä mälikä minän birgä murät mäxsätigä jetipti.

Kitob tumani Chechak shevasi

Бэр йыль, йыгылтыг вэхтъымга басмачьлардь қолыгэ чүшкэммэн. Фалла алыш учын Пәйшәммөн бозорыгэ уч кышь боп бордык Ек(къ)кышь быргэ қышләгдән бордык-тә, быттәмъз бозордән қошылък, уштә боп фалла эләмъс деб бэрүвдък, быр қышләккә борып йэттүк//джаттык. Бэздэ быр эшнәмъс бэрдъдь, шу үйэртъп бэрдъ-дә, кыйын шу қышләккә йэттүк//джаттык. Шоордән, ендэ хәзэргэ ҳысопкә быр йузү он келә буғдай эллым, быр ҳәмрәйъм йетмъш келә элль, быр ҳәмрәйъмъс қыр келә элль, ҳәммәс боп еккъ йузү йегърмә келә фалла элльк-тә. У вэхтъ фалла мънән куннузъгэ йуруш қыйын. Кечәсъ ҳәйдәймъс деп ошергэ йэттүк//джаттык. Шу йэткэн өхшам(мъ)мъс ҳава булут боп қараңыльг болль, пъчъ ҳава йығдъ:, йурәлмәдък-тә йэтъп қоллык Куннузъгәйәм жонәлмәдък, бу өхшәмъ йонәдък, эй әйдън болль, ҳава гувэр-пувэр бомәдъ, джә быр кърөв чүшүп, эйдън

боп, эльстагъ йолләр корунын, шүгъп, учев(ъ)мъс келәйэтувдук-ко,... хей, берийәфдән, әлльмъздән, шо қышлоғдан чығып быр йеттъ-сәккъс келәметьрләр йуруувдък, әлльмъздән уч әлль(к), шо эльстән былдъран бъзә(r)гә қарәп кельвърдъ. Бъзә быйак(к)а қарал кетъвердък, улә бъзә(r)гә қарәп кельвърдъ, шо, быр-бъръмъзгә қаршь кельвърдък-тә. Бъзәдән отть-йу қайтып быйака отть-дә „тохтаңнар“ дъдъ. Хоп тохтадък.

-Қайердән чыхтыйнәр? - деп сорә:дъ.

-Хә, мәнә шу қышләктән.

-Хоп, қеддән съләрдък?

-Бъзәрдък Кытәптән.

-Нымә бу эртәлләрън?

-Буғдай...

-Хоп, қойтәр бергә - дедъ-дә, шә:ннәң ке:йн бъзәрдъ қойтәрдъ, учевънъйәм кыйъмъ түзүй. Ҳәмрәймъздән екөвъдән ғалланы әлдъ-дә, менә ындамәй турдъ. Соғун менә келлъ-дә, сен кым, дедъ. Лекън ҳәмрәйләръм шун(д)әйчъ йүргән къшыйдъ, менә пърестәйгънә ҳәмрәйдъ.

Бъйәхтән кегән ҳәмрәй әйттъ, мунъ менән әйтъшъв отърасеммъ, мунъ мәргъ быттә пәчәх-тә, быттә пәчәфдъ бер, энә джак(к)а йумәләтъп тәйлә - қой-дә, дъдъ. Шун(д)әй дегәннәң ке:н қохтум. Мен әйттъм, хә, бу бәсмәчъйәкән, еннъ бъллъм, нәвәдә этъп тәйләмәсън, деп йәңәгъйә, сорамағдъ әйбъ джох съзлар кым боләссыләр, дедъм.

- Е, менъ ертә Чырәхчъ бәрсән, бъләсән, менъ кымльгъмън, дедъ.

Җыңырау Чырәхчъ бәрмәстән шейгә быр ыш қып қоймәсә, деп коркайәппән. Кейнъ быр вахтъ быттәсъ келлъ-дә, шу мәнән ком мәйдә-чүйдә къв отърмә, дедъ, эттән чүштүм-у, этъ устыгә буғдай әртълғанъ:йидъ, шу әртълғанъ мәнән эттә йыләвъдән олль-дә, этъ быйак(к)а бер, дъдъ. Бу менъкъ йемәс, менъ некын бъровдәң қа(r)здәр қыласыләр, меннән ундурув әләт(ъ)тә дъдъм. Еннъ мәйдә-чүйдә десәм, бынъмә зәләлләнтьръп, этъп-потып тәйләмәсън дыймән, кечәсь быр әвләх чолгә. Ек(къ) ҳәмрәйм чө:т ыннәмәй турьлтъ. Гәпуруувурудъм, бу мә:мәдәнә мәнән әйтъшъв отърмә, әйтъшшәң ертәмәннәчә дәвур сенъ эйләнтьрадъ, гәп тәвуб берәйкән. Мунъ,

эйтъм-ко сенә, эйтъшъв отъргунчә бър пәчәфдъ бер, шунь мънән чукурға эвдарып тәйлә, қолувурат(ъ)-тә, дъдъ. Сәгүн эттә йүләвънъ беддъм, мә!- дъдъм. эттә йүләвънъ шуннәй элль-дә, хәй нәрәләкә бър беш мътър-элтә мътър джәй-гә бъттәсъгә еттъб бердъ. Бунъсъ менә, элльмәңә кельп қарамат(ъ)-да, шу, чәппә қарап турупть. эттә йетәләб бәрдъ-дә, йүләвънъ уңә беддъ-дә, соғун - қанъ еннъ, болъинәр, съләрдъ мәнә шу йол топпәторь Чърәхчъгә эбәрәдъ, дъдъ. Кәттә йол өзъ некъи. Шу Джәмнән келәйәткән кәттә йол озъ, шу йолгә тушърдъ-йу, топпә-тоғръ кетәвурәсълә шу йоллән, бу тәмәнә чыхсәнәм этъләсән, бу тәмәнә чыхсәнәм этъләсән дедъ-тә, хәйдәдъ, бъттәсъ бир омбър мътър элльн, бъттәсъ бир омбър мътър кеййн, элльдәгънъ қолъгә ләгәнъ бәр, къйнъдәгънъ қолъгә мълтъг. Мълтъғь, шу, пәнштърәгә охшагән мълтъғ-у, пәнштърәлъгънъйәм әнъғынъ бълмәймән, башқалъгънъйәм некъи. Кечәсъ бәттәр мен өзъмәм, бойнә::, „этъп тәйлә“ дейәнъгә қохтъм-дә. Соғун йолгә сәп қойдъ бъзәрдъ, хъч ъннәмәй йурәсълә, дъдъ, ъннәмәй кетъвурдък учәвъмъз, бәрә-бәрә мен йәнә сорәдъм, съләр өзъ към беләсъләр, буйтъп нымә қыль(в) йурьпсыләр, дъдъм. Ҳә. у-бу деп, бъттәсъ-бъттәсъгә эйттъ-ко, бъзәр чайхәнәгә турәмъз, этлә(р) мънән буғдәйдъ қойып, ше:гә келәсән, дъдъ-дә, у қоллъ, бъзәр кельвурдък Ендъ өзъм бълтъп қойдъм уләрдъ бәсмәчълъгънъ. Екөвънъ ортәсъгә бъзәр учәв(ъ)мъс келәйәптиз, бъттәсъ ләгәнънъ, бъттәсъ мълтъғдъ қолъгә ушләгән, шуйтъп келәйәпти. Кыйын бәрә-бәрә элдъндәгъ, шу ләгәнънъ, ек(к)ъ-уч қарашиб әлльн-әлльн хәйдәп, кыйын қаттық қычәв ҳәйдәп кеттъ. У корыммәй, йох вол кеткәннәйкън соғун мен, у қайа кеттъ, дъдъм. Қой, йурәвур, ышың бомасын, дъдъ. Шу бър джәйгә келувудък, бър йәнәгә, шун(д)әй тәрмәшъп йәнәгә чыгайт(ъ)кән джәйгә, шу, этънъ охшәтъп бър кәмчъ урдъ-дә, шун(д)әй кыйынә қарасәм, шу, ъзыгә бурдъ-йу, бъзә(р)дъ тәйләп өзъйәм со:ллы-кеттъ-дә, қочып кеттъ. Бъзәр ше:гә әрә чолгә қоллък Бър сәккыс қыләмътърләр йол йурувдък, ҳәмрәйләръм, ен(нъ) нымә қыләмъз, бун(д)әй боллъ, у-бу девдъ, хәй, еннъ қайтәйкъ, шу бъзәрдъ буғдәйдъ эгән джәйгә дәвур бәрәйкъ қанъ, қанъ нымә гәб бәр, дъдъм, Әстә-әстә йәнәгъ джәйгә дәвур еннъ пыйәдә бәрдък, бәрсәк байнәгъ, йолдән, бозәрдәң қошългән ҳәмрәймъздъ ешәгъ

бәръдь, бъзәддъкъ әтъдъ екөв(ъ)мъздыкъйәм, унъ ешәгынъ йолдъ устъгә хәләчөкъсынъ шун(д)әйгынә токумыгә суғыпты-дә, әйәгъдәм бәйләп кетъпть. Бъзәрдъ әдләрәм йоғ, ғаллайәм йох, кетъпть. Ҳың ҳысәбъ йоғ еннъ, қе:гә бәрәрьмәздъ бълмәймъз, ше:гә йәттың қымылләмәй, бу қан(д)әй болғы еннъ деп. Е(р)тәмънә(н) турдък, карасәк, ҳс:әллъмъзгә бър қышләг бәрәкән, әстә-әстә бәрдък шунә. Е(р)тәмънә(н) шергә бәръп, әдәмләрдъ коръп, шунәй-шунәй, ҳыдж бълмәдък, қымльгынъ тәңъмәдък. Некын шо әгән әдәмләрдъ йүс қышынъ ычъйә босәйәм мен тәңъимән, джудә йәхшъләп белгъләп койдъм, ышқылып көрсәм тәңъимән, дъдъм. Хәй, бъзә(р)дән сорәп-сорәп, шунәйчъ қайгә әллъ, қайгә койдъ, кым әллъ, кымъдъ, деп, еннъ съзәр кетъвърънләр, бъзәр буләрдъ тәпәмъз, әдръсләръздъ койъп кетъиңлә, тошынъ қып, бъз ныма bogәнънъ кыйн хәбәр къләмъз, дъдъләр. Шуйтъп озъ ғалла тә:чъл вәхтъ бүгдәймъздъ әлдъръб, озъмъз бър ольмән көвъдък. Уләрдъ шо қышләфдъ әдәмләрь бъләйкән, кыйн сәлләдләргә хәбәр қып, ошә қалқамънән устъгә бәръб бәсмәчъләрдъ йәткән джәйыгә сәлләдләр бәсъб әгән. Бу учәвъ, шу, ғалла-палла тәвуп кетъръб беръп түрәйкән уләргә, кыйн бъллый. (*Sheva vakillarining guvohlik berishicha, bu sheva avval “dj”lovchi bo ‘lgan*)

Lәтърә

(prof.E.D. Polivanov Turkiston shevasidan yozib olgan)

Esäk, ökiz, tüjä äsrätläşıpti: esäk depti: :"Doslar, men şu dujnaya káp, bir nä:sä körmästin armando ketjappan". Ular soraptı: "Ni:nı körmädiŋ", - depti. Esäk etipti: "Şu vaxxačij bir iissiq nanýinanı qajmaqqqa batırıp jijamadım". Ökiz etipti: "Seniŋ armanıŋ armammi? Meŋ (meniŋ) armanımnı ešit, men şu vaxxačij jaxší iissiqqana şalyam şogra i:čamij ketjappa(n)". Tüjä etädi: "Ekövinpiňäm armanıŋ e:ş nä:sägä turmijdi. Meŋ armanımnı ešitiṇnär. Meŋ (meniŋ) armanım şu vaxxačij jaxší iissiqqana sandalya tot ajayımnı sa::p ořiramastin ketjappa(n)"

Ertək

(prof.E.D. Polivanov Turkiston shevasidan yozib olgan)

Bar əkä, joy əkä, böri bəkəvül əkä, tülki jasavul əkä, čimčiq čaqıňmči əkä. Bir qarya bilä bir qozï bar əkä, jürip-jürip ekevi dostü bopti. Qarya qozičaqqa qarap: "Dostü, dostü, - depti, - qujruýñdin bir čoqit-či", - depti. Qozï: "Tumšuýñ haram. Barıp dajradın juvíp kä", - depti. Qarya daýraya barıpti."Daýra, daýra, beşyń (aslida:*beñ*) suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. Daýra etipti: "Suv berädoyon idišim joq, külaldin barıp közä əkkä", - depti. Qarya külalýa barıpti: "Külalçı əkä, beriň közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij sembz", - depti. Külal: "Tajjar közäm joq, sayçiya barıp say (soz tuproq –A.S.) əkkä", - depti. Qarya sayçiya barıpti. "Sayçi əkä, beriň say, apparıj külal, qisın közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. Sayçi: "Kijik şax(mügüz) əkkä", - depti. Qarya kijikcigä barıpti. "Kijikçi əkä, beriň şax, alij say, apparıj külal, qisın közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. Kijikçi etipti: "Kijiklär süjt išmäsä, şax bemijdi, süjtçidin barıp süjt əkkä", - depti. Süjtçi: "Sigirlär pičän jemäsä, süjt bemijdi", - depti. Qarya pıčançigä barıpti: "Pičançı əkä, beriň pičän, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin şax, alij say, apparıj külal, qisın közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. Pičançı etipti: "Oraq joq, oraq əkkä, orıp perämä", - depti. Qarya oraqçiya barıpti: "Oraqçi əkä, beriň oraq, alij pičän, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin şax, alij say, apparıj külal, qisın közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. "Tajjar oraq joq, kömircidin barıp kömir əkkä", - depti. Qarya kömirçigä barıpti: "Kömirçi əkä, beriň kömir, apparıj usta, qisın oraq, alij pičän, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin şax, alij say, apparıj külal, qisın közä, alij suv, juvíj tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz", - depti. Kömirçi bir xalta kömir bepti. Kömirin içidä bir dana čoq bar əkä, kömirni qarya arqalap barapqan əkä, halıy়i čoqtün kömir ot ap ketip, qarya küpip ölip qapti.

O'g'uz lahjası Urganch shevası

Гүррәң

Мән он сәккъз йа:шымда қой бақарәдьм. Атам қассапчылық әтәр әдъ. Мән қой бақмақа бър геткәннән ^{вон-}ом беш гүндә бър гәләрәдьм. Бър гүн гәсәм, бъзләнъ еләтнъ ақсаққалынъ йыпәкънъ ^{вон-}огъллаптыла. Бу ақсаққалынъ Мәтмърат ақсаққал дәрәдълә. Бу адам жаммапчылық(түкувчилик) әтәрәдъ. Бу ^{вон-}огъллаңдан йыпәкънъ мәнъ мойнъма ташадъла. Қой бақыштан гәлйәнәдьм, бу йыпәк мән гәмәстән үч гүм бурын ^{вон-}огъллаңдан; Бър гүнъ гешлькә гәльп, ^{вон-}огъллап гетть, дәп тө:мәт ташадъла. Мәнъ атам ^{вон-}ула вълән урышты, болмадь. Соң йанқъ ақсаққал йанына бър тода байлань алъп, хана арз әтмәкә барыптыла. Хан мәнъ чақыртърдь. Мәнъ иккъ пашшап(миршаб) алъб гътть. Мәннән: “Йыпәкънъ қачан алдың, нешәтъп алдың”, - дәп сорадъла. мән ҳәммә вақыйанъ сөлләп пәрдым. Қачан қой бақыштан гәлйәнъмънъ, бу гәпләдән хаварым йоқлықънъ айттым. Хан маңа йи:рмә тазий урышын буйырдь. Мәнъ уръп зындана ташадъла. үч гүннән соң мәнъ қа:зыға қоштыла. Қа:зыға Мәтмърат ақсаққаллам бардь. қа:зы бъзләдән вақыйанъ сорадь. мән ҳәммәсънъ айтъп болғанинан соң: “Шу айтқалларың рас воса, ант иш”, - дәдъ. Мән ант иштъм. ақсаққалам ҳәммә гәпләнъ сөлләп: “Шу бала йыпәкънъ ^{вон-}огълладь”, - дәдъ. Қа:зы ^{вон-}унъ сөзънъ куватладь. Маңа қарап қа:зы: “Йыпәкънъ не:рә гъзләдъң, алғанда йа:нында бърәв ба:мәдь?” - дәп сорадь. Мән айттым: “Иби, - дәдъм, - мән йыпәкънъ ^{вон-}огълламадым, - дәдъм, - мәнъ ^{вон-}өзъм ә:р вақыттан ^{вон-}өй йа:на бър гәльп гитәмән, мән гәсәм, йыпәкънъ ^{вон-}огъллаңданына үч гүн bogan әкән, йәнә мән ^{вон-}унъ към бълән ^{вон-}огъллыйман?” - дәдъм. Қа:зы мәнъ гәпъмә кулақ салмада:м, маңа: “Қырк тълла төлъисән”, - дәп ҳекүм чықардь. Шүндәтъп, атам бар дунйасынъ сатып, зо:рдан қырк тълла төләп, мәнъ күтқарып алвәдъ (Хива шаҳари).

Әртәк

Бър варәкән, бър йоғәкән, бър пашишанъ Айзада дъйән қы:зы варәкән. бър гүнъ Айзада атасы вълән шэтрәнч ^{вон-}ойнайды, атасынъ утадь. атасына иззә вәръп: “^{вон-}өйнъ ^{вон-}өй етәдаганам хатын, ^{вон-}өйнъ йок.

этэдаганам хатын”, - дыйдь. вуннан соң, атасы: “Йенә өйнүймъз”, - дыйдь. Йенә:м өйнүйдьла. Айзада йенә өйнап, атасын утадь, үчүнжү мэртэ өйнағанда:м шуннъин боладь. Айзада йенә атасына иззә вәрьп: “өйнъ өй этэдаганам хатын, өйнъ йок этэдаганам хатын”, - дыйдь. Айзаданы атасы уйалып чықп гетэдь. Пашиша қы:зынь сөзинэ дым қа:рь гелэдъдағын, сарайна варып: “Жалладла, барьн, қы:зымни өлдърьц”, - дыйдь. Пашишань бър да:на вәзи:рь варәкән, шу вәзи:рь: “Пашшайм, бългээн бъльп сөллыйдь, бълмэйэн гүлъп сөллыйдь, навчун өлдърэмъс, сөвәпънъ айтъц!” - дыйдь. Пашиша боған гәпни айтадь. Да:на вәзи:рь: “вунныйм болса, өз қы:зыңызны өлдърьп нэтәсэз, өлдърмийн бър да:ва:наға бәрэмъс, жазасын тартып йүртйвәрсын”, - дыйдь.

Шуннан соң қы:зынь чөллүкә чықарадьла. чөлдэ Мэткеръм дейән бър кәмма:л йандақ чапып йүрйәнәкән. Вәзи:р Мэткәримни қычырадь, Мэткәрим вәзи:рнъ йа:нъна гелэдь. Соң: “Сана иншу қы:зын бәрәмән, алассаммъ?” - дыйдь. Мэткәрим: “Йо:қ, маңа хатын гәрәкмъйдь!” - дәп қалтырыйдь. Вәзи:р: “Алмасан, сәнъ өлдърэмән!” - дыйдь. Шуннан соң Мэткәрим: “Йахшы, аламан”, - дыйдь. Вәзир қы:зынь Мэткәримни өйнә ташап, соң қайтып гүтәдьлә.

Айзада тайха тъкындә дүнийда бърынжү әкән. Айзада тайха тъкедь, Мэткәрим ба:зара аппарып сатып гелэдь. Шуннин әтүп, иккъсъ ге:джәнъ-ге:джә дәмъин, гүннізни гүнніз дәмъин, и:шләп, йахшы волъп гүтәдьлә, өйлә салып аладьла.

Быр гүнъ Айзада атасын чакырьп. улль зыйапат вәрәдь. зыйапатта шэтрәнч өйнүйдьла. Пашиша ҳәммән утадь. соң Айзада эрънъ гыйтъмынъ гыйтъп, пашиша вълән шэтрәнч өйнүйдь. атасын утадь. Соң иззә вәрәдь: “өйнъ өй этэдаганам хатын, өйнъ йок этэдаганам хатын”, - дыйдь. Соң Айзада башындағы чөгърмәнъ чықарадь. пашиша караса, өзънъ қы:зы. Соң пашиша улль той әтэдь. пащшальқынъ қы:зына вәрәдь, мұрат - маҳсатларына йетәдьлә. (*Urganch tumani, Chakka sholikor qishlog'i*).

Gurlan shevasi

Тойға кәгәндә ...

Гүлләндә бър мәртәдә:м боғаммасыз? Бомаган босаңыз тыңлан. Мән съзарә кычкәнә Гүллән туврьсында сөлләп пәрәмән. Азан мънән

турдьк-та, ахшам Самарқа:ттаң көгән жорам Асқар мънән (әрмъйәде бъргә бовь:дьк) чай ъчып бол, машина отырдьк.

Рұстем:тың тойна кәғән әкән. Асқардың ылтымас мънән аваль Гүлләнә барып, осын тойға баратавған болдық. Ина бу, қалхазымъздың бағы Асқардың ҳавас мънән алтындей таванып дуран еръкләрінә, шахларь сыны:н дәп дуран алмаларына қарап къятарьғанын көрьп, тушынтырмаса қарадым.

-Зор-ку,- дәдь Асқар, - Самарқа:тың бағларына, охши:дәкән.

- Шуның учунам буруннарь қарылар “Кәрләң “ дәсәләр, и:ндъ-Гүллән, –дыйдәдә, ырастанам, йахшь боватыр ҳазырларь. Ҳәммә джайда курлыш.

Асқар мънән кәйп этып қыдьрдьк. Сува тушетавған көлә бардық. Ҳәзәттың қайыққа мъндық. Кармақ курдық, лыйкын ҳәммә- ҳәммәдә:м бальқ тутавърмъидь-дә... Бага барышты, къиңога кърыш, ындыйскый къино боватыр әкән, тойдан соңға қалдьрдық.. Ахър, тойа гәч бол гүттө. Барсақ, той ҳаль башламапты. Рұстем:тың кәйп зор. Бүгүн ахър йазувчы Сәйд Әхмәд айтқаныдай, “тәччынтың бақырганьда:м сърнайдың навасынды” йахшь ғөрән кы:зының тойь боватырса, унда кәйп бомай, къымдә босын, әкәвъе:м доктур.

Доктърчылъкта Самарқа:тта охъған. У бу ъшләрдь қылъп, мыйман гүттөп, гәлинъң гәлгәнънә:м бүлмәппән. Бъзәрдә мыйманларга гәбінчә йашлар хъзмат этәдь. Бър мә:ль гелиндь йеңғыл машинаң чушърән қы:злар йа:р-я:р айтмаға қарады. Қы:злар гәлинъң атыннан къйәвә гүл гәлтърдь. Әртъсләр ойынға чушть. Башлань «тойлар мубарәк». Тойларымъздың бър қызығы бардь-да. Асқар дым ҳайран болды. Бәлкъем Самарқа:ттың тойларын. Тойда Асқарды ҳайран қалдьрган нәрсә гәлин намыннан салам айтыв, йығылладән сұзълышып “Белбав чечыш “. Асқардың тойдан дым вахты хош бол қайтты. Ахыр, ғонъ Гүлләнъң әдәтләръ дым ҳайран қалдьрыпты-да, әртәсънә ҳәнә Гүлләнә бардық. Гүлләндың қыдьрғавсын дайра бойына бардық, ышқыльп, Асқарды той ба:на қыдьртърдым. Бъзәрдән вахты хош бол кетсә bogань. Йақында Асқардан хат алдым. Йазда ҳәнә бараман дәпть.

Xorazm xalq qo'shiqlaridan
Айақымда зәрль көвъш қадақль,
Деймә бала, мән бърәвә адақль,
Гүндә бары:н дәсәм, и:зъм соракль,
Ахшам бары:н дәсәм, айла қараңь.

Namaşšamnan čiqliq ajla batmayaj,
Šul jarıma gälän davlat qajtmaqaj.
Gälmi:n-gälmi:n bir gälipsis tojıma,
Doqqis aqşamyşa daňla atmaqaj.

Ә:нъндә джемпърь дар әкән,
^Өзъ хош пъчъмль йар әкән,
Аркасыннан ыхлас мънән қарасам,
Бабамъзың айтқаньча бар әкән.

Üsäkiñnän käptär ^učip ötmägäj,
Männän başqa jara könlinq gitmägäj.
Männän başqa jara könlinq gitändä,
Tapqan jarıñ ^uč aptaya jetmägäj.

Kästimini kim piçipti dar ätip,
Aya bilä sölläšmi:sän har ätip,
Sölläšmäsä, sölläšmäsin har ätip,
Män gitämäln qadamïma zar ätip.

Qipchoq lahjası
Samarqand viloyati "дж"lovchi shevalaridan namuna
(Qulota qishlog'i)

Айт-айт Кәръм, қалқа айт, айт, айтқан қалар.
Чулдъраған тълъндъ қатқа салар.
Бул дунийада "ойнаған, күлгән қалар.
Ардақлаған джаныңың ақър алар.

^вӨлән қайдан чығадь сөз бомаса,
Кым джетәләп джүрәдъ көз бомаса,
Адамзаттың бекәпән көмәрәкән,
Сарт тоқыған сарала без бомаса.

Аргымактың балась ҳарымайды,
Дәрь дыйдъ джүрәккә сарымайды,
Джахшыға айтқан сөзин дасмайды,
Джаманга айтқан сөзин парымайды.

Бешть бешкә қоссаңнар ^вом болады < ўн бўлади,
^вОн тоқлынъ теръст том болады, <тўн бўлади.
Джыгъуттъ алған йаръ джақшы боса,
Бър мурагъка джеткэнъ шо(л) боладъ.

Тойға мънъп келгәнъм джыйрән чьбар,
Кой- қойдагъ құвмақ сөз бъидән чығар,
Джыгъуттъ алған йаръ джақшы боса,
Тал чыбықтай буралып үйдән чығар.

Аргымактың балась ҳарымайды,
Дәрь дыйдъ джүрәккә сарымайды,
Джыгъуттъ алған йаръ джақшы боса,
Йеки женъ сирәйәм тозымайды.

Тойға мънъп келгәнъм қурагай көк,
Авдарылъп чапаман айъльм берк.
Қызды көргән джеръмдә қылғым көп,
Кымъз сорап ъчәмән сувсадым деп.

Тойға мънъп келгәнмән чыбарымдь.
Чыбарымға таққамман томарымдь,
Беш, алты авыз сөзим басып айссам,
Тарқатар тәмәкъдәй қумарымдь.

Той-той базар, той базар боса бүгън,
Уй айлана кумар көз конса бүгън,
Джақшылар қызыл гулдәй толса бүгън,
Джаманнар джапрак болып солса бүгън.

Bekobod Eski ovul qishlog'i shevasi

Hämmä žaqta saratan qızıp ždkatır. U aptabustan čüšip kettä žoldan šä::rčägä qarap žürä baştadı. Žol žayasında paxta egilgän edi. U birdän paxtazarya qarap burıldı. Är bir tüp paxta xuttı "oyan ijilip salam beräžatqandaj edi. Baražatıp uzaqta kötärilgän chaŋ-tozandı körip qaladı. Bu chaŋ-tozan "oyan qarap keläberädi, qarasa, bir mašın tola qızlar keläzatır. "Olar avazlarıniň bariča ašula ajtılıp kelädi. O mašın "ötip ketkänčä qarap turdı. Kaj jänä ketä baştadı. "Onlıň əslı atı Qoşqar. Näkin "ortaqlarıň äzilläşip Shajır dijdi. Shajır degänčäjäm bar. O är zaman - är zamanda şeräm žazıp turadi. Qoşqar keş baqqanda üjigä žetip aldi, üjigä kırıp apası äpkägän avqattan azyana žep, därväv žatıp qaldı. O židä čarçayg'an edi. Bügün o qanča žol žürdü, axır.

Tamahrin qishlog'i shevasi

(Xatirchi tumani).

Туврь бълэн Ейръ

Қадым заманда бър қышлақта бър джыгът баракан. "Онь ать Туврьбайакан. "Онь бъттәгънә аррық атъдан башқа ҳеш нерсәсъ джогақан. Барьп-барып қышлақта ыш қамапты, шоннан соң о атынъ мынъп мәрдъкәр ышләшкә кетъпты. О атты мынъп джол джүрьпты, джол джүрсәйәм, мол джүрьпты Джолда уңа бър пъйәдә кыশ джолдаш болты. "Кайға бараджатырсан?" - дептэ Туврьбай."Мәрдъкәрчылъкка," - дептэ халығъ адам. Туврьбай "онъ атынъ сораса, уңа Ейрьбай дев айттыпты. О йам Туврьбайды атынъ сорав ағандан кей айттыпты: "Екәвъмъздъ атымъз джъдә масақан, ке, джора боламъс", - дептэ. Туврьбай "оның пъйәдә джүргәнъгә рә:мъ кеб, уна атынъ бергәнәкән, о боса атты мынъп бър хамчы урып, джәнәп қанты. Туврьбай нымә қыльшынъ былмәй кетъверъпты. Бър орманға джетъп өрда бър тандырга көзъ чушыпты. "Ке, қараңыда джүргәнчә, шо тандырды ъчыға кыръп джатай", - дептэ. Бу джәй хайавандардың бәэм

қылатьрган джәйкән, арслан пащшайақан, о өоннъдан турып мейльстъ башлапты. О гәптерп bogannan кей, түлкъ дастан башлапты: “Шо орманды арқасыда бър гар бар. Мен шо гарда тураман. О джердә корпә-төшәктәр, авқаттар, ҳәммәсъ бар.” Өннан кей шағал гәб башлапты: “Мен турайтқан джердә бър чычкам бар. Өнь қыхта тъллась бар, әр күнъ о шо тъллаларың аптапқа апчығып “ойнайдь”. Еннъ навват айыққа кепті: “Шо ворманда бър дарах бар. Өнь ектә шахъ бар. О кәб дәрдкә дуа. Шул мәмләкәтті пашшасыңың қызы кәб джылдан беръ кәсәл боб джатыпты. Шо беркәләрдъ към шашшаның қызыға берсә, о тузәлъп кетәдъ”. Айықтан соң бөръ гәб башлапты: “Шо ворманды нарьджагъда бър байдың қыз мың қойы бар, мен шо қойлардан әр куни ектәсънъ джыймән. шо арада бър бавайдың бър күчтүгъ бар. әгәр шо күчүхті бай аса, менъ шо күчүх қойларға қоймайды.” Шо гәбләрдъ Тувръбай ҳәммәсънъ ештәпти. Шо арада күн чығыпты. Тувръбай аввал тувръ түлкъ айтқан гарға барыпты, өрдәкъ авқаттардан джептъ-дағын, пъчъ дәм апты. Соң шағал айтқан тевәгә карап кетыпты. Өрдә чычқанды тавупты, өнь өлдъръп, къх тълласынъ апты. Соң байдың алдыға барып, унға: “Қойларыңысть сақлап қасам нымә берәс”, - депті. “Қыхта кой берәмән,”- депті бай. Тувръбай тувръ бөръ айтқан бавайдың алдыға барып, өнь күчтүгънъ сатывапты. Шоннан соң қойлар бөрьдән кутулыпты. Кей(ын) Тувръбай шәргә барыпты. Өрдә пашшаның сарайыға барып, өзинъ пашшаның қызынъ түзәтшынъ айттыпты. Өнь пашшаның сарайыға кърттыпты. Тувръбай пашшаның қызыға айығ айтқан бәркть езъп перъпты. Қыз өн күндә түзәлъпты. Пашша хурсән бол қызынъ Тувръбайға беръпты. Бър джейгә уна үй курып перъпты.

Қүннәрдән бър күн о Ейръбайдың көръп қапты. О Ейръбайдың үйъга көргөзъп мәхман қыпты. Ейръбай бу байлық мәнән ҳүрмәткә қандай джеткәнненъ сорапты. Тувръбай унға боган вакыттарда айттып перъпты. Ейръбайам тувръ барып шо тандырға көръп джатыпты. Кеч боганнан соң ҳәммә ҳайваннар джыйльпты. ҳәммәсъ ышләръ чәппә кеткәнненъ айттыпты. Шовақ бър чымчық учып кептъ-дә: “Чақымчы тандырда,”-деп қычырпты. Ҳәммә ҳайваннар тандырға қарап джүгүрпты. Өрдәкъ Ейръбайдың көръп, өнъ гаджып ташлапты. Шуннай қып Тувръбай мурат-махсатыға джеттыпты.

O'zbek dialektologiyasidan test topshiriqlari.

1. O'zbek dialektologiyasining predmetini aniqlang:

- A. O'zbek shevalarini o'rganadi.
- B. O'zbek dialektlarini o'rganadi.
- D. O'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan shevalarni o'rganadi.
- E. O'zbek tilidagi sheva, dialect va lahjalarni o'rganadi.
- F. O'zbek lahjalarini o'rganadi.

2. Lingistik geografiya nima?

- A. Shevalarning leksikasini yozma ravishda o'rganadi.
- B. Shevaga xos xususiyatlarni o'rganadi.
- D. Shevaga xos xususiyatlarni kartada aks ettirish orqali o'rganadi.
- E. Shevaning fonetik xususiyatlarini rasmlarda belgilaydi.
- F. Shevaning grammatick xususiyatlarinigina xarita orsali o'rganadi.

3. "Transkripsiya" so'zining ma'nosi nima?

- A. Bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o'tish.
- B. Yozuvda tovushlarni aniq ifodalash.
- D. Harflarning o'qilishini ta'minlash.
- E. Harf va tovush munosabatini belgilash.
- F. Qayta yozish.

4. a,e unlilari tavsisi to'g'ri aks etgan qatorni toping.

- A. Old qator, yuqori-tor.
- B. Old qator, lablangan.
- D. Old qator, quyi-keng.
- E. Old qator, lablanmagan.
- F. Old qator, o'rta-keng.

5. Chig'atoy, o'g'uz, qipchoq lahjalari qaysi olim tasnifida tilga olingan?

- A. Polivanov Y. D.
- B. Reshetov V. V.
- D. Borovkov A. K.
- E. Yudaxin K. K.
- F. Yunusov G.O.

6. Labial singarmonizmning tavsifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A. So‘zdagi unlilarning old qator va lablanganlik darajasiga ko‘ra uyg‘unlashuvi.

B. So‘zda lablangan unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlari ko‘ra uyg‘unlashuvi.

D. So‘zdagi old qator lablangan unlilarning uyg‘unlashuvi.

E. So‘zdagi orqa qator lablangan unlilarning uyg‘unlashuvi.

F. So‘zdagi lablangan unlilarning uyg‘unlashuvi.

7. Tovush mosligi mavjud so‘zlar qatorini belgilang.

A. terək, terəgъ

B. oraq, orag‘ъ

D. toppъ, dopръ

E. ketdъ, kettъ

F. yog‘мъг, yamg‘ъг

8. Qaysi dialektlarda o‘rin-payt, chiqish kelishiklari va egalik affikslari orasida “n” undoshi orttiriladi?

A. Toshkent, Samarqand.

B. Xorazm, Samarqand.

C. Xorazm, Forish.

D. Xorazm, Shahrисабз.

E. Xorazm, Sariosiyo.

9. Toshkent shevasida -lar affaksi qaysi turkum so‘zlariga qo‘shilib hurmat ma’nosini ifoda qiladi:

A. Faqat otlarga.

B. Faqat fe’llarga.

C. Ham otlarga, ham fe’llarga.

D. Ham otlarga, ham sifatlarga.

E. Ham sifatlarga, ham fe’llarga.

10. Toshkent va Samarqand shevalari qaysi unlining qo‘llanish-qo‘llanmasligiga ko‘ra farq qiladi?

A. e va ɔ

B. a va ɔ

C. a va e

D. Ҷ va e

E. ё va ө

11. Sheva deb:

- A. O'zbek tilining kichik territoriyasiga oid qismiga aytildi.
- B. O'zbek tilining o'ziga xos leksik xususiyatlariga oid bir qismiga aytildi.
- C. O'zbek tilining o'ziga xos fonetik va grammatic xususiyatiga ega bo'lgan qismiga aytildi.
- D. Sheva territorial tildir.
- E. O'zbek tilining leksik fonetik va grammatic xususiyatlariga ega bo'lgan kichik qismiga aytildi.

12. O'zbek adabiy tiliga berilgan to'liq ta'rifni aniqlang:

- A. O'zbek adabiy tili asrlar davomida bir qolipga tushgan, silliqlashgan tildir.
- B. O'zbek adabiy tili milliy tilning yuqori bosqichi bo'lib, so'z san'atkorlari tomonidan sayqal berilgan, bir qolipga solingan tildir.
- C. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan barqaror, fonetik va morfologik jihatdan bir qolipga solingan milliy tilning yuqori bosqichidir.
- D. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, me'yorlashgan tildir.
- E. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatic jihatdan bir qolipga solingan, so'z ustalari tomonidan silliqlangan tildir.

13. Fonetik transkripciyaga berilgan ta'rifni belgilang:

- A. Tarixiy yodnomalardagi matnlarni talaffuz qilish normalarini belgilab beruvchi yozuv sistemasidir.
- B. Fonemaning variatsiyalari va variantlari bo'lgan konkret nutq tovushlarini yozib olishda qo'llanadigan yozuv sistemasidir.
- C. Fonemalarning to'g'ri talaffuzini ta'minlovchi yozuv sistemasidir.
- D. To'g'ri talaffuz normalarini aks ettiruvchi harflar yig'indisidir.
- E. To'g'ri yozish va talaffuz qilishga xizmat qiladigan belgilar sistemasidir.

14. а, ё unlilariga berilgan to'g'ri tavsifni belgilang:

- A. Umumturkiy unlilardir.
- B. Orqa qator unlilardir.

C. Yuqori-tor unlilardir.

D. Barcha shevalarda uchrovchi unlilardir.

E.O'zlashgan unlilardir.

15. Qarlug'-chigil uyg'ur, qipchoq, o'g'uz lahjalari kimning tasnifida aks etgan?

A. Polivanov E. D.

B. Reshetov V. V.

C. Borovkov A. K.

D. Yudaxin K. K.

E. Yunusov G'.O.

16. Umlaut deb:

A. Oldingi bo'g'indagi unliga keyingi bo'g'indagi unlining moslashishiga aytildi.

B. Keyingi bo'g'indagi unlining oldingi bo'g'indagi unliga ta'siriga aytildi.

C. O'zakdagi unlining affiksdagi unliga ta'sirini bildiradi.

D. Affiksdagi unlining o'zakdagi unliga ta'sir etishiga aytildi.

E. Affiksdagi old qator unlining o'zakdagi orqa qator unliga ta'sir etishi va o'z xarakteriga o'xshatib olishiga aytildi.

17. Unli va undoshlar mosligi qanday nomlanadi?

A. Assimilyatsiya.

B. Dissimilyatsiya.

C. Singarmonizm.

D. Spirantizatsiya.

E. Akkomodatsiya.

18. -lyk, -lyg', -ly: affikslari qaysi shevada ko'plik ma'nosini ifodalaydi?

A. Qurama shevalarida.

B. Marg'ilon shevasida.

C. O'sh shevasida.

D. Qorako'l shevasida.

E. Toshkent shevasida.

19. Toshkent dialektiga xos hozirgi zamon fe'l tuslanishini aniqlang.

- A. бўнгоммән
- B. барнатьма(н).
- C. барноммән.
- D. бароттъм.
- E. борыттымен.

20. -семъз affiksi qaysi dialektda va qaysi fe'l shaklini hosil qiladi?

- A. Shimoliy o'zbek shevalarida, I shaxs buyruq-istak shakli.
- B. Toshkent dialektida, I shaxs buyruq-istak shakli.
- C. Toshkent dialekti, I shaxs shart-istak birlik shakli.
- D. Toshkent dialekti, I shaxs aniqlik fe'li shakli.
- E. Toshkent dialekti, I shaxs shart-istak ko'plik shakli.

21. Dialekt deb:

- A. Bir-biriga teng bo'lgan shevalar yig'indisiga aytildi.
- B. Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalarni bildiradi.
- C. Leksik, fonetik va morfologik xususiyatlari yaqin bo'lgan shevalarni birlashtiradi.
- D. Dialektlar asosida shevalar paydo bo'ladi.
- E. Leksik, fonetik va morfologik jihatdan yaqin bo'lgan hamda o'zbek tilining nisbatan kattaroq territoriyasiga oid qismiga aytildi.

22. Adabiy tilning tayanch dialektiga to'g'ri baho berilgan qatorni aniqlang.

- A. Adabiy tilning leksik normalarini tayanch dialect belgilaydi.
- B. Adabiy tilning eng muhim fonetik va morfologik normalari tayanch dialectdan olinadi.
- C. Adabiy til to'laligicha tayanch dialect asosida rivojlanadi.
- D. Adabiy tilning rivojlanishi tamoyillarini tayanch dialect belgilab beradi.
- E. Tayanch dialect adabiy tilning barcha normalarini belgilab beradi.

23. y, ў unlilari tavsifi to'g'ri keltirilgan qatorni toping.

- A. Orqa qator, lablangan.
- B. Old qator lablangan.

- C. Yuqori-tor, lablangan.
- D. Old qator, yuqori-tor.
- E. Old qator, quyi keng.

24. Turk-barlos shevasi qaysi olim tasnifida tilga olinadi?

- A. Polivanov E. D.
- B. Reshetov V. V.
- C. Borovkov A. K.
- D. Yudaxin K. K.
- E. Yunusov G'. O.

25. Ushbu ta'riflardan qaysi biri singarmonizm qonunini to'g'ri ifoda qiladi?

- A. Unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.
- B. Unlilarning old qator va orqa qator hamda lablanish darajasiga ko'ra uyg'unlashuvi.
- C. So'zda dastlabki bo'g'indagi unlining xususiyatiga ko'ra keyingi bo'ginlardagi unlilarning uyg'unlashuvi.
- D. So'zda dastlabki bo'gindagi unlining orqa qator va old qator lablangan va lablanmaganligiga ko'ra keyingi bo'gindagi unlining uygunlashuvi.
- E. So'z o'zagidagi unlining orqa qator va old qator, lablangan va lablanmaganligiga ko'ra affiksdag'i unlilarning uyg'unlashuvi.

26. Kontrast juft unlilar berilgan qatorni toping.

- A. а - ә
- B. ә - е
- C. и - ъ
- D. о - ө
- E. ы - ь

27. Qaysi dialektlarda о'rinc-payt va jo'nalish kelishiklari almashinib qo'llanadi?

- A. Toshkent va Farg'onada.
- B. Qorako'l va Xorazmda.
- C. Samarqand, Toshkent viloyatlarida.
- D. Namangan va Andijonda.

E. Qashqadaryo va Surxondaryoda.

28. O'g'uz lahjasiga xos harakat nomi affiksini aniqlang.

A. - йэр, - мақ

B. -мақ, -мәк

C. -мәк, -ш

D. -в, -мақ

E. -мәк, -ъш

29. Qaratqich kelishigining -иң, -ың, -үң -үң affiksi qaysi shevalarda qo'llaniladi?

A. Barcha shevalarda.

B. Toshkent shevasida.

C. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda.

D. Singormonizmli shevalarda.

E. Qipchoq lahjasasi shevalarida.

30. Qipchoq lahjasini uchun xarakterli bo'lgan harakat nomi affiksini ko'rsating.

A. -мақ

B. -в

C. -мәк

D. -ш

E. -ыш.

31. Lahjaning ta'rifini aniqlang.

A. Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar jamidir.

B. Bir-biriga yaqin bo'lgan dialektlar jamidir.

C. Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan dialektlarni birlashtiradi.

D. Lahja - bu aslida til, sheva ma'nolarini anglatadi.

E. Dialektlarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

32. O'zbek lahjalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A. O'g'uz, qipchoq, Jizzax.

B. O'g'uz, qirg'iz, Qoraqalpoq.

C. O'g'uz, qipchoq, qarluq.

D. O'g'uz, nayman, qarluq.

E. O'g'uz, barlos, qipchoq.

33. o, e unlilari tavsifi qaysi qatorda berilgan:

- A. Quyi-keng, lablangan.
- B. Yuqori-tor lablangan.
- C. O'rtta-keng, old qator.
- D. O'rtta-keng, lablangan.
- E. O'rtta-keng, orqa qator.

34. O'zbek shevalarining rang-barangligini quyidagi omillardan qaysi biri ta'minlagan?

- A. O'zbeklarning etnik xususiyatlari, o'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'limgan tillarning ta'siri.
- B. O'zbeklarning turmush tarzi, o'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'limgan tillarning ta'siri.
- C. O'zbeklarning etnik xususiyatlari va o'zbek tiliga tojik tilining ta'siri.
- D. O'zbek tiliga turkiy tillarning ta'siri.
- E. O'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'limgan tillarning ta'siri.

35. Palatal singarmonizmning to'g'ri javobini belgilang.

- A. So'zda unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.
- B. So'zda unlilarning old qator xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.
- C. So'zda unlilarning moslashganligi xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.
- D. So'zda unlilarning lablanganlik xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.
- E. So'zda unlilarning old qator va orqa qator hamda lablanganlik xususiyatlariga ko'ra uyg'unlashuvi.

36. Ikkilamchi cho'ziq unlilar qanday yuzaga kelgan?

- A. So'zdagi biror unli tovushning tushib qolishi natijasida paydo bo'ladi.
- B. So'zdagi biror undosh tovushning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- C. So'zdagi biror bo'g'inning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- D. So'zdagi urg'u o'rning o'zgarishi bilan yuz beradi.
- E. So'zdagi bo'g'indan birining tarixiy taraqqiyoti natijasidir.

37. Tushum kelishigi qaratqich ma'nosida qaysi shevalarda qo'llanadi?

- A. Toshkent, Shimoliy o'zbek shevalari.
- B. Toshkent, Samarqand.
- C. Toshkent, Qarshi.
- D. Toshkent, Forish.
- E. Toshkent, Namangan.

38. -джан affiksi qaysi dialektda xotin-qizlar ismiga qo'shibil hurmat ma'nosini ifodalaydi?

- A. Toshkent dialektida.
- B. Samarqand dialektida.
- C. Xorazm dialektida.
- D. Qurama shevalarida.
- E. Andijon dialektida.

39. -джәк, -аджақ affikslari qaysi lahjada qo'llanadi?

- A. O'g'uz lahjasida.
- B. Qorako'l shevasida.
- C. O'g'uz, qipchoq lahjalarida.
- D. Qipchoq lahjasida.
- E. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasida.

40. Quyidagilardan qaysi biri lahja emas?

- A. Qarluq.
- B. Qipchoq.
- C. O'g'uz.
- D. Qozoq-nayman.
- E. Qarluq-chigil-uyg'ur.

41. O'zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. O'rta o'zbek.
- B. Janubiy Xorazm.
- C. Qarluq.
- D. Do'rmon.
- E. Jaloyir.

42. O'zbek adabiy tilining tayanch dialektlari ko'rsatilgan qatorni belgilang:

- A. Toshkent, Farg'ona.
- B. Toshkent, Andijon.
- C. Toshkent, Jizzax.
- D. Samarqand, Toshkent.
- E. Farg'ona, Namangan.

43. и, ы unlilari tavsifi to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

- A. Yuqori-tor, lablanmagan.
- B. Quyi-keng, lablanmagan.
- C. Old qator, yuqori-tor.
- D. Orqa qator, yuqori-tor.
- E. Orqa qator, lablangan.

44. Dialektolog olimlarni ko'rsating.

- A. Asqarova M., Shoabdurahmonov Sh., Abdurahmonov G'.
- B. Shoabdurahmonov Sh., Abdullayev F., Ibrohimov S.
- C. Ibrohimov S., Abdullayev F., Hojiyev A.
- D. Abdullayev F., Reshetov V., Abdurahmonov G'.
- E. Shoabdurahmonov Sh., Aliyev A., Rahmatullayev Sh.

45. Birlamchi cho'ziq unlilarning saqlanib qolishi qaysi omilga bog'liq?

- A. Biror unli tovushning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- B. Biror shevaga boshqa shevalarning ta'siri natijasida yuzaga keladi.
- C. Qadimgi turkiy tildagi cho'ziq unlining saqlanib qolishi natijasidir.
- D. Shevaning biror tarixiy taraqqiyoti davrida paydo bo'lgan.
- E. Shevaga boshqa turkiy tillarning ta'siri natijasida paydo bo'lgan.

46. O'zbek shevalarida kelishiklarning eng kam miqdori va qaysi dialektlarda qayd qilinadi?

- A. Sta, Toshkent va Farg'onada.
- B. Sta, Jizzax va Samarqand.
- C. 4ta, Qipchoq va o'g'uz lahjasи dialektlarida.
- D. 4ta, Surxondaryo va Buxoroda.
- E. 4ta, Jizzax va Andijonda.

47. -lar/lər ko'plik affaksi qaysi shevalarda qo'llaniladi?

- A. Toshkent shevasida.
- B. Buxoro o'zbek shevalarida.
- C. Umlaut qonunini saqlagan shevalarda.
- D. Singarmonizm qonunini saqlagan shevalarda.
- E. Assimilatsiya qonunini saqlagan shevalarda.

48. -cha affaksi qaysi shevalarda erkalash, kichraytirish, ma'nosini ifodalashda qo'llanmaydi?

- A. Shimoliy o'zbek shevalarida.
- B. Farg'ona dialekti shevalarida.
- C. Surxondaryo dialektida.
- D. Jizzax dialektida.
- E. Toshkent dialektida.

49. Qaysi qatorda egalik affikslari variantlari qo'llangan?

- A. -ъм, -сь
- B. -ъм, -дъ
- C. -ън, -съз
- D. -ъ, -к
- E. -тъз, -дър

50. и (ng) undoshi to'g'ri tavsifi berilgan qatorni toping.

- A. Til oldi, portlovchi.
- B. Til orqa, qorishiq portlovchi.
- C. Til oldi, sirg'aluvchi.
- D. Til orqa, portlovchi-sirg'lauvchi.
- E. Til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi.

51. Бэрвyz fe'li qaysi dialektda qo'llanadi va qanday fe'l shakli?

- A. Toshkent dialektida, I shaxs aniqlik mayli ko'plik shakli.
- B. Toshkent dialekti, I shaxs aniqlik mayli jamlik shakli.
- C. Toshkent dialekti, I shaxs aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon shakli.
- D. Jizzax dialektda I shaxs aniqlik mayli, hozirgi kelasi zamon ko'plik shakli.
- E. Toshkent dialektda, I shaxs aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon, ko'plik shakli.

52. Dialektal leksika deganda nimani tushunasiz?

- A. Faqat muayyan shevaga xos bo‘lgan so‘zlar.
- B. Bir guruh shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar.
- C. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan so‘zlar.
- D. Biror shevaga xos bo‘lgan barcha so‘zlar yig‘indisi.
- E. Barcha shevalarda uchraydigan so‘zlar.

53. Transliteratsiya nima?

- A. Shevalarni yozib olishda qo‘llanadigan yozuv tizimi.
- B. Bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o‘girish.
- C. Matnlarni qayta yozib chiqish.
- D. Tovushlarni aniq belgilovchi harflar tizimi.
- E. Talaffuz me'yorlarini belgilab beruvchi yozuv.

54. O‘zbek shevalarida unlilar miqdori to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

- A. 7-8 ta.
- B. 6-13 ta.
- C. 5-13 ta.
- D. 9-10 ta.
- E. 6-12 ta.

55. -ler/lar affiksi qaysi lahjada hurmat ma'nosini ifodalashda qo‘llanmaydi?

- A. Shimoliy o‘zbek shevalarida.
- B. O‘g‘uz lahjasida.
- C. Qipchoq lahjasida
- D. O‘rta o‘zbek dialektida.
- E. Qarluq lahjasida.

56. “H” undoshi qo‘llanmaydigan shevani ko‘rsating:

- A. Toshkent.
- B. Sayram.
- C. Turkiston.
- D. Xorazm.
- E. Buxoro.

57. Assimilyatsiyaga uchragan tovushli so‘zni toping:

- A. Məmləkət-məlməkət

- B. Doppъ-topръ
- C. Dәptәr-dәptәrrъ
- D. O'g'ыл-o'g'ылъ
- E. Dynйэ-dүйнэ

58. O'zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Samarqand.
- B. Qipchoq.
- C. Xorazm.
- D. Buxoro.
- E. Marg'ilon.

59. O'zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Toshkent.
- B. O'g'uz.
- C. Nayman.
- D. Jaloyir.
- E. Baxmal.

60. Fonematisk transkripsiya nima?

- A. Konkret nutq tovushlarining talaffuzini aks ettiruvchi yozuv.
- B. Tarixiy obidalar matni talaffuzini belgilovchi yozuv.
- C. Fonemalarning talaffuzini aks ettiruvchi yozuv
- D. Fonemalarni ifodalovchi yozuv.
- E. Fonemalarni ajratuvchi belgi.

61. Unilarning uchlamchi cho'ziqligi qaysi dialektda yorqinroq ko'rindi?

- A. Namangan shahar dialectida.
- B. Namangan atrof shevalarida.
- C. O'sh dialectida.
- D. Andijon dialectida.
- E. Farg'ona dialectida.

62. Tasdiq ifodalovchi "hava" so'zi qaysi shevalarda uchraydi?

- A. Sariosiyo shevasida.
- B. Xorazm shevalarida.
- C. Qarshi shevasida.
- D. Forish shevasida.

E. Iqon shevasida.

63. Qorabuloq shevasi V.V.Reshetov tasnifi bo'yicha qaysi lahjaga kiradi?

- A. O'g'uz
- B. Qipchoq
- C. O'g'uz, qipchoq
- D. Shimoliy o'zbek
- E. Qarluq, o'g'uz.

64. So'z boshida "k" undoshi qaysi lahja shevalarida "g" undoshiga almashadi:

- A. Iqon shevasida
- B. Qorabuloq shevasida
- C. Xorazm shevalarida
- D. Forish shevasida
- E. Turkiston shevasida

65. "Shayboniy-o'zbek dialekti" deb nomlangan shevalar guruhi qaysi olimning tasnifida aks etgan?

- A. Reshetov V. V.
- B. Yudaxin K. K.
- C. Yunusov G'. O.
- D. Borovkov A. K.
- E. Polivanov E. D.

66. "эйъмгылә" so'z shakli Toshkent shevasida:

- A. Faqat oyisini bildiradi va hurmat ma'nosini anglatadi
- B. Oyisi va singlisini bildiradi
- C. Oila a'zolarining barchasini bildiradi va hurmat ifodalaydi
- D. Otasi va onasini anglatadi va hurmat bildiradi.
- E. Otasi-onasi va qarindoshlarini bildiradi va hurmat ifodalaydi

67. So'z boshida "й" o'rniда "дж" ishlataliganlar qaysi lahja vakillari?

- A. Qarluq, qipchoq
- B. O'g'uz, qipchoq
- C. O'g'uz
- D. Qipchoq

E. Qarluq

68. Prof. E.D. Polivanov va V.V. Reshetovlarning o‘zbek shevalari tasnifida farqlanadigan asosiy atamalar qaysilar?

- A. Qarluq-chigil uyg‘ur, chig‘atoy
- B. Qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq
- C. Qipchoq, chig‘atoy
- D. Chig‘atoy, o‘g‘uz
- E. Qipchoq, o‘g‘uz

69. “Diftong”ga berilgan aniq javobni belgilang.

- A. Unlilarning cho‘ziq talaffuzi
- B. So‘z boshida unlilar oldida artikulyatsiyasi yaqin bo‘lgan unli va undoshlarning orttirilishi
- C. So‘z boshida unlilarning ikkilanishi.
- D. So‘z boshida unlidan oldin undoshlarning orttirilishi.
- E. So‘z boshida unlining qisqa talaffuz qilinishi.

70. Lablangan unlilar qatorini toping.

- A. ә, ү
- B. а, у
- C. у, и
- D. о, у
- E. а, ъ

71. Lablanmagan unlilar qatorini toping.

- A. о, ә
- B. о, е
- C. ү, и
- D. о, у
- E. а, ъ

72. Shevalardagi hozirgi zamon davom fe’li hosil qiluvchi affiksler qatorini toping.

- A. -дък, -дъқ
- B. -asan, -аджақ
- C. -эр, -вот
- D. -гәннән, -ъбтән
- E. -алъ, -әсъ

73. Xorazm shevalarida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligiga xos shaklini belgilang.

- A. baraiyq
- B. bægъly
- C. baralъ
- D. borəйlъk
- E. bærsъn

74. Tovush mosligi mavjud bo‘lmagan qatorni belgilang.

- A. йег-джег
- B. dedъ-dadъ
- C. teptъ-dabъtъ
- D. kel-gel
- E. bor-ber

75. Qaysi tovush so‘z boshida qo‘llanmaydi?

- A. p
- B. f
- C. n
- D. sh
- E. l

“O’ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANIDAN O’QUV AMALIYOTI TOPSHIRIQLARI

“O’zbek dialektologiyasi” kursi bo‘yicha standart talablarga ko‘ra sheva ateriallarini to‘plashni ko‘zlagan o‘quv amaliyoti o‘tkaziladi. Bu amaliyotdan maqsad talabalarning mayyan bir sheva vakili bilan jonli muloqotga kirishib, undan shu shevaga xos bo‘lgan xususiyatlarni yozib olish va shu orqali o‘zbek shevalari to‘g‘risidagi bilimini mukammallashtirishdir. Bunda har bir amaliyotga chiqqan talaba oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollarga javob olish bilan birga, savol-javob jarayonida ma'lum bir voqeani, xalq og‘zaki ijodi namunalarini aytish jarayonida betakror (orginal) til faktlarini ilg‘ab olishga ko‘proq ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. O‘quv amaliyotiga chiqishdan oldin, albatta, uning ilmiy rahbari talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan hamda zamonaviy texnika bilan qurollantirishi va tegishli maslahatlar berishi lozim bo‘ladi.

O‘quv amaliyotini amalga oshirish shakllari:

1. Ilmiy rahbar boshchiligidagi 12-13ta, yoki guruh talabalarining yalpi biron tuman yoki qishloqqa borib, o‘sha joyning sheva vakillaridan material to‘plash. Amaliyotning bu turi dialektologik ekspeditsiya ham deyiladi. Iqtisod va sharoit taqozo qilsa, bu amaliyot samarali shakl hisoblanadi, chunki talabalarda bir-biridan o‘rganish imkoniyati bo‘ladi. Bu amaliyot natijalariga ko‘ra talaba hisobot yozadi va u o‘rnatalgan tartiblarda guruh rahbari tomonidan baholanadi.

2. Ilmiy rahbarning ishlab chiqqan rejasi asosida talaba individual tarzda savolnomadagi vazifalarga o‘z shevasi yoki ilmiy rahbar belgilagan sheva bo‘yicha material to‘plab keladi va uni referat shakliga keltiradi. Bu referat rahbar tomonidan tekshirilib, o‘rnatalgan tartiblarda baholanadi.

O‘quv amaliyotiga talaba portativ magnitofon, imkoniyati bo‘lsa vidиokamera bilan chiqishi maqsadga muvofiqdir. Talaba dialektologik amaliyotga chiqishdan oldin quyidagi namunada dastur (lekin bu dastur ijodiy rivojlantirilishi va tegishlicha o‘zgartirilishi mumkin):

1. Shevasi o‘rganilayotgan aholining yashash joyi haqida umumiylar ma'lumot, aholining milliy tarkibi, ularda o‘zbeklarning nisbiy miqdori,

aholi punkti atrofidagi sheva vakillari, boshqa millat vakillari haqida ma'lumot. Sheva vakillarining kasb-kori.

2. Shevaning o'zbek shevalari tasnidagi o'rni.

3. Shevada **a**, **ɔ** unlilarining qo'llanilishi.

4. Singarmonizmning qaysi turi shevada qo'llaniladi: a) palatal singarmonizm saqlangan so'z va grammatik shakllar qatnashgan ikki jumla yozing; b) labial singarmonizm elementlarini saqlagan so'z shakllaridan beshta misol yozing.

5. Birlamchi va ikkilamchi cho'ziq unlilar saqlangan so'zlarga beshtadan misol keltiring.

6. Diftong unlilar bormi? Diftonglashishning qanday shakllari uchraydi?

7. Adabiy tildagi jarangsiz undoshlar shevada qaysi o'rnlarda jaranglashadi? Misollar yozib, sharhlab bering.

8. Adabiy tildagi jarangli undoshlar shevada jarangsizlanishiga ham misollar keltiring.

9. Adabiy tilda so'z boshida qatnashadigan undoshlar shevada qaysi undoshlar bilan almashishi mumkin? (masalan, doppъ – to'ppъ).

10. **H** undoshi talaffuzda bormi? U qaysi o'rnlarda o'zining adabiy tildagi mavqeyini saqlab qoladi? Misollar keltiring. **H** undoshi talaffuzda yo'q bo'lsa, uning adabiy tildagi o'rni qanday to'ldiriladi? Misollar yozing.

11. Adabiy tildagi **F** undoshi shevalarda qanday variantlarga ega bo'ladi? Misollar yozing.

12. **B** undoshi **v** va **p** ga o'tishi mumkinmi? Misollar yozing.

13. **L** undoshining so'z boshida qo'llanishiga misollar keltiring.

14. Umlaut hodisasiga (ət - ətə) misol keltiring.

15. Sheva "й"lovchi shevami yoki "дж"lovchimi? So'z boshida "й" yoki "дж" qatnashgan o'nta misol yozing.

16. Qo'shma so'zlarda fonetik o'zgarishlar yuz beradimi? Masalan, *bu yerda "borda"*, beshta misol yozing, va fonetik o'zgarishlarni izohlang.

17. So'z boshida, o'rtasida va oxirida tovush orttirilishiga misollar keltiring. Masalan: *ayvon – həyvən, uzum – üyzym* va b.

18. So'z urg'usining turli turkumlardagi so'zlar bo'g'inlariga tushishiga misol keltiring.
19. Shevada o'zidan katta notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:
- ayollarga;
 - erkaklarga.
20. O'zidan kichik notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:
- singillarga;
 - ukalarga.
21. O'z ota-onasini, qarindosh-urug'larini nima deb chaqiradi:
- onasini;
 - otasini;
 - onaning ukasi va akasini;
 - otaning ukasi va akasini;
 - onaning opasi va singlisini;
 - otaning opasi va singlisini;
 - onaning otasi va onasini;
 - otaning otasi va onasini;
 - opa-singillarning farzandlari bir-birlarini;
 - aka-ukalarning farzandlari bir-birlarini.
 - opasining erini nima deb chaqiradi?
22. Akasining qaylig'ini nima deb chaqiradi?
23. Qaynota, qaynona kelinini nima deb chaqiradi? Yangi kelin qayinegachi, qayni va qayni singillariga ism qo'yadimi? Qanday ismlar? Misollar yozing.
24. Non yopish jarayonida qo'llaniladigan predmet va jarayon nomlari.
25. Ovqat pishirishda qo'llaniladigan predmet va jarayon nomlari.
26. Ovqat nomlari.
27. Kunda bezovta qiladigan hashoratlar va gazandalarning nomlari.
28. Qushlar, parrandalar, ular mahsuloti nomlari
29. Mevali va mevasiz daraxtlarning nomi.
30. Sabzavot va poliz mahsulotlari nomlari.
31. Sheva vakillari kasb-kori bilan bog'liq bo'lgan 20 so'zni yozing va izohlab bering.

32. Ko'plik shaklini ifoda qiluvchi affikslar va ularning variantlari. Ko'plik affiksining hurmat ma'nosida qo'llanishi haqida ham ma'lumot bering.

33. Erkalash-kichraytirish affikslari.

34. Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari. Bu kelishiklarning ayrimlari bo'lmasa unga izoh bering va shevaning o'ziga xos turlanishidagi fonetik o'zgarishlarga izoh bering.

35. Jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari. Bu kelishiklarning ayrimlari bo'lmasa unga izoh bering va shevaning o'ziga xos turlanishidagi fonetik o'zgarishlarga izoh bering.

36. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi affikslar.

37. Olmosh turlarini yozing.

38. O'tgan zamon fe'llari tuslanishiga misollar yozing (5ta shakl).

39. Hozirgi zamon fe'llari tuslanishiga misollar yozing (2ta shakl).

40. Kelasi zamon fe'llari tuslanishiga misolar yozing (3ta shakl).

41. Fe'llarning ravishdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

42. Fe'llarning sifatdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

43. Fe'llarning harakat nomi shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

44. Shevaga xos bo'lgan yana qanday faktlarni qayd qilgan bo'lardingiz?

45. Bu savolnomada dasturga xalq og'zaki ijodidan 2ta matn: 1 she'riy matn (kamida 10 qator) va 1 nasriy matn ilova qilish lozim (hajmi kamida 3 sahifa).

Baholash

Amaliyot topshiriqlarinining 1-44-savollariga to'g'ri javoblarning har biri 2 ball bilan baholanadi, 45-topshiriqning to'g'ri bajarilishi maksimal bali 12 baldir.

Mustaqil ishlар uchun adabiyotlar

Абдуллаева Д. Ўзбек тили ашоба шевасининг фонетик хусусиятлари. – Тошкент, 1999.

Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011, 2013.

Бегалиев М. Қ. Ўзбек тилининг Қорабулок шеваси лексикаси. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.

Бобоҷонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. НДА. – Тошкент, 1997.

Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. АДД. – Москва, 1991.

Ибрагимов Ю.М. Жанубий Орол бўйи шевалари тадқиқи. – Тошкент, 2000.

Ибрагимова З. Ю. Қорақалпогистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи. НДА. – Тошкент, 2009.

Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

Муродова Н. Навоий вилояти ўзбек шевалари лексикаси // ЎТА. – Тошкент, 2000. 5-сон.

Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.

Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Ташкент: Ўқитувчи, 1996.

Набиева Д. А. Ўзбек тилида лисоний бирликларнинг нивариант-вариант муносабати. – Тошкент, 1998.

Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўzlари. – Тошкент: Мухаррир, 2011.

Тиллаева М. Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2006.

Сайдова М. Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлиқ терминларининг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент, 1995.

Тўйчибоев Б., Ширинов С, Қашқирли Қ. Туганмас бойликлар булоги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004.

Файзуллаев Б. Хидиров О. Диалектизмлар ва контекст // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент: ТДПУ, 2010.

Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

Шералиев Ш. Э. Ўзбек тили Шарқий Хўжанд шеваларининг грамматик категориялари. – Тошкент, 2001.

Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё “же”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. – Тошкент, 1999.

Эргашев А. А. Андижон вилояти этнонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. НДА. – Тошкент, 2012.

MUNDARIJA

Kirish	3
O‘zbek dialektologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari	4
Transkripsiya	12
O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari	19
O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari	29
O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari	49
O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari	51
Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi	55
Qipcoq lahjasi	61
O‘g‘uz lahjasi	64
Areal lingvistika (lingvistik geografiya)	67
O‘zbek adabiy tili va dialektlar	73
O‘zbek tilining dialektal bo‘linishi	78
Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar	88
O‘zbek dialektologiyasidan test topshiriqlari	109
“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan o‘quv amaliyoti topshiriqlari	125
Mustaqil ishlar uchun adabiyotlar	129

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	3
Предмет, цели и задачи узбекской диалектологии	4
Транскрипция	12
Фонетические особенности узбекских говоров	19
Морфологические особенности узбекских говоров	29
Синтаксические особенности узбекских говоров	49
Лексические особенности узбекских говоров	51
Карлуко-чигиле-уйгурское наречие	55
Кипчакское наречие	61
Огузское наречие	64
Ареальная лингвистика (лингвистическая география)	67
Узбекский литературный язык и диалекты	73
Диалектное членение узбекского языка	78
Материалы для практических занятий	88
Тестовые задания по узбекской диалектологии	109
Задания учебной практики по узбекской диалектологии	125
Литература для самообразования	129

CONTENTS

Introduction.....	3
Subject, the purposes and problems of the Uzbek dialectology.....	4
Transcription.....	12
Phonetic features of the Uzbek dialects.....	19
Morphological features of the Uzbek dialects.....	29
Syntactic features of the Uzbek dialects.....	49
Lexical features of the Uzbek dialects.....	51
Karluk-Chigil-Uygur dialect.....	55
Kypchak dialect.....	61
Oghuz dialect.....	64
Areal linguistics (linguistic geography).....	67
The Uzbek literary language and dialects.....	73
Dialectal division of the Uzbek language.....	78
Materials of a practical training.....	88
Test tasks on the Uzbek dialectology.....	109
Targets of educational practice for the Uzbek dialectology.....	125
The literature for self-education.....	129

YOZUVLAR UCHUN

**KBK 81.12(5 O'zb) 7
UO'K: 119.5.3.**

ISBN 978-9943-381-05-6

**Ashirboyev Samixon. O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //
T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2016. – 136 b.**

Ashirboyev Samixon

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

**“NAVRO'Z” nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi № AI 170. 23.12.2009 y.
100000, Toshkent sh. A.Temur 19.**

Adadi 1000 nusxa. Hajmi 8,5 b/t.
“Times New Roman” garniturasi. Format 60x84 1/16
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib 103.

YOZUVLAR UCHUN

Q.

**KBK 81.12(5 O'zb) 7
UO'K: 119.5.3.**

ISBN 978-9943-381-05-6

**Ashirboyev Samixon. O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //
T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2016. – 136 b.**

Ashirboyev Samixon

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

**“NAVRO'Z” nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi № AI 170. 23.12.2009 y.
100000, Toshkent sh. A.Temur 19.**

Adadi 1000 nusxa. Hajmi 8,5 b/t.
“Times New Roman” garniturası. Format 60x84 1/16
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib 103.



Ashirboyev Samixon, filologiya fanlari doktori, professor. 1946-yil 18-aprelda Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumanida tavallud topgan. 1968-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ni imtiyorli tugatib, shu dargohda ishlab kelmoqda.

1975-yilda nomzodlik, 1990-yilda doktolik dissertatsiyasini himoya qilgan va unga 1993-yilda professorlik unvoni berilgan. Turli yillarda kafedra mudiri, dekan, prorektor vazifalarida ishlagan. Oliy pedagogik ta'limni standartlashtirish bo'yicha taniqli mutaxassis. Oliy ta'lim muassasalari uchun "Eski o'zbek tili va yozuvi", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" qo'llanmalarining, Qozog'iston Respublikasi o'zbek mакtablarining 5, 6, 7, 8, 9-sinflari uchun "O'zbek tili" darsliklariga mualliflik qilgan. 200dan oshiq ilmiy va ilmiy-metodik ishlarning muallifi. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalari, Xalqaro grantlar ishida ishtirot etmoqda.



ISBN 978-9943-381-05-6

9 7 8 9 9 4 3 | 3 8 1 0 5 6